O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

«Buxgalteriya hisobi»kafedrasi

«SOLIQ HISOBOTI»

fanidan

O‘QUV MATERIALLARI

Tuzuvchilar: K.M.Misirov, U.A.Nurmanov

TOSHKENT - 2016

Mavzu: Soliqlar hisobining nazariy asoslari

REJA

1. Soliq hisobiga bo‘lgan zaruriyat va uning rivojlanishi.

2. Soliq hisobini tashkil etishning xorij tajribasi.

Tayanch so‘zlar.
Soliq hisobining shakillanishi, buxgalteriya hisobi, soliq hisobi va soliq tizimining o‘zaro bog‘liqligini, soliq hisobi, soliq hisobining vazifasi, hisob turlarining tasnifi, Soliq hisobini tashkil etishda, xorijiy tajribasi.

1. Soliq hisobiga bo‘lgan zaruriyat va uning rivojlanishi.

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobi nazariy va metodologik jihatdan takomillashib, uni turlari yoki quyi tizimi shakllanyapti. Moliyviy va boshqaruv hisoblarining buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi sifatida qayd etilgan bo‘lsa, keyingi davrda iqtisodiy adabiyotlarda «coliq hisobi», «strategik hisob», «ekologiya hisobi», «dinamik hisob» tushunchalari buxgalteriya hisobining quyi tizimi sifatida yoritilmoqda.

Chet ellik iqtisodchi olimlar Moliyviy, boshqaruv va soliq hisoblarini hisobning alohida turi va quyi tizimi sifatida e’tirof etishmoqda.

Jumladan iqtisodchi olimlar D.Morse va J.Zimmermanlar buxgalteriya hisobini uchta quyi tizimga ajratadi: (1) boshqaruv hisobi; (2) Moliyviy hisob; (3) soliqlar hisobi. R. Aynsvors, D. Deines, R.D. Riumli va K.X. Larsonlar buxgalteriya hisobini o‘zaro bog‘liq bo‘lgan to‘rtta quyi tizimga bo‘ladi: (1) Moliyviy hisob quyi tizimi; (2) boshqaruv hisobi quyi tizimi; (3) soliqlar hisobi quyi tizimi; (4) tartibga soluvchi buxgalteriya hisobi quyi tizimi.

V.Robert, S.Entoni, S.Jemislar o‘zlarining «Accounting principles» nomli kitobida quyidagilarni qayd etadilar: «AQShda Moliyviy hisob, boshqaruv hisobi va soliq hisobi mohiyati jihatidan alohida jarayonlardir. GAAP – Moliyviy hisobning, oliy rahbariyat – boshqaruv hisobining, IRS va kongress esa soliq hisobining tamoyillarini belgilaydi». O.N.Volkovaning yozishicha, «Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimining rivojlanishi va murakkablashishi natijasida, soliqqa tortish bazasini aniq hisob-kitob qilish zaruriyati tug‘ildi. Davlat ham, mulkdor ham va boshqaruvchilar ham bilardilarki, bunday hisob-kitoblar uchun yagona va ob’ektiv ma’lumot bu umumqabul qilingan tamoyillarga mos ravishda jamlangan hisob ma’lumotlaridir. Shu tariqa soliq hisobi paydo bo‘ldi».

V.V.Kachalin ham AQSh amaliyotida Moliyviy va boshqaruv hisoblaridan tashqari soliq hisobini yuritilishini e’tirof etgan.

Ya.V.Sokolov, V.Ya.Sokolovlarning «Istoriya buxgalterskogo ucheta»[16] kitobida «Yagona buxgalteriya hisobi Moliyviy va boshqaruv hisoblariga bo‘lindi. Undan kichik korxonalar hisobi ajraldi. 2002 yildan boshlab bizning mamlakatda soliq hisobi rasman e’lon qilindi. … Moliyviy hisobning yangidan-yangi yo‘nalishlari, turlari paydo bo‘ldi (kreativ, hisobning ijtimoiy, inson resurslari hisobi, insayderlar bilan ishlash, ekologik)» deb e’tirof etgan. Shuningdek ularning yozishicha, «Hozirgi (1950 yildan) bosqich balansni dinamik va statistik talqin jihatdan qarashlarning rivojlanishiga olib keldi. Dinamik talqin va kalkulyatsiyani evolyutsiyaviy metodlari boshqaruv hisobining tug‘ilishiga olib kelgan bo‘lsa, statistik talqin esa – Moliyviy hisobotni xalqaro standartlari (MHXS) va milliy schetlar tizimining paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu ikki

[16] Sokolov Ya.V, Sokolov V. Ya, Istoriya buxgalterskogo ucheta: M: Finansi i statistika, 2006. 243 s.

talqin soliq hisobining shakllanishiga ta’sir qildi».


Bir qator rossiyalik iqtisodchilar soliq hisobini buxgalteriya hisobining quyi tizimi emas, balki buxgalteriya va soliq hisoblarini alohida ikki turga bo‘linishi tarafdorlaridir. A.Pochinok fikricha, «soliq va buxgalteriya hisobi – hisob va hujjatlashtirishning ikki turidir». Shu fikrni rus iqtisodchilari A.V. Brizgalin, V.R Bernik, A.A. Golovkin, E.V. Demeshevalar ham qo‘llab – quvvatlaganlar.

Amir Temur davlatni boshqarishda hisobga, shu jumladan soliq hisobiga ham alohida e’tibor berganlar. Bobomiz o‘zlarining «Temur tuzuklari» tarixiy kitobida soliq hisobi to‘g‘risida quyidagilarni e’tirof etganlar: «Yana har bir o‘lkaga uch vazir tayinlashlarini buyurdim. Bulardan biri raiyat uchun (bo‘lib), undan yig‘iladigan oliq – soliqlarning undirilishini kuzatib, hisobotini olib borsin. Oliq – soliq miqdori, soliq to‘lovchilarning nomlarini yozib borsin va raiyatdan yig‘ilgan mablag‘ni saqlasin. Ikkinchi vazir sipoh ishlarini boshqaradi. Sipohga berilgan va berilishi lozim bo‘lgan mablag‘ hisobini olib borsin. Uchinchi vazir esa daraksiz yo‘qolgan kishilar, kelib-ketib yuruvchilar (sayohatchilar va savdogarlar), har xil yo‘l bilan yig‘ilib qolgan hosil, aqldan ozganlarning mol-mulki, vorissiz mol-mulkni, qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirsin».

Xo‘sh, soliq hisobining shakllanish zaruriyati nimadan kelib chiqdi?

Xorijiy olimlardan A.V.Brizgalinning qayd etishicha, «1994 yilning oxirlariga kelib, soliqqa tortish tizimining takomillashishi natijasida, buxgalteriya hisobini soliqqa tortish maqsadiga bo‘ysindirish, butun hisob tizimini qayta qurish va qayta moslashuv zaruriyati vujudga keldi». Bozor iqtisodiyoti sharoitida hisob integratsiyalashuv o‘rniga differentsiallashuv tomon rivojlanmoqda. Hisob yangi turining, shu jumladan soliq hisobining paydo bo‘lishi ilmiy fikrlarning progressivlashuvining natijasidir.

Soliq hisobining kelib chiqishi – bu buxgalteriya (Moliyviy) hisob bilan soliqqa tortish tizimini kesimida, ya’ni ularning o‘zaro bog‘liqligining natijasidir. Buxgalteriya hisobi, soliq hisobi va soliq tizimining o‘zaro bog‘liqligini quyidagi 1-rasmda Venn diagrammasi tarzida aks ettirish mumkin.




1-Rasm. Makroiqtisodiyot darajasida soliq hisobining kelib chiqishi.

Bu diagramma orqali buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tizimining o‘zaro bog‘liqligini optimal nuqtalarini topish printsipial ahamiyatga ega. Bu bog‘liqlikning optimal nuqtasi – bu soliq hisobining kelib chiqishidir.

Ma’lumotlardan foydalanuvchilar manfaatiga qarab hisobning uchta turi bo‘lib, ular Moliyviy, boshqaruv va soliq hisoblaridir. Bularning har birining o‘z maqsadi, vazifasi va metodologiyasi bor.

Buxgalteriya hisobining bu 3 turi bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va bu bog‘liqlikni ham Venn diagrammasi tarzida aks ettirish mumkin (2-rasm).

Shuni qayd qilish lozimki, bugungi kungacha soliq hisobi tushunchasi iqtisodchi olimlar va amaliyotchilar tomonidan turlicha talqin etib kelinmoqda.



2-Rasm. Buxgalteriya hisobi turlari o‘zaro bog‘liqligining Venn diagrammasi.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 25-bobi 313-moddasida soliq hisobi quyidagicha ta’riflangan: «Soliq hisobi – boshlang‘ich hujjatlar asosida foyda solig‘i bo‘yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash uchun Soliq kodeksida belgilangan tartibga mos ravishda guruhlangan ma’lumotlarning umumlashtirilgan tizimidir»[17].

Bu ta’rifda soliq hisobi faqat foyda (daromad) solig‘ini soliqqa tortish bazasini aniqlash uchun kerakli bo‘lgan ma’lumotlar tizimini ko‘zda tutgan. Shu sababli, soliq hisobiga tor ma’noda ta’rif berilgan. Bizning fikrimizcha, soliq hisobining ob’ekti faqat foyda solig‘i emas, balki u yoki bu mamlakatda amal qilayotgan barcha soliq turlari hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasining Soliq kodeksi 25-bob, 313-moddasida quyidagicha yozilgan: «Soliq to‘lovchilar hisobot (soliq) davri natijasiga ko‘ra soliqqa tortish bazasini soliq hisobi ma’lumotlari asosida hisoblaydi». O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining «Soliqni hisobga olish» deb nomlangan 10-moddasida quyidagicha yozilgan: «Yuridik shaxslarning daromadlari va soliqlarini hisoblab chiqish uchun ular bo‘yicha tegishli chegirmalar, to‘lov to‘langan vaqt va pul kelib tushgan sanadan qat’iy nazar, ular taalluqli bo‘lgan hisobot davrida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aks ettiriladi».

Bu qiyoslashdan xulosa shuki, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining yangi tahririda «soliq hisobi» alohida moddada bayon etilgan. Bunda respublikamiz iqtisodiyoti va soliq tizimining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, «soliq hisobi»ga quyidagicha ta’rif berish mumkin:


Soliq hisobi – mustaqil faoliyat yurituvchi barcha jismoniy va yuridik sub’ektlarning soliq va majburiy to‘lovlari bo‘yicha soliq tortish bazasini aniqlash uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich ma’lumotlarni hisobga olish tizimidir.

Ushbu ta’rifga asoslangan holda soliq hisobining vazifasini, maqsadini quyidagicha bayon etish mumkin.

Soliq hisobining vazifasi – bu hisobot davrida soliq va majburiyat to‘lovlarni to‘g‘ri hisoblash uchun zarur bo‘lgan ishonchli ma’lumotlarni hisobga olish, hamda ichki va tashqi foydalanuvchilarni zaruriy ma’lumotlar bilan ta’minlashdan iborat.

Buxgalteriya hisobi tarkibiga «soliq hisobi»ni kiritish natijasida hisob turlarining tasnifi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi. (3-rasm).

[17] Nalogoviy kodeks Rossiyskoy Federatsii (chast vtoraya). Glava -25, statya 313.M.: Vershina, 2005. s. 177.



3- Rasm. Hisob turlarining tasnifi.

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, buxgalteriya hisobi Moliyviy, boshqaruv va soliq hisoblaridan tashkil topgan. Moliyviy, hisobning yakuni sifatida Moliyviy hisobotlar tuzilsa, boshqaruv hisobi natijasida boshqaruv qarorlari ishlab chiqiladi, soliq hisobining yakuniy natijasida esa -soliqlar bo‘yicha hisobot tuziladi. Moliyviy boshqaruv va soliq hisoblari bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, bir-birini ma’lumotlar bilan to‘ldiradi. Bu esa, buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilar uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘liq olish imkoniyatini beradi.

2. Soliq hisobini tashkil etishning xorij tajribasi.

Soliq hisobini tashkil etishda, xorijiy mamlakatlarda soliq hisobining mavjudligi va ular tajribasini o‘rganish muhim ahamiyatga egadir. Buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikka asosan buxgalteriya hisobining quyidagi metodlari mavjud: «kontinental», «inglizsakson», «janubiy amerika», «islom».

Buxgalteriya hisobining modellarini ko‘rib chiqishda ishlab chiqarishi va sanoati rivojlangan Germaniya, AQSh, Rossiya, Frantsiya, Yaponiya va Buyuk Britaniya mamlakatlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chunki, birinchidan, bu mamlakatlarda buxgalteriya hisobining tamoyillari bir-biridan farq qiladi. Ikkinchidan, bu mamlakatlarda buxgalteriya hisobi va hisoboti xalqaro standartlarining asosi yaratilgan va ular BHXS rivojlanishiga ta’sir qiladi. Uchinchidan esa, bu mamlakatlar respublikamizda buxgalteriya hisobining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan mamlakatlardir.

Bu modellar qaysi mamlakatlarda amal qilinishi va u yoki bu modelning ijobiy tomonlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Kontinental modelda buxgalteriya hisobi tizimi bevosita soliqqa tortishning tamoyillari, qoidalari asosida shakllanadi va yuritiladi. Bu model tashkil qilinganda, Moliyviy buxgalteriya hisobi bilan soliq hisobining ko‘rsatkichlari mos keladi. Shuning uchun ham adabiyotlarda «kontinental» model ba’zan «soliq» modeli ham deb yuritiladi.

Buxgalteriya hisobining kontinental modeli asosida milliy hisob tizimini tashkil qilgan mamlakatlarga Germaniya, Shvetsiya, Belgiya, Ispaniya, Italiya, Frantsiya, Shveytsariya, Yaponiya va boshqalar kiradi. Bu mamlakatlarda buxgalteriya hisobining soliqqa tortish tizimiga bog‘liqlik darajasi har xil. Germaniyada bu holat o‘ta kuchli bog‘langan bo‘lsa, Frantsiyada kuchli ta’sirda, boshqa mamlakatlarda kuchsizroq bog‘liqlikda bo‘lib kelmoqda.

Yaponiyada buxgalteriya hisobi kontinental modeli asosida tashkil qilingan bo‘lsada, Moliyviy hisobni yuritishda nemis va amerika tamoyillarining ba’zi elementlari amaliyotda qo‘llaniladi. Hozirgi vaqtda Yaponiyada buxgalteriya hisobining tamoyillari bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqqan holda shakllantirilmoqda.

Yaponiyada buxgalteriya hisobining standartlari Tijorat kodeksi va «Qimmatli qog‘ozlar va birjalar to‘g‘risida»gi qonunlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi. Tijorat kodeksi kreditorlar huquqini himoya qilishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi hujjat esa, aktsionerlar huquqini himoya qiladi. Bu mamlakatda buxgalteriya hisobi tamoyillari MOLIYA vazirligi huzuridagi «Buxgalteriya hisobi metodologiyasi bo‘yicha kengash» tomonidan ishlab chiqiladi va amaliyotga tadbiq qilinadi.

Yaponiya milliy daromadlarining 29,9 foizi daromad solig‘i, 26,2 foizi korporativ soliq, 23,1 foizi iste’mol solig‘i hisobiga shakllanadi.

Yaponiyada soliqqa tortiladigan foydani hisoblashda Tijorat kodeksida ko‘rsatilgan Moliyviy hisobning qoidalari qo‘llaniladi. Shuning uchun ham Yaponiyada soliqqa tortish tizimining Moliyviy buxgalteriya hisobiga ta’siri kuchsizroqdir.

Kontinental modelning ijobiy tomoni quyidagilardan iborat:

- oddiylik va hisob metodologiyasining yagonaligi (ya'ni moliyviy hisobot yagona qoidaga asosan tuziladi);
- daromad pul kelib tushgandan keyin tan olinadi;
- yagona hisob tizimi mavjudligidan ikki xil moliyviy natija kelib chiqmaydi (aktsionerlar va soliq organlari uchun).

Buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning o'zaro bog'liqligining kontinental kontseptsiyasi XIX asrda Prussiyada vujudga kelgan va bu qoidaga asosan balans foydasining summasi foydaning soliqqa tortish bazasiga teng bo'lishi kerak. Bu modelning asosiy xususiyati shundan iboratki, bunda Moliyviy hisobot davlat soliq organlari manfaatini ko'zlab tuziladi.

Buxgalteriya hisobining «inglizsakson» yoki «ingliz-amerika» modeli asosan qimmatbaho qog'ozlar bozorlari rivojlangan mamlakatlarda amal qiladi. Bu model investorlar va kreditorlar manfaatlarini hisobga olgan holda yuritiladi. Mazkur model amal qilayotgan mamlakatlarda buxgalteriya hisobi davlat tomonidan tartibga solinmaydi. Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari buxgalterlar assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqiladi, davlat organlari shu tamoyillarni tan oladi.

Buxgalteriya hisobining «inglizsakson» modeli quyidagi mamlakatlarda amal qiladi: Avstraliya, Buyuk Britaniya, Zimbabve, Isroil, Hindiston, Irlandiya, Kanada, AQSh, Pokiston va boshqalar. Bu mamlakatlarda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tizimlari o'rtasida kuchsiz bog'lanish bor. Ba'zi mamlakatlarda bu tizimlar o'rtasida bog'lanish yo'q bo'lib, Moliyviy va soliq hisoblari parallel holda yuritiladi. Masalan, AQShning katta korporatsiyalarida Moliyviy va soliq hisoblari alohida olib boriladi. AQShda buxgalteriya hisobi bilan soliq hisobining asosiy farqi amortizatsiya ajratmalarini hisoblash metodi va xarajatlarni tan olishidadir. Buning asosiy maqsadi korxonaning Moliyviy natijalarini to'g'ri va aniq hisoblashdir.

Rossiya Federatsiyasida buxgalteriya hisobi tizimi oldin kontinental model asosida rivojlangan bo'lib, uning shakllanishida frantsuz va nemis maktablarining ta'siri katta bo'lgan. Rossiyada buxgalteriya hisobining rivojlanishida hisobning tarixiy o'ziga xosligi ham alohida ahamiyat kasb etgan.

Rossiyada 2000 yildan keyin buxgalteriya hisobi tizimida «ingliz-sakson» modelining tamoyillari shakllana bordi. Buning asosiy sababi – Rossiya iqtisodiyotiga transmilliy kompaniyalarning kirib kelishi bo'lgan bo'lsa, keyingi sababi Rossiyani jahon iqtisodiy integratsiyasiga intilishidir. Yana bir sababi, Rossiya buxgalteriya hisobi tizimining Moliyviy hisob va hisobotning xalqaro standartiga o'tishidir. Bularning ta'sirida Rossiyada soliq hisobi paydo bo'ldi va rivojlandi.

Rossiya Federatsiyasida 2002 yildan boshlab moliyviy, boshqaruv hisoblari bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soliq hisobini ham yuritmoqda. Bunga asos bo'lib Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 25-bobiga Soliq hisobi tushunchalarini kiritilishidir, ya'ni ushbu kodeksning 313-moddasi «Soliq hisobi. Umumiy tartiblar» deb ataladi. Ushbu moddaga asosan soliq to'lovchilar soliq hisobi tizimini mustaqil ravishda tashkil qilishlari zarur. Soliq hisobini yuritish tartibi, soliq to'lovchi tomonidan soliq hisobi siyosatini ishlab chiqishda o'rnatiladi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan nafaqat soliq hisobi qaysi mamlakatlarda amal qilishi, balki soliq hisobi qaysi mamlakatlarda mavjud emasligi hamda uning sabablari ham o'rganilgan. Jumladan: O.N.Volkovaning yozishicha, Portugaliyada soliq hisobining mavjud emasligi buxgalteriya hisobining yuqori darajada soliqqa tortish maqsadiga bo'ysundirilganligidadir. Soliq organlari to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita hisob

metodologiyasini shakllantiradi. Shu asosida alohida soliq hisobini yuritishga zaruriyat bo‘lmaydi.

Ya.V.Sokolovning fikricha, Frantsiyada soliq hisobining mavjud emasligi, Frantsiya buxgalteriya hisobi intizomining huquqiy mohiyatidan, ya’ni hisob tamoyillari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tijorat va soliq qonunchiligidan kelib chiqadi. Korxonalar soliq bo‘yicha majburiyatlarini aniqlashda buxgalteriya hisobida aks ettirilgan foydani korrektirovka qilish jadvalini to‘ldiradi. Shu asosida buxgalteriya hisobida aniqlangan foyda summasi bilan soliqqa tortish bazasi o‘rtasida farq bo‘lmaydi.

S.Qodirxonov va Sh.Mamatqulovlarning e’tirof etishicha, Xitoy Xalq Respublikasida soliq hisobining mavjud emasligi quyidagilar bilan bog‘liq. Buxgalteriya hisobini me’yoriy tartibga solish, soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi. Moliyviy hisobotni tayyorlash va topshirishning qat’iy tartibi mavjud. Xitoy Xalq Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunida barcha korxonalar moliyviy hisobotni maxsus talablariga binoan tayyorlashlari lozimligi ta’kidlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, turli mamlakatlarda buxgalteriya hisobi bilan soliqqa tortish mexanizmlari o‘rtasida bog‘lanish turlicha. Bundan mamlakatlar iqtisodiyotida soliq hisobining tutgan o‘rni har xil bo‘lib, ular tajribasini o‘rganib, mamlakatimiz buxgalteriya hisobi va soliq siyosatini takomillashtirishda foydalanish kontseptsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Soliq hisobining xorijiy mamlakatlarda qanday tashkil etilganligini o‘rganishdan asosiy maqsad, ular tajribasidan Respublikamiz buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etishda foydalanishdir. Shuni alohida qayd etishimiz kerakki, xorij tajribasini olib, ko‘r-ko‘rona tadbiq etish emas, balki respublikamiz buxgalteriya hisobi tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanishimiz zarur bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi tizimiga soliq hisobini qo‘llash muammosini hal etishdan oldin, hisob tizimimiz qaysi buxgalteriya hisobi modeliga yaqinroq degan savolga javob berishimiz kerak.

Mamlakatimiz buxgalteriya hisob tizimining qaysi hisob modeliga tegishli yoki yaqinroq degan savolga javob berishda mavjud omillarni hisobga olishimiz maqsadga muvofiq. Bu omillar quyidagilar:

1. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanuvchilarning manfaatlari.
2. Korporativ boshqaruv modeli.
3. Investorlar huquqini himoya qilish darajasi.
4. Kapital bozorining kimga qaratilganligi (orientiri).
5. Moliyviy hisobning soliqqa tortish tizimiga nisbatan bo‘lgan mavqei.

Keyingi yillarda qabul qilingan qonunlar, respublikamizda buxgalteriya hisobining halqaro standartlari asosida milliy standartlarning ishlab chiqilishi, soliq qonunchiligining rivojlanishi va soliq siyosatining takomillashishi mamlakatimiz hisob tizimini «kontinental» model asosida olib borilmoqda degan asos yo‘q. Chunki amaliyotda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning ob’ektlari bo‘lgan bir qator kategoriyalarni aniqlashda soliq tizimi va buxgalteriya hisobida har xil usullar qo‘llanilmoqda. Masalan, asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalar summasini aniqlashda, farq kelib chiqadi. Bu masalaning echimini topishda soliq hisobining elementlarini qo‘llashga zaruriyat tug‘iladi.

Ikkinchidan, soliq qonunchiligimiz moliyviy buxgalteriya hisob ma’lumotlari asosida aniqlangan Moliyviy natijalarni soliqqa tortish maqsadida tan oladi.

Uchinchidan, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘zlarining soliq hisobotlarini tuzishda Moliyviy hisob axborotlaridan foydalangan holda tuzadi. To‘g‘ri moliyviy hisob axborotlari soliqqa tortish maqsadida korrektirovka qilinadi va o‘zgartirishlar kiritiladi.

To‘rtinchidan, soliq qonunchiligi, shu jumladan, Soliq kodeksiga 1997 yildan beri 250 ga yaqin o‘zgartirishlar kiritildi, qo‘shimcha 1300 ta me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Buning natijasida buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy xujjatlariga ham o‘zgartirishlar kiritilishi zaruriyati tug‘ildi. Bu holat, soliqqa tortish tizimini buxgateriya hisobi tizimiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda degan xulosani keltirib chiqaradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, respublikamizda amal qilayotgan buxgalteriya hisobi tizimi «Ingliz-Amerika»– «Inglizsakson» modeli yo‘nalishida rivojlanmoqda. Bu bilan bizda respublikamiz buxgateriya hisobi tizimi xuddi AQSh yoki Buyuk Britaniya mamlakatlaridagi hisob tizimidek degan fikr tug‘ilmasligi kerak. Bizda Moliyviy va soliq hisoblari «avtonom» holda yuritilmaydi. Bu to‘g‘risida hali me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmagan. Masalaning ikkinchi tomoni bor, u yoki bu mamlakat hisob tizimidan bizga mos tomonlarini olib, o‘zimizning xususiyatlarini hisobga olgan holda qo‘llashimiz zarur.

Bu borada bizning ba’zi mulohazalarimiz mavjud.

Birinchidan, respublikamizda amal qilayotgan Soliq kodeksining yangi tahririni ishlab chiqilishda Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksidek alohida moddada «soliq hisobini Moliyviy hisob asosida tashkil etish» ko‘zda tutilishi kerak. Bu esa, mamlakatimizda soliq hisobini tashkil etish va olib borish uchun me’yoriy – huquqiy asos bo‘ladi.

Ikkinchidan, Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 25-bobida e’tirof etilgan, iqtisodchi omillar tomonidan takomillashtirilgan soliq hisobi registrlari shaklidan foydalangan holda, respublikamiz amaliyotiga moslashtirilgan shaklini ishlab – chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Soliq hisobi registrlari, schyotlar rejasini ishlab – chiqish borasida Rossiya Federatsiyasi MOLIYA vazirligi, Soliqlar va yig‘imlar vazirligi, hamda iqtisodchi olimlar tomonidan ancha ishlar amalga oshirilgan.

Jumladan, soliq hisobi registrlari ishlab chiqilgan. Soliq hisobi registrlari 51 ta shaklda bo‘lib, ular 5 ta guruhga birlashtirilgan. Ular qog‘oz va elektron shakllarda bo‘lib, Rossiya Federatsiyasining Soliq kodeksi tomonidan maxsus talablar qo‘yilmagan. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar registrlarda aks ettirilgan xo‘jalik operatsiyalarining to‘g‘riligiga javob beradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, soliq hisobi registrlarini yuritish, korxonalarni Moliyviy xo‘jalik faoliyatini operatsiyalarini soliqqa tortish maqsadida to‘liq va uzluksiz aks ettirish tamoyiliga asoslanadi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘zlari faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqib, tegishli hisob registrlarini yuritadi, zaruriyat tug‘ilganda, registrlarga qo‘shimcha rekvizitlar, ko‘rsatkichlar, bo‘limlar kiritishlari mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shunday hulosa qilishimiz mumkin:

- soliq hisobi registrlarini soliq to‘lovchilar tomonidan mustaqil ravishda yuritishni tashkil qilish;

- xo‘jalik operatsiyalarini to‘liq aks ettirish, moliyviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida to‘liq ma’lumot olish maqsadida registrlarga qo‘shimchalar kiritishlari mumkin;

- soliq hisobi registrlarini yuritishdan asosiy maqsad – har bir soliq turi bo‘yicha soliqqa tortish bazasini to‘g‘ri aniqlash.

Rossiya Federatsiyasi Soliqlar va yig‘imlar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va hozirda amaliyotda qo‘llanilayotgan soliq hisobi registrlari shakllaridan mamlakatimiz


amaliyotida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ulardan foydalanishda iqtisodiyotimiz va soliq siyosatimiz xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, soliq to‘lovchilar faoliyatini hisobga olgan holda tegishli o‘zgartirishlar kiritish zarur bo‘ladi. Bu registrlarni yuritish har bir soliq turi bo‘yicha hisobning analitik mohiyatini yanada oshiradi.

Rossiya Federatsiyasi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarida moliyviy va soliq hisoblari quyidagi sxemada yuritiladi (4-rasm).

Bundan ko‘rinib turibdiki moliyviy va soliq hisoblarini bir-biridan umuman ajratish mumkin emas, chunki soliq hisobi va uning registrlarini yuritish juda murakkab jarayondir. Bu murakkablikning soliq hisobini avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish asosida echimi topiladi.

Hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiyasida soliq hisobini yuritishda quyidagi axboriy tizimlar (AT) qo‘llanilmoqda:

«1S: Buxgalter», «1 S:Predpriyatiya 7.7.», «Nalogoviy uchet 1.0» va boshqalar.



4-Rasm. Rossiya Federatsiyasi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarida Moliyviy va soliq hisoblari.

Mazkur axboriy tizimlarning amaliyotda qo‘llanishi buxgalterlar uchun qulayliklar tug‘diradi va ularning ishlarini engillashtiradi. Jumladan, moliyviy va soliq hisobi ma’lumotlarini taqqoslash, soliq hisobini olib borishda yo‘l qo‘yilgan xatolarni o‘z vaqtida to‘g‘rilash imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, bu axboriy tizimlardan soliq hisobini registrlarda yuritish va soliq qonunchiligiga rioya qilish bo‘yicha hujjatli tekshirishlarni osonlashtirish maqsadida ham foydalaniladi.

Soliq hisobini tashkil etish borasida Ukraina va Belorusiyada ham juda ko‘p nazariy, metodologik va amaliy ishlar qilingan.

Mavzu: Soliq hisobining ob’ekti va metodi.

REJA

1. **Soliq hisobining predmeti va ob’ektlari.**
2. **Soliq hisobining tamoyillari va metodi.**
3. **Soliq hisobining registrlari.**
4. **Soliq hisbotini tuzish tartibi.**

Tayanch so‘zlar.
Buxgalteriya hisobi predmeti, soliq hisobining predmeti, hisob ob’ekti, hisob tamoyillari, metod, hisob registrlari, analitik hisob registri, sintetik hisob registri, hisob siyosati, soliq hisobi siyosati, hisob siyosatining tarkibi, daromad, harajat, asosiy vosita, nomoddiy aktivlar, amortizatsiya ajratmasi, TMZ.

1. Soliq hisobining predmeti va ob’ektlari.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobi, shu jumladan soliq hisobi predmetiga bozor modelini o‘zida aks ettiruvchi ta’rifini berish nazariy ahamiyatga ega.

Soliq hisobining predmeti va ob’ektiga umumqabul qilingan buxgalteriya hisobining predmeti va ob’ektini evolyutsiyaviy rivojlanish tarixidan kelib chiqishi kerak.

Buxgalteriya hisobining predmeti faqat individual kapitalning aylanishi emas, balki barcha kapitalning aylanishi bo‘lib hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining predmeti bo‘lib turli mulk shaklidagi iqtisodiy sub’ektlarning umumxo‘jalik faoliyatini tashkil qiluvchi jarayonlar, operatsiyalar va ularning natijalari, shuningdek ushbu faoliyatni uzluksiz yuritilishini ta’minlovchi aktivlar va ularning shakllanish manbalarining holati va harakati hisoblanadi[23].

Soliq hisobining predmetiga ta’rif berishda hisob va soliqqa tortish nazariyasi nuqtai nazardan kelib chiqishi kerak. Soliq hisobi predmetining ta’rifida hisob va soliqqa tortish nazariyasining asosiy tamoyillari o‘z aksini topishi zarur.

Soliq hisobining predmeti deganda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va tadbirkorlarning xo‘jalik faoliyatini yuritish asosida soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kelib chiqadigan majburiyatlarni hisoblash, to‘lash va tahlil qilish tushuniladi.

Bu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, buxgalteriya hisobining predmeti soliq hisobi predmetiga nisbatan keng tushuncha bo‘lib, soliq hisobi buxgalteriya hisobi predmetining tarkibiga kiradi va uning mohiyatini yanada aniqlashtiradi.

Soliq hisobining sub’ekti bo‘lib soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Soliq hisobining ob’ektlarini aniqlashda bevosita buxgalteriya hisobining ob’ektiga murojaat qilishimiz kerak. Chunki buxgalteriya hisobining ob’ektlari Moliyviy, boshqaruv va soliq hisoblari ob’ektining asosi hisoblanadi.


O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunning 4-moddasida «Buxgalteriya hisobi ob’ektlari. Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zahiralar, daromadlar va xarajatlar, foyda, zararlar hamda ularning

[23] Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. Toshkent. Fan. 2005. 68-b.

harakati bilan bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ob’ektlaridir»[29] deb ko‘rsatilgan bo‘lib, ob’ektga ta’rif berilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, soliq hisobining ob’ekti bu «Korxonalarda ro‘y bergan xo‘jalik operatsiyalar, aktivlar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar va foyda soliq hisobining ob’ektlaridir».

Buni quyidagi sxema tarzida 1-rasmda aks ettirildi.



1-rasm Soliq hisobining ob’ektlari.

[29] O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni.-Toshkent: 30.08.1996.

Soliq hisobining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- yuridik shaxslar tomonidan soliqlar hamda majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri hisoblash;
- hisoblangan soliq va majburiy to‘lovlarni davlat byudjeti hamda davlatning maqsadli jamg‘armalariga o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash;
- soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha belgilangan imtiyozlardan keng foydalanish.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar Soliq kodeksiga amalga kiritilgan edi.

Soliq kodeksda soliqlardan ko‘zlangan maqsad davlat ijtimoiy kafolatlarining Moliyviy bazasini ta’minlash, yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanishni va atrof-muhitni muhofaza etishni rag‘batlantirish, deb belgilangan.

Mazkur Kodeksda O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi soliqlar, soliq to‘lovchilar, soliq solish ob’ektlari, soliq to‘lash tartibi, soliq solish yuzasidan beriladigan imtiyozlar, qonunni buzganlik uchun javobgarlik hamda soliqlar to‘lash munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarni hal etishning umumiy tartibi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Soliq kodeksda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amal qiladi.

Soliqlarga quyidagilar kiradi:

1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
3) qo‘shilgan qiymat solig‘i;
4) aktsiz solig‘i;
5) er qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;
6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
7) mol-mulk solig‘i;
8) er solig‘i;
9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i;
10) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to‘lovlarga quyidagilar kiradi:

1) ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlar:
- yagona ijtimoiy to‘lov;
- fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;

2) Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar:
- Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;
- Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar;

3) davlat boji;
4) bojxona to‘lovlari;
5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im.

2. Soliq hisobining tamoyillari va metodi.

Hisob nazariyasida uning tamoyillari muhim o‘rin egallaydi. Chunki tamoyillar hisob metodologiyasining asosi va negizi bo‘lib hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi

metodologiyasining asosiy maqsadi ham umumiy hisob tamoyillarini ishlab chiqishdir. Bu hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yana dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Keyingi paytda buxgalteriya hisobi tamoyillarining nazariy masalalariga me’yoriy hujjatlarda alohida e’tibor berilmoqda. Lekin, soliq hisobi tamoyillari adabiyotlarda yoritilmagan va kam tadqiqot qilingan nazariy masala bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham soliq hisobining tamoyillariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Buxgalteriya hisobining tamoyillari soliq hisobi uchun ham umumiy tamoyillar bo‘lib, ularga asoslangandir. Shuning uchun ham buxgalteriya hisobining tamoyillarini eslatib o‘tishni maqsadga muvofiqdir.

«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunning 6-moddasida quyidagi tamoyillar aks ettirilgan: «Buxgalteriya hisobining asosiy qoidalari quyidagilardir:

- buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usulida yuritish;
- uzluksizlik;
- xo‘jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi;
- aniqlik;
- hisoblash;
- istiqbolni ko‘ra bilish (ehtiyotkorlik);
- mazmunning shakldan ustunligi;
- ko‘rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi;
- Moliyviy hisobotning betarafligi;
- hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi;
- aktivlar va majburiyatlarning baholanishi»[34].

«Moliyviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning kontseptual (tamoyil) asoslari» O-BHMS da quyidagi tamoyillar keltirilgan:

Tamoyillar:

- hisoblash;
- ikki yoqlama qayd etish usuli bilan hisob yuritish;
- uzluksizlik;
- xo‘jalik muomalalari, aktivlar va passivlarni baholash;
- ishonchlilik;
- ehtiyotkorlik (konservatizm);
- mazmunni shakldan ustunligi;
- ko‘rsatkichlarning qiyosiyligi;
- betaraflik;
- hisobot davri daromadlari bilan xarajatlarining muvofiqligi;
- aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy bahosi;
- tushunarlilik;
- ahamiyatlilik;
- muhimlilik;
- haqqoniy va xolis taqdim;
- tugallanganlik;
- izchillik;
- o‘z vaqtida taqdim etish»[35].

[34] «O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonun 6-modda.-Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2005.

[35] O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining Milliy standartlari.-Toshkent 2004. 7-b.

Tamoyilar yig‘indisi hisob kontseptsiyasini tashkil qiladi. Shunga asoslangan holda soliq hisobi kontseptsiyasiga ta’rif beramiz. Soliq hisobining kontseptsiyasi – soliq hisobini yuritish va soliq hisobotini tuzishning asosiy nazariy tamoyillarining majmuasidir. Bu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, kontseptsiya elementlari bo‘lib soliq hisobining tamoyillari hisoblanadi.

Shuningdek, soliq hisobi tamoyillarini soliqqa tortishning va buxgalteriya hisobining tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqish kerak. Shuni alohida qayd etish kerakki, umumiylik bilan bir qatorda, soliq hisobi tamoyillari buxgalteriya hisobi tamoyillaridan farq qiladi. Eng asosiy farq, agar buxgalteriya hisobi ikki yoqlama yozuv tamoyillariga asoslansa, soliq hisobi esa, bir tomonlama yozuvlarga asoslanadi.

E’tirof etilganlardan kelib chiqqan holda, soliq hisobi tamoyiliga quyidagicha ta’rif berildi.

Soliq hisobi tamoyillari – soliq hisobini yuritishning metodologiyasi asosini tashkil etuvchi qoidalar tizimidir.

Bu ta’rifga va yuqoridagilarga asoslangan holda soliq hisobining tamoyillariga quyidagilar kiradi: ikki yoqlama yozish, davriylik, soliqlar bo‘yicha majburiyatlarni tan olish, daromat va xarajatlar mos kelishi, konunlar bilan mustaxkamlanganlik tamoyillari.


Soliq hisobi predmeti va tamoyillarining o‘ziga xosligi uning metodini ham aniqlashga imkon yaratadi. Bevosita metod va usullar yordamida soliq hisobining ob’ekti o‘rganiladi. Buxgalteriya hisobining, shu jumladan soliq hisobining metodi va usullarini aniqlashda bevosita ularning maqsadi, funktsiyasi, vazifasi hamda metodologiyasini hisobga olishimiz kerak. Soliq hisobining metodi umumqabul qilingan buxgalteriya hisobining metodi va usullariga asoslanishdan tashqari, o‘zining maxsus metod va usullariga ega.

Soliq hisobining metodi – xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning xo‘jalik operatsiyalari, aktivlari, soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlar, daromad, xarajat va foyda ko‘rsatkichlarini aks ettiruvchi usullar majmuasidir. Shunday qilib, soliq hisobining tamoyillari va metodini belgilab oldik. Tamoyillar va metodga asoslangan holda soliq hisobini olib borish metodologiyasining nazariy muammolarini echishga harakat qilamiz. Soliq hisobotini olib borish metodikasi bo‘yicha ham mutaxassislarning fikrlari har xil.

Ikkinchi pog‘ona standartlarida har bir soliqning aniq turi va soliq hisobi jarayonlari va soliq hisobi bo‘yicha soliq hisobini yuritish tartibi hamda buxgalteriya va soliq hisoblarining o‘zaro bog‘liqligi belgilanadi. Soliq hisobining hisob siyosati ikkinchi pog‘ona standarti hisoblanadi.

Uchinchi pog‘ona standartlari bo‘lib, soliq hisobini olib boruvchilar ishlarini aniqlashtiruvchi va tartibga soluvchi nizomlar va yo‘riqnomalar hisoblanadi». Soliq hisobini tashkil etishning quyidagi variantlari mavjud (2-rasm).

1. Soliq hisobi siyosatini tasdiqlash asosida soliq hisobi registrlaridan foydalanilgan holda soliq hisobini tashkil etish;
2. Moliyviy hisob ma’lumotlari asosida soliq hisobi registrlarini shakllantirish asosida tashkil etish.



2-Rasm. A. Vagnerning soliqqa tortish tamoyillarini guruhlashtirish.

3. Soliq hisobining registrlari.

Hisob registrlari ikki guruhga bo‘linadi: analitik va sintetik. Soliq hisobining analitik registlari - buxgalteriya hisobi schyotlariga taqsimlanmagan (aks ettirilmagan) holda hisob davridagi soliq hisobi ma’lumotlarini guruhlashtirilgan, tizimlashtirilgan yig‘ma shakllaridir. Analitik registrlar soliq to‘lovchilar tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va hisob siyosatiga ilova qilinadi. Hisob registrlarini yuritish asosida soliq hisobini tashkil etish tizimi ishlab chiqiladi (5-rasm). Rossiya Federatsiyasi Soliqlar va yig‘imlar vazirligining 2001 yil 19 dekabrdagi «Soliq hisobini tizimi to‘g‘risida»gi axborot xabarnomasida soliq hisobining 51 ta registri mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishda 5 ta guruhga bo‘lgan:


1. Oraliq hisob-kitob registrlari;
2. Soliq hisobi birligi holatini hisobga oluvchi registrlar;
3. Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga oluvchi registrlar;
4. Hisobot ma’lumotlarini shakllantiruvchi registrlar;
5. Tijorat bo‘lmagan korxonalarni maqsadli mablag‘larini hisobga oluvchi registrlar.

Soliq hisobining ba’zi analitik hisob registrlari ishlab chiqilgan. Jumladan, mol-mulk solig‘ini hisob-kitob registri 2-jadvalda keltirilgan.

Ushbu registrning qulayligi shundan iboratki, bunda asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymatlari, ularning eskirish summalari har oy uchun ko‘rsatiladi. Shuningdek mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyoz summalarini, soliqqa tortiladigan baza summalarini hisoblash osondir.Bu registrni amaliyotda qo‘llash buxgalterlar va soliq xizmati xodimlariga qulayliklar yaratadi.Soliq hisobi registrlarining shakllarini keyingi mavzularda soliq turlari bo‘yicha hisob metodologiyasini o‘rganish jarayonida, aniq ma’lumotlarga asoslangan holda ko‘rib chiqiladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar soliq hisobini tashkil etish, uni yuritishning metodikasi, foydalaniladigan ishchi schyotlar rejasi, registrlarni o‘zgarishining soliq hisobi siyosatida aniq ko‘rsatadilar.

Soliq to‘lovchilar soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash uchun zarur bo‘lgan soliq hisobi ma’lumotlari bilan ta’minlashga kerak bo‘ladigan registrlar mustaqil holda ishlab chiqadi hamda yuritiladi.



3-Rasm. Soliq hisobini tashkil etish tizimi.

1-jadval

Mol-mulk solig‘ini hisoblash uchun asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar o‘rtacha qiymatining hisob-kitob registri.

№		Balansning qator kodi	2011 yil 1 yanvar holatiga qoldiq					
			01.01.11	01.02.11	01.03.11	01.04.11	01.05.11	01.06.11
1	Asosiy vositalar	010	362953406 76	366581617 30	366374058 07	436528607 94	437525403 29	437702183 29
2	Nomoddiy aktivlar	020	2949265093	2948665685	2948665685	2948665685	2948665685	2948665685
3	Asosiy vositalarning eskirishi	011	1644923016	1809913925	1964276483	2131322347	231516315	2498043745
4	Nomoddiy vositalarning eskirishi	021	74234245	123076038	172220466	221364894	270509322	319653750
5	Mulkning qoldiq qiymati	012 022	375254485 07	376738374 52	374495745 43	442488392 37	441161803 78	439011865 19
6	Soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan qiymat (imtiyoz)		368489923 71	370002787 06	367912600 33	435925577 67	434577565 04	432451896 30
7	Soliqqa tortiladigan qiymat (4-5)		676456136	673558746	658314510	656281471	658423873	655996890
	Hisobot davrida soliqqa tortiladigan mulkning o‘rtacha qoldiq qiymati		665787039			Soliqdan ozod qilingan mulkining o‘rtacha qiymati		41653658899

1-jadval davomi

№		Balansning qator kodi	20__ yil 1 yanvar holatiga qoldiq						
			01.07.11	01.11.11	01.09.11	01.10.11	01.11.11	01.12.11	01.01.11
1	Asosiy vositalar	010	440646812 47	440744311 74	440753311 74	440766811 74	440790011 74	440788111 74	440788111 74
2	Nomoddiy aktivlar	020	294866568 5	294866568 5	294866568 5	296331737 0	296810426 4	296810426 4	296810426 4
3	Asosiy vositalarning eskirishi	011	268163104 4	286691246 1	305224321 2	323757771 2	342292065 0	36268172	379361606 7
4	Nomoddiy vositalarning eskirishi	021	368798178	417942606	467331229	516719852	566188257	615656662	665125067
5	Mulkning qoldiq qiymati	012 022	439629177 10	437382417 92	435190741 03	432857009 80	430579965 31	428229906 04	425881743 04
6	Soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan qiymat (imtiyoz)		432899242 23	430661079 97	428484891 34	426175685 86	423899967 13	421576379 45	419252867 21
7	Soliqqa tortiladigan qiymat (4-5)		672993487	672133795	670584969	668132394	667999818	665352659	662887583

Mol-mulk solig‘idan imtiyoz (eksport)

Soliq hisobining mol-mulk solig‘ini hisob-kitob registri (1-jadval).

Ushbu registrning qulayligi shundan iboratki, bunda asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymatlari, ularning eskirish summalari har oy uchun ko‘rsatiladi.

Shuningdek mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyoz summalarini, soliqqa tortiladigan baza summalarini hisoblash osondir.

Soliq hisobi registrlarining shakllarini keyingi mavzularda soliq turlari bo‘yicha hisob metodologiyasini o‘rganish jarayonida, aniq ma’lumotlarga asoslangan holda ko‘rib chiqiladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar soliq hisobini tashkil etish, uni yuritishning metodikasi, foydalaniladigan ishchi schyotlar rejasi, registrlarni o‘zgarishining soliq hisobi siyosatida aniq ko‘rsatadilar.

4.Soliq hisbotini tuzish tartibi.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida soliq to‘lovchilar, shuningdek ushbu soliq yoki boshqa majburiy to‘lovni hisoblab chiqarish va to‘lash uchun zarur elementlar belgilab qo‘yilgan taqdirdagina soliq to‘liq o‘rnatilgan deb hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning elementlari quyidagilardir:

Element nomi	***Ta’rif***
Soliq solish ob’ekti	Soliq to‘lovchida soliq yoki boshqa majburiy to‘lov hisoblab chiqarilishi va (yoki) to‘lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasidir.
Soliq solinadigan baza	Soliq solish ob’ektining soliq yoki boshqa majburiy to‘lovning stavkasi tatbiqan belgilangan ko‘rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.
Stavka	Soliq solinadigan bazaning o‘lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdor. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalari, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.
Hisoblab chiqarish tartibi	Soliq va boshqa majburiy to‘lovni hisoblab chiqarish tartibi soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek imtiyozlar mavjud bo‘lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to‘lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda, soliq va boshqa majburiy to‘lovni hisoblab chiqarish majburiyati davlat soliq xizmati organi yoki soliq agenti zimmasiga yuklatilishi mumkin. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim turdagi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarishda ularning to‘lanishi lozim bo‘lgan eng kam miqdor belgilanadi.
Soliq davri	U tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi hisoblab chiqariladigan davr. Soliq davri bir necha hisobot davriga bo‘linishi mumkin bo‘lib, ularning yakunlari bo‘yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘lanishi lozim bo‘lgan summalarini to‘lash majburiyati yuzaga keladi.

	Joriy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha majburiyat yuzaga kelgan davr hisobot davri bo‘lmaydi.
Soliq hisobotini taqdim etish tartibi	Soliq hisobotini taqdim etish har bir soliq turi bo‘yicha Soliq kodeksida alohida belgilanadi va oy, chorak, yilga bo‘linadi.
To‘lash tartibi	U Soliq kodeksida har bir soliq uchun alohida belgilanib, ularga muddatlari ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Soliq to‘lovchilar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning elementlari har bir soliq yoki boshqa majburiy to‘lovga tatbiqan belgilanadi.

Soliq kodeksida, boshqa qonunlarda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to‘lov to‘lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar deb e’tirof etiladi.

Mol-mulk solig‘i, er solig‘i, yagona er solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni berish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Soliq to‘lovchi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar vujudga kelgan paytdan e’tiboran ular amal qiladigan butun davr mobaynida foydalanishga haqli.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar bo‘shagan mablag‘larni muayyan maqsadlarga yo‘naltirish sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag‘lardan belgilanmagan maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilanmagan maqsadda foydalanilgan summa o‘rnatilgan tartibda penya hisoblangan holda byudjetga undirib olinadi.

Soliq to‘lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

- davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi o‘zgarishlar haqida axborot olish;
- o‘z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma’lumotlarni olish;
- soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o‘z manfaatlarini shaxsan yoki o‘z vakili orqali ifoda etish;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlardan foydalanish;
- soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish yoki qaytarib olish;
- Soliq kodeksida hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan shartlarda va tartibda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashni kechiktirish va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash;
- soliq solish ob’ektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lashda o‘zlari yo‘l qo‘ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;
- soliq tekshiruvlari materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish;
- soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;
- davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining Soliq kodeksiga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo‘lmagan hujjatlari hamda talablarini bajarmaslik;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;
- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari tufayli etkazilgan zararning o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

Soliq to‘lovchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Soliq to‘lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo‘lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek vakilning ishtirok etishi soliq to‘lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq to‘lovchi vakillarining mazkur soliq to‘lovchining soliq munosabatlaridagi ishtiroki munosabati bilan sodir etilgan harakati (harakatsizligi) soliq to‘lovchining harakati (harakatsizligi) deb e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari:

- o‘z soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq hajmda bajarishi;
- qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, Moliyviy va soliq hisobotini tuzishi;
- davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;
- soliq tekshiruvlari o‘tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish, to‘lash bilan bog‘liq hujjatlar hamda ma’lumotlarni taqdim etishi;
- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi shart.
- Soliq agentlari yuqorida nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari:
- soliq to‘lovchilarga to‘lanadigan mablag‘lardan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazishi;
- soliq to‘lovchilarga to‘langan daromadlarning, ushlab qolingan hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning hisobini yuritishi, shu jumladan har bir soliq to‘lovchi bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.
- Vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari Soliq kodeksi hamda boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Soliq to‘lovlarini to‘lash majburiyati. Soliq to‘lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to‘lovni to‘lash, shuningdek Soliq kodeksida nazarda tutilgan holatlar bo‘lgan taqdirda, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati Soliq to‘lovlarini to‘lash majburiyati deb hisoblanadi.

Soliq to‘lovlarini to‘lash majburiyati soliq to‘lovchining hisobvarag‘ida etarlicha pul mablag‘lari bo‘lgan taqdirda, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to‘lovni to‘lash uchun bankka to‘lov topshiriqnomasi taqdim etilgan paytdan e’tiboran, soliq yoki boshqa majburiy to‘lov naqd pul mablag‘lari bilan to‘langanda esa pul summasi bankka yoki vakolatli organ kassasiga topshirilgan paytdan e’tiboran bajarilgan deb hisoblanadi.

Soliq to‘lovlari summasini o‘tkazish uchun to‘lov topshiriqnomasi soliq to‘lovchi tomonidan chaqirib olingan yoki bank tomonidan soliq to‘lovchiga qaytarilgan taqdirda, shuningdek agar soliq to‘lovchi bankka to‘lov topshiriqnomasini taqdim etgan paytda bu

soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga qo‘yilgan, qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda bajarilishi lozim bo‘lgan, bajarilmagan talablar mavjud bo‘lsa hamda soliq to‘lovchi barcha talablarni qanoatlantirish uchun hisobvaraqda etarlicha pul mablag‘lariga ega bo‘lmasa, Soliq to‘lovlari to‘langan deb hisoblanmaydi.

Soliq to‘lovlarini to‘lash majburiyati soliq kodeksining 10-bobida belgilangan tartibda hisobga olish orqali ham bajarilishi mumkin.

Soliq agentining ushlab qolingan summalarni byudjetga yoki davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazishga doir majburiyati yuqoridagilarga muvofiq bajarilgan deb hisoblanadi.

Soliq to‘lovlarini to‘lash milliy valyutada, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa chet el valyutasida amalga oshiriladi.

Soliq majburiyatining soliq to‘lovchi tomonidan bajarilmaganligi yoki Soliq kodeksida belgilangan tartib buzilgan holda bajarilganligi unga nisbatan soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash choralarini qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

Soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan Soliq kodeksida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirilgan hollarda Soliq to‘lovlarini to‘lash majburiyati davlat soliq organining yozma talabnomasi olingan sanadan e’tiboran yuzaga keladi.

Soliq to‘lovlari to‘lanishining hisobi soliq to‘lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuritiladi.

Soliq to‘lovchi davlat soliq xizmati organi bilan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha soliq majburiyatlari bajarilishiga doir solishtirma dalolatnoma tuzishni talab qilishga haqli. Davlat soliq xizmati organi soliq to‘lovchiga solishtirma dalolatnoma tuzishni rad etishga haqli emas.

Soliq hisoboti tushunchasi. Soliq hisoboti soliq to‘lovchining soliq va boshqa majburiy to‘lovning har bir turi bo‘yicha yoki to‘langan daromadlar bo‘yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek ularga doir ilovalarni o‘z ichiga oladigan hujjati bo‘lib, u Davlat soliq qo‘mitasi va MOLIYA vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda *(AV tomonidan 21.01.2008 yilda 1760-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)* tuziladi.

Soliq hisobotini tuzish. Soliq hisoboti qog‘ozda va (yoki) elektron hujjat tarzida tuziladi.

Hisobot soliq to‘lovchi tomonidan imzolanishi kerak, shuningdek agar u yuridik shaxs bo‘lsa, uning muhri bilan tasdiqlanadi. Elektron hujjat tarzida taqdim etilgan hisobot soliq to‘lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Bugungi kunda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha hisobotlarni yuritish, soliqlarni to‘lash tizimini takomillashtirish, soliq va Moliyviy hisobot shakllarini soddalashtirish, hamda ular hajmini qisqartirish ham muhim vazifalardan hisoblanadi.

Tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati uchun yanada qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2012-yil 16 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Statistik, soliq, Moliyviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruhsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda davlat statistika, MOLIYA, soliq va boshqa turdagi hisobotlarni hamda ularning davriyligini qisqartirish, shuningdek, 80 ta ruhsat berish tartib-taomillarini va 15 ta faoliyat turlarini litsenziyalashni bekor qilish ko‘zda tutilgani ayni muddaodir.

Ma’lumki bozor iqtisodiyoti sharoitida hisob axborotlariga bo‘lgan ehtiyoj o‘sib borishi va uning ahamiyati ortishini inobatga olib, elektron axborotlar bazasini

shakllantirish masalalari muhim ahamiyatga egadir. Tadbirkorlik sub'ektlari uchun yanada qulay shart-sharoit yaratish maqsadida yurtboshimizning yuqoridagi qayd etilgan farmoniga ko‘ra soliq to‘lovchilar tomonidan Davlat, soliq, statistika va boshqa organlariga taqdim etiladigan va ko‘p marotaba takrorlanadigan turli hildagi hisobotlar 2013 yil 1 yanvardan boshlab bekor qilinadi. Ushbu hisobotlarning bekor qilinishi nafaqat tadbirkorlik sub'ektlarini hisobot tuzishga ketadigan vaqtlarni tejashga, balki ularning Moliyviy mablag‘larini tejashga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur Farmonga muvofiq joriy yilning 3 choragidan boshlab, kichik biznes sub'ektlari toifasiga kirmaydigan korxonalar «Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot» va «Debitor va kreditor qarzlari to‘g‘risidagi ma'lumotnoma»ni, kichik biznes sub'ektlar esa «Debitor va kreditor qarzlari to‘g‘risidagi ma'lumotnoma»ni topshirish majburiyatidan ozod etildi. Ushbu hisobotlardan olinadigan axborotlar boshqa statistik va buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari bilan to‘ldiriladi. Hisobot tuzilishni soddalashtirishga qaratilgan ushbu farmonning yana bir ijobiy tomoni axborotdan foydalanuvchilar oldin ber necha hisobotlardan olgan ma'lumotlarini endilikda bitta hisobotdan olish imkoniyatiga ega bo‘lish hisoblanadi.

Bundan tashqari 2013 yil 1 yanvardan boshlab, 11 ta statistik hisobot shakllari bekor qilinib, 12 turdagi soliq hisobot shakllari va ularni taqdim etish davriyligi qisqaradi. Natijada soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliq hisobotlari yirik korxonalarda umumiy tartibda 2,3 barobariga, kichik biznes sub'ektlar uchun esa 1,7 barobariga qisqaradi. Buning natijasida soliq to‘lovchi va soliq organlar sarflaydigan xodimlarining hisobotlarni tuzish hamda uni qayta ishlashga ketadigan vaqti keskin kamayishiga, elektron hisobotlarni qabul qilish samardorligini oshirishga erishiladi.

Yuridik shaxs - soliq to‘lovchi qayta tashkil etilayotganda yoki tugatilayotganda, har bir qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotgan soliq to‘lovchiga soliq davri boshlanganidan e'tiboran qayta tashkil etish yoki tugatish tugallangan kunga qadar bo‘lgan davr yuzasidan tegishincha topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoxud tugatish balansi asosida alohida-alohida soliq hisoboti tuziladi. Mazkur hisobot topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoki tugatish balansi tasdiqlangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida taqdim etiladi. Yuqoridagi qoidalar o‘zgartirish, shuningdek boshqa yuridik shaxsni qo‘shib olish orqali qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Buxgalteriya hisobining predmeti;
2. Soliq hisobining predmeti;
3. Buxgalteriya hisobining ob'ekti nimadan iborat;
4. Soliq hisobining ob'ekti nimadan iborat;
5. Soliq hisobining vazifalari;
6. Buxgalteriya hisobining tamoyillari;
7. Soliq hisobining tamoyillarining o‘ziga xosligi nimalardan namoyon bo‘ladi;
8. Metod nima;
9. Buxgalteriya hisobining metodi;
10. Soliq hisobining metodi;
11. Soliq hisobining registrlari;
12. Hisobning analitik registrlari;
13. Sintetik hisob registrlari.

Mavzu: Soliq hisobi tizimi va hisob siyosati.

REJA.

1. **Soliq hisobi siyosatini takomillashtirish.**
2. **Soliq bo‘yicha operatsiyalarni hisobga olish.**

Tayanch so‘zlar.

Buxgalteriya hisobi predmeti, soliq hisobining predmeti, hisob ob’ekti, hisob tamoillari, metod, hisob registrlari, analitik hisob registri, sintetik hisob registri.

O‘zbekistonda erishilayotgan iqtisodiy o‘sish ko‘p jihatdan iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan va izchil amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog‘liq. Mamlakatimizda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish iqtisodiy islohotlar va davlat iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, izchil soliq-byudjet siyosatining amalga oshirilishi, soliq yukini kamaytirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi soliq to‘lovchilarda ishlab chiqarishni kengaytirishga sharoit yaratilishi, ishlab topilgan va ularning o‘zlarida qoldirilayotgan mablag‘larning reinvestitsiya qilinishi oqibatida qo‘shimcha soliq ob’ektining paydo bo‘lishi hisobiga nafaqat byudjetdagi yo‘qotishlar o‘rnining qoplanishi, balki soliq to‘lovchilarning qo‘shimcha daromadlarga ega bo‘lib, ishlab chiqarish imkoniyatining oshishiga olib keladi.

Respublikamizda ishlab chiqarishni yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, aholining real daromadlarini va iste’mol talablarini oshirishda muntazam ravishda soliq yukini kamaytirish choralarining keng qo‘llanilishi o‘z natijalarini bermoqda. Ayniqsa, soliqlar va to‘lovlarni birxillashtirishga katta e’tibor qaratilishi soliqqa tortish mexanizmlarining oshkoraligiga, soliqlarni hisoblash va to‘lashga oid korxonalar faoliyatini soddalashtirishga, shuningdek soliq majburiyatlarining bajarilishini samarali nazorat qilishga yordam beradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish natijasi o‘laroq keyingi yillarda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sish sur’atlari kuzatilmoqda. Amalga oshirilgan byudjet-soliq siyosati birinchidan, iqtisodiyotning istiqbolli soha va tarmoqlarini davlat tomonidan Moliyviy qo‘llab quvvatlash tizimida muhim fiskal omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Qolaversa, amaldagi faol ijtimoiy siyosat va kuchli ijtimoiy himoya tizimlarini shakllantirishda davlat byudjetiga alohida vazifalar yuklatilgan bo‘lib, ushbu vazifalarni samarali ijrosi ta’minlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining yangi Soliq kodeksida soliqqa tortish tamoyillari alohida moddada e’tirof etildi:

«5-modda. Soliq haqidagi qonun hujjatlarining tamoyillari

1. Soliq haqidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaliligi, soliq haqidagi qonun hujjatlari oshkoraliligi va soliq prezumtsiyasi tamoyillariga asoslanadi.

2. Soliq haqidagi qonun hujjatlarining qoidalari ushbu Kodeks bilan o‘rnatilgan tamoyillarga zid bo‘lishi mumkin emas».[8]

Soliq kodeksida qayd etilgan soliq solish tamoyillari 1-jadvalda aks etilgan.

Soliq siyosati kategoriyasini o‘rganishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida soliq siyosati borasida quyidagi fikrlar mavjud: «Soliq siyosatining vazifasi, bir tomondan, byudjet daromadining barqaror safarbarligini

[8] O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Soliq kodeksi, 5-modda. 2007

ta’minlashdan, ikkinchi tomondan, korxonalarni respublika uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar ishlab–chiqarishni ko‘paytirishga rag‘batlantirishdan iborat»[9].

«Soliq siyosati – har bir mamlakatda ma’lum vaqtda belgilangan kontseptsiya, mezon va vazifalar, davlat iqtisodiy va Moliyviy siyosatning asosiy tarkibi.

Davlatning soliqqa tortish uslublari, soliq turlari, ularni to‘lash tartiblarini takomillashtirishga bag‘ishlangan maqsadli tadbirlari, soliq siyosati iqtisodiy siyosatning umumlashgan ifodasi hisoblanadi».[10]

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida mavjud soliq solish tamoyillari

Modda	Tamoyilning mazmuni	Manba
6-modda. Soliq solishning majburiylik tamoyili	1. Soliqlar va majburiy to‘lovlar ushbu Kodeks bilan o‘rnatiladi, o‘zgartiriladi yoki bekor qilinadi. 2. Har bir shaxs ushbu Kodeks bilan o‘rnatilgan soliqlar va majburiy to‘lovlarni to‘lashga majburdir. 3. Hech kimga ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda o‘rnatilgan soliqlar va majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.	Soliq kodeksi
7-modda. Soliq solishning aniqligi tamoyili	1. Soliqlar va majburiy to‘lovlar aniq belgilangan bo‘lishi lozim. Soliq haqidagi qonun hujjatlari shunday tarzda tar’riflangan bo‘lishi kerakki, unda har bir soliq to‘lovchi qaysi soliqlar va majburiy to‘lovlarni, qachon, qanday miqdorlarda va qay tartibda to‘lashlari lozimligini aniq bilishligini anglatadi. 2. Soliqlarni va majburiy to‘lovlarni o‘rnatishda, ushbu Kodeksda boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchilar hamda soliqlarning va majburiy to‘lovlarning elementlari belgilangan bo‘lishi lozim.	Soliq kodeksi
8-modda. Soliq solishning adolatlilik tamoyili	1. Soliq solish umumiydir. 2. Soliq imtiyozlarini o‘rnatish ijtimoiy adolatlilik tamoyiliga muvofiq bo‘lishi lozim. Yakka tartib xususiyatiga ega bo‘lgan soliq imtiyozlarini berishga yo‘l qo‘yilmaydi. 3. Soliqlar va majburiy to‘lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo‘lishi va ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va shu kabi boshqa mezonlardan kelib chiqqan holda turlicha qo‘llanilishi mumkin emas.	Soliq kodeksi
9-modda. Soliq tizimining yagonaliligi tamoyili	1. Soliq tizimi barcha soliq to‘lovchilarga nisbatan butun O‘zbekiston Respublikasi hududida yagonadir. 2.O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki Moliyviy mablag‘larning erkin muomalada bo‘lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo‘yadigan soliqlar va majburiy to‘lovlarni o‘rnatishga yo‘l qo‘yilmaydi.	Soliq kodeksi

[9] Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajagi sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998. 52 b.

[10] Mirzayev T., Toshmurodov T., Abdullayev O. Soliqlar va soliqqa tortish. Toshkent: Mehnat 2003. 17 b.

10-modda. Soliq haqidagi qonun hujjatlari-ning oshkoraliligi tamoyili	Soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi shart. Hammaning e'tibori uchun rasman e'lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlar keltirib chiqarmaydi va soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun, ulardagi ko‘rsatmalarni bajarilmaganligi uchun biron bir jazo choralarini qo‘llashda asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin emas.	Soliq kodeksi
11-modda. Soliq to‘lovchining haqligi prezumtsiyasi-ning tamoyili	Soliq haqidagi qonun hujjatlardagi qarama-qarshilik va noaniqliklar soliq to‘lovchining foydasiga izohlanadi.	Soliq kodeksi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 sentyabrda bo‘lib o‘tgan majlisida 2009 yilga soliq siyosati kontseptsiyasi ishlab chiqish topshirildi. 2009 yilga soliq siyosati kontseptsiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov tomonidan belgilab berilgan iqtisodiy o‘sish ustuvorliklari va barqaror iqtisodiy o‘sish, makroiqtisodiy va Moliyviy barqarorlik, iqtisodiyot va uning alohida sohalari balansini ta'minlash, xalqning turmush darajasini oshirish asos qilib olingan.

Mamlakatimizda soliq yuki yildan-yilga pasayib bormoqda. Keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida davlat MOLIYAsining barqarorligi kuzatildi.

Soliq siyosatini takomillashtirish, soliqlarning iqtisodiyotga rag‘batlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish maqsadida soliq tizimining ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy, tabiiy, Moliyviy va mehnat resurslaridan, to‘plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag‘batlantiruvchi ta'sirini oshirishga qaratilgan islohotlar ustuvor ahamiyatga ega bo‘ldi. Korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish, foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovi stavkalarini kamaytirish orqali iqtisodiyotdagi sog‘lom muhitni shakllantirish va tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini yanada jonlantirish ta'minlandi. 2010 yilda xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar uchun foyda solig‘ining 10 foizdan 9 foizga tushirilishi natijasida ular ixtiyorida 52 mlrd. so‘mdan ortiq mablag‘lar qoldirilishiga, pirovardida esa ushbu mablag‘lar ishlab chiqarishni kengaytirish, korxonalarning ishlab chiqarish quvvatini yanada mustahkamlashga, xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar zimmasidagi soliq yukini yanada engillashtirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, fuqarolarning daromadlarini ko‘paytirish hamda aholining xarid qobiliyatining oshishiga zamin yaratildi. Soliq siyosatidagi ushbu jarayon kichik biznes sub'ektlari uchun yagona soliq to‘lovini kamaytirish orqali davom ettirilib, 2011 yil uchun yagona soliq to‘lovi stavkasining 7 foizdan 6 foizga tushirilishi, joriy yilda kichik biznes sub'ektlariga 50 mlrd. so‘mdan ortiq mablag‘lar tejab qolish imkonini beradi.

Xususan, iqtisodiyotdagi soliq yukini yanada qisqartirish va soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar davom ettirildi. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin.

2008 yilda iqtisodiyotdagi umumiy soliq yuki (davlat byudjetining maqsadli jamg‘armalari bilan birgalikda) 33,5%ni, 2010 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 2010 yilda 31,5%ni tashkil etdi. 2011 yilda esa uning hajmi 30,1 %ni tashkil etishi ko‘zda tutilmoqda. Soliqlar bo‘yicha berilayotgan imtiyozlar natijasi o‘laroq, davlat byudjetining YaIMdagi ulushi 2010 yilda 22,1%ni tashkil qilgan. 2011 yilda esa ushbu ko‘rsatkich

20,9 %bo‘lishi ko‘zda tutilmoqda.

Bu kontseptsiyada jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig‘i stavkasining quyi shkalasini saqlab qolgan holda, o‘rta shkalasini 18 foizdan 17 foizgacha, yuqori shkalasini 29 foizdan 22 foizgacha kamaytirish ko‘zda tutilgan (2-jadval).

2-jadval

1995-2011 yillar soliq turlari bo‘yicha stavkalarning o‘zgarishi.

Soliq turlari		**1995**	**2000**	**2001**	**2002**	**2003**	**2004**	**2005**	**2006**	**2007**	**2008**	**2009**	**2010**	**2011**
Daromad (foyda)		38	31	26	24	20	18	15	12	10	10	10	9	9
QQS		25	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20
Jismoniy shaxslar-ning daromadi-dan olinadigan soliq	O‘rta Yuqo ri	15 25 35 40	15 25 36 40	13 25 36	13 23 33	13 22 32	13 21 31	13 21 29	13 20 29	13 18 25	13 18 24	12 17 22	11 17 22	10 16 22
Mol-mulk solig‘i (Jismoniy shaxslar)		0,2	0,2 5	0, 3	0,4	0,5	0, 5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,7 5 0,9 1,1 3
Yuridik shaxslardan olinadigan mulk solig‘i		2,0	2,0	2, 0	2,0	3,0	3, 0	3,5	3,5	3,5	3,5	3,5	3,5	3,5

2-jadvalda, jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan daromad solig‘ining stavkasi 1995 yilda – quyi shkalasi 15 va yuqori shkalasi 40 foizni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich 2001 yilda mos ravishda 13 va 36 foiz qilib belgilangan, 2005 yilda esa - 13 va 30 foiz bo‘lgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu soliq stavkasining yuqori shkalasi 1995 yilga (40 foiz) nisbatan 2009 yilda (22 foiz) keskin pasayishi belgilangan.


«Soliq maslahati» tushunchasi qonunning 3-moddasida quyidagi matnda aks ettirilgan: «Soliq maslahati soliq maslahatchilari tashkilotining yuridik va jismoniy shaxslarga (bundan buyon matnda mijozga (ishonch bildiruvchiga) deb yuritiladi) shartnoma asosida soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish borasidagi faoliyatidir».[15]

Soliq maslahati bo‘yicha xizmatlarga quyidagilar kiradi: «mijozga (ishonch bildiruvchiga) soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash masalalari (bundan buyon matnda soliq solish masalalari deb yuritiladi) bo‘yicha maslahat berish;

soliq solish masalalari bo‘yicha hujjatlar tuzishda mijozga (ishonch bildiruvchiga) yordam ko‘rsatish;

sudda, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarda soliq solish masalalari bo‘yicha mijoz (ishonch bildiruvchi) nomidan va uning topshirig‘iga binoan vakillik qilish.

[15] O‘zbekiston Respublikasining «Soliq maslahati to‘ŕrisida»gi Qonuni. Toshkent: 3-modda. 2006.



2-rasm. Soliq hisobi siyosatining tarkibi.

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, soliq hisobi siyosatining tashkiliy qismida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda soliq hisobini yuritishning shakli, soliq hisobini olib borish kimga va qaysi bo‘linmaga yuklatilganligi, buxgalteriya (Moliyviy) hisob bilan soliq hisobining o‘zaro bog‘liqligi hamda hujjatlar aylanishini tashkil etish masalalari o‘z aksini topgan.

Soliq hisobi siyosatining texnik qismida soliq hisobining modeli uning registrlarining shakli, soliq hisobining ishchi schyotlar rejasi, soliq hisobi axborotlarini qayta ishlashning texnologiyasi hamda boshqa texnik masalalar bo‘lishi kerak.

Soliq hisobi siyosatining uslubiy qismini shakllantirishda buxgalteriya (Moliyviy) va soliq hisobining o‘zaro bog‘liq hamda ularning farqli tomonlarini qiyosiy tahlil qilish zarur. Chunki, hisob siyosatining uslubiy tomonlari ko‘p jihatdan shunga bog‘liq. Shu asosda soliq hisobi tamoyillari metodlarini qo‘llash va ob’ektlarni hisobga olish uslubiyoti ishlab chiqiladi.

Soliq hisobi siyosatining uslubiy qismining tarkibi 9-rasmda aks ettirilgan. Bu qismda daromad va xarajatlarni tasnifi, ularni tan olish, mulk va TMZ ni baholash usullari, asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni amortizatsiya ajratmasini hisoblash metodlari, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash va soliq hisobida aks ettirish metodikasi, soliq hisobotini tuzish va tegishli organlarga taqdim etish tartiblari ko‘rsatiladi.


Soliq hisobi siyosatining o‘ziga xos tomonlari quyidagi 3-jadvalda aks ettirilgan. Bunda har bir ob’ektning me’yoriy-huquqiy asosi hamda soliq hisobini tashkil etish va olib borish usullari e’tirof etilgan.

Soliq hisobi siyosatining uslubiy qismida quyidagi elementlarga alohida e’tibor berish kerak:

- aktivlar va majburiyatlarni baholash metodlariga;
- daromad va xarajatlarni soliq hisobida tan olishga;
- amortizatsiyani hisoblash metodlariga;
- amortizatsiya me’yorlarini qo‘llashga;
- zahira (rezerv)ni tashkil etishga;
- soliqlarni hisoblash, to‘lash tartiblariga;
- soliqlar bo‘yicha avans to‘lovlarini amalga oshirish tartibiga;
- soliq hisobi analitik registrlari shakliga;
- soliq hisobida qo‘llanadigan ishchi schyotlar rejasiga va boshqalarga.

Bu elementlarni soliq hisobi siyosatining ob’ekti sifatida qarash va metodologiyasining o‘ziga xos tomonlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Soliq hisobi siyosatining uslubiy tarkibi



3-**rasm. Soliq hisobi siyosatining uslubiy tarkibi**

3-**jadval**

Soliq hisobi siyosati metodologiyasi

T/r	Hisob siyosatining ob'ekti	Soliq hisobini tashkil etish va olib borish usullari	Me'yoriy asosi
1	Daromad va xarajat-larning tasnifi	Daromad va xarajatlarni guruhlash	Soliq kodeksi, Vazirlar Mahkamasining 1999y. 5 fevralda 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom
2	Daromad va xarajatlarni soliq hisobida tan olish	Daromad va xarajat turlari bo'yicha	*BHMS*
3	Mulkni TMZ baholash qoidalari	O'rtacha tannarx FIFO	*BHMS – 4, 5, 6, 7*
4	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisoblash usullari va uning hisobi	To'g'ri chiziqli, tezlashtirilgan usullar	**BHMS – 5, 7**
5	Soliqlarni hisoblash va to'lash tartibi	Har oyda har chorakda	Soliq kodeksi
6	Soliqqa tortish maqsadi uchun rezerv tashkil etish	Rezerv tashkil etish, rezerv tashkil etmaslik	*Soliq kodeksi*
7	Soliq hisoboti va hisobot shakllari	Oylik har choraklik Yillik	Soliq kodeksi BHMS – 1, 3

Soliq hisobi siyosatining asosiy tarkibiy elementi bo'lib ishchi schyotlar rejasi hisoblanadi. Soliq hisobining ishchi schyotlar rejasi xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonida o'zining xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda ishlab chiqiladi.

Ishchi schyotlar rejasini shunday shakllantirish kerakki, schyotlardan olinadigan ma'lumotlar asosida qo'shimcha hisob-kitoblarsiz soliq turlari bo'yicha hisobotlar tuzish imkoniyati yaratilishi lozim. Buning uchun schyotlar shunday tanlanishi kerakki, bu schyotlarda daromadlar, xarajatlar hisobga olinib, schyotlardagi ma'lumotlar asosida soliq turlari bo'yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash imkoniyatini berishi zarur.

Soliq hisobi siyosatini shakllantirishda soliq turlarini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki soliqlarning har bir turi bo'yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash usullari, hisob registrlari yuritish, ularni schyotlarda aks ettirish bir-biridan farq qiladi.

Yuqorida keltirilgan tarkibdagi tarkibdagi soliq hisobi siyosatini amaliyotda qo‘llash, soliq hisobi axborotlaridan foydalanuvchilarni kerakli bo‘lgan ma’lumotlar bilan to‘la ta’minlash imkonini beradi.

Soliq kodeksda belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to‘lanadigan quyidagi soliqlar qo‘llanilishi mumkin:

- yagona soliq to‘lovi;
- yagona er solig‘i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning elementlari quyidagilardan iborat:

- soliq solish ob’ekti;
- soliq solinadigan baza;
- stavka;
- hisoblab chiqarish tartibi;
- soliq davri;
- soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
- to‘lash tartibi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar hisobiga tashkil topadi.

Foyda solig‘i O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimining tarkibiy elementi hisoblanib, milliy daromadlarni qayta taqsimlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur soliq bevosita soliq bo‘lib, uning summasi korxona xo‘jalik faoliyatining pirovard Moliyviy natijasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Foyda solig‘i to‘lovchilari soliq solinadigan foydaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Soliq to‘lovchilar yilning birinchi choragi, yarim yillik, to‘qqiz oylik va yil yakuni bo‘yicha mustaqil ravishda yil boshidan boshlab o‘sib boruvchi jamlash tartibida foyda solig‘i summasini soliqqa tortiladigan haqiqatda olingan foydadan berilgan imtiyozlar va belgilangan soliq stavkalarini hisobga olgan holda hisoblab boradilar.

3. Soliq bo‘yicha operatsiyalarni hisobga olish

2004 yilning 1 yanvaridan mulk shaklidan qat’iy nazar barcha xo‘jalik yurituvchi subektlarda qo‘llaniladigan yangi schyotlar rejasida byudjet bilan olib boriladigan operatsiyalarni hisobga olib borish uchun 11 ta balansli va 2 ta balansdan tashqari schyotlar belgilangan bo‘lib, ular quyidagilar:

Balansli schyotlar: 0950 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan Foyda solig‘i»; 3210 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan Foyda solig‘i»; 4410 «Byudjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari»; 6240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar»; 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan Foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar»; 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz»; 7240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar»; 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan Foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar»; 8840 «Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari»; 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar»; 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar» schyotlarni o‘z ichiga oladi.

Balansdan tashqari schyotlarga esa: 012 «Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajat» 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» schyotlar kiradi.

Yuqorida keltirilgan schyotlarning oldiga qo‘yilgan vazifalar turlicha. Bu vazifalarni buxgalterlar chuqur anglab amaliyotda ulardan to‘g‘ri foydalanishlari zarur.

0950 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan Foyda solig‘i» schyotida hisobot davrida to‘lanadigan soliqning kechiktirilgan qismi hisobga olinadi. Shu bilan birga ushbu summa balansdan tashqari 012 «Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar» schyotning kirimiga yozib qo‘yiladi.

Hisobot davri oxirida ushbu summa soliqqa tortiladigan bazaga qo‘shib Foyda solig‘iga tortiladi.

4410 «Byudjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari» schyotida bo‘nak soliq summalari, xususan, xarid qilingan xom-ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va boshqa turdagi ishlab chiqarish zahiralari bo‘yicha hisoblashish hujjatlarida alohida ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) hisobga olinadi.

4410 schyotida yig‘ilgan soliq summalarini hisobdan chiqarish tartibi qonuniy va me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Buxgalteriya hisobida 4410 «Byudjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari» schyotidan chiqarish operatsiyasi quyidagi buxgalteriya hisobi yozuvi bilan rasmiylashtiriladi: material resurslari, tovarlar, ishlar va hizmatlarga tegishli QQS summasi qarz surishishga (zachetga) qabul qilinganda: D-t 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz», K-t 4410 «Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari» schyoti.

Amaldagi Nizom qonunchiligi asosida soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berilgan quyidagi xo‘jalik subektlariga tegishli:[1]

- soliq, bojxona va majburiy to‘lovlardan ozod qilish natijasida hosil bo‘lgan mablag‘larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo‘naltiradigan xo‘jaliklar;
- soliq to‘lovlaridan vaqtinchalik ozod qilish natijasida hosil bo‘lgan mablag‘larni maqsadli foydalanishga yo‘naltirmaydigan xo‘jaliklar.

Chunonchi, 2003 yil 26 fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning Farmoni bilan Respublikada maxsus klinikalar va tibbiy markazlar tashkil etildi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida ushbu respublika ixtisoslashtirilgan markazlari o‘z ehtiyojlari uchun olib kelinadigan tibbiyot uskunalari va asboblari uchun 2003 yilning 1 martidan **to 2012 yilning** 31 dekabrigacha 10 yil muddatga barcha turdagi soliqlar, bojxona to‘lovlari/bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig‘imlardan tashqari/to‘lashdan ozod qilinib, bushaydigan mablag‘lar Markazlarni rivojlantirish va jihozlashga maqsadli tarzda yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Bunday maqsadlar uchun byudjetga to‘lashdan ozod qilingan soliqlar summasi Moliyviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda (2-shakl) aks ettiriladi, demak korxonaning Moliyviy natijalarini shakllanishiga ta’sir qiladi.

Byudjetga soliq to‘lashdan berilgan imtiyozlar yangi schyotlar Rejasi bo‘yicha 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyotida hisobga olinadi.

Ayrim xo‘jalik yurituvchi subektlar foydadan ajratma solig‘idan qonunchilikka binoan vaqtinchalik imtiyozlarga aga bo‘lishi mumkin. Bunday vaqtlarda umumiy belgilangan tartibda hisoblangan foydadan ajratma solig‘i summasiga quyidagicha yozuv rasmiylashtiriladi: D-t 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar», K-t 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz» schyoti bo‘yicha ochilgan «Foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlar» schyoti.

Ushbu hisoblangan soliq summasi byudjetga o‘tkazilmaydi, balki maqsadli

[1] «Soliqlar, boj va majburiy to‘lovlarni byudjetga to‘lash bo‘yicha yuridik shaxslarga berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobida aks ettirish to‘g‘risida»gi Nizom. 2002 yil 22 iyunda O‘zR Adliya vazirligi tomonidan 1155-son bilan ro‘yxatga olingan.

foydalanish uchun berilgan soliq imtiyozlari schyotiga o‘tkaziladi: Dt 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz» schyoti bo‘yicha ochilgan «Foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlar», 8840 «Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari» schyoti.

8840 – schyotda hisobga olinadigan qonunchilik bo‘yicha soliqlardan ozod qilish natijasida hosil bo‘lgan summa, agar imtiyozli davr ko‘rsatilgan bo‘lsa, ko‘rsatilgan davr oxirida, boshqa hollarda esa har yili quyidagi hisobdan chiqariladi: D-t 8840 «Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari», K-t 8520 «Rezerv kapitali» schyoti.

Maqsadli foydalanish uchun rezerv kapitaliga o‘tkazilgan mablag‘dan xo‘jalik yurituvchi subektlar o‘zlarining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini mustahkamlash, shuningdek xodimlarni moddiy rag‘batlantirish uchun foydalanganda 8520 «Rezerv kapitali» schyoti debetlanib tayinlanishiga qarab tegishli schyotlar kreditlanadi.

Soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlardan ozod qilinishi natijasida hosil bo‘lgan mablag‘lardan maqsadli foydalanganligini tasdiqlash uchun korxona va tashkilotlar har yili yillik Moliyviy hisoboti bilan birga ushbu mablag‘lardan foydalanishi to‘g‘risidagi hisob-kitobini topshiradi.

Soliq organlari tomonidan tekshirilganda soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlardan ozod qilinishi natijasida hosil bo‘lgan mablag‘larning belgilangan maqsadlarga emas, boshqa maqsadlar uchun foydalanganligi aniqlansa yoki imtiyozli davr tugaganga qadar import qilingan tovarlar sotilsa yoki boshqa tashkilotga berilsa, belgilangan maqsad bo‘yicha foydalanilmagan mablag‘lar summasi, shuningdek, sotilgan mulklar bo‘yicha bojxona to‘lovlari summasi jarima choralarini qo‘llagan holda boqimandasi bilan undirib olinadi.

Soliq organlariga topshirilgan hisob-kitoblarning to‘g‘riligi va o‘z vaqtida topshirilishiga korxona va tashkilotlar javobgardir. Qonunchilik asosida soliq to‘lovlaridan vaqtinchalik ozod qilish natijasidada hosil bo‘lgan mablag‘larni maqsadli foydalanishga yo‘naltirmaydigan korxona va tashkilotlarga misol qilib shuni ko‘rsatish lozimki, yangi tashkil etilgan korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan vaqtdan boshlab ikki yil davomida byudjetga mulk solig‘i to‘lashdan ozod qilinadi. Ushbu soliqdan ozod qilish natijasida hosil bo‘lgan mablag‘ maqsadli foydalanishga yo‘naltirilmaydi. Shunday shart bilan qonunchilikka binoan ayrim xo‘jalik yurituvchi subektlar boshqa soliq, bojxona va majburiy to‘lovlardan ozod qilinishi mumkin.

Hisoblangan boj to‘lovlari, soliqlar (QQS to‘lovchilar uchun QQS summasidan tashqari) va majburiy to‘lovlar summasini tovarning sotish qiymatiga ham qo‘shmaydi. Bunday xo‘jalik yurituvchi subektlar har bir byudjetga to‘lov turi bo‘yicha balansdan tashqari 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari» schyotida hisob yuritadi.

Umumiy belgilangan tartibda byudjetga hisoblangan soliq va to‘lovlar summasi 013-schyotning kirimiga yozib boriladi. Byudjetga hisoblangan majburiy to‘lovlar va soliqlar summasi Moliyviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks ettirilmaydi va Moliyviy natijalarni shakllanishiga ta’sir etmaydi.

Soliqdan ozod qilish imtiyozli davri tugashi bilan soliqdan ozod qilish natijasida hosil bo‘lgan mablag‘lar balansdan tashqari 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari» schyotidan chiqim qilinadi. Bunda hisobdan chiqarilgan mablag‘lar to‘g‘risidagi axborot imtiyozli davri tugagandan so‘ng 5 yil ichida korxonada saqlanishi kerak.

7240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyotida qonunchilikka binoan vaklotli hukumat organlari qarori bilan to‘lashni bir necha yilga uzaytirishga ruxsat etilgan soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha byudjet oldidagi uzoq muddatli qarz aks ettiriladi.

Joriy yoki undan uzoqroq davrlarda to‘lanishi kerak bo‘lgan to‘lovlar summasi

korxonaning kechiktirilgan majburiyatlari deb tan olinadi va ular kelajakda qaytariladi. Bu schyotning kreditida tegishli soliq va majburiy to‘lovlarni hisobga oladigan schyotlar bilan korrespondentlangan holda uzoq muddatli kechiktirilgan to‘lovlar summasi hisobga olinadi.

Masalan, korxonaga qonunchilikka binoan vakolati huquqiy organlari qarori bilan soliq to‘lashni bir necha yilga uzaytirishga ruxsat etilgan bo‘lsa, quyidagicha yozuv bilan rasmiylashtiriladi: D-t 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)», K-t 7240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyoti.

Shuningdek boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha to‘lash muddati bir necha yilga kechiktirilgan hollarda 6510 «Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar», 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schyotlari debetlanib 7240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyoti kreditlanadi.

Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlarning joriy yilda to‘lanadigan qismi 6240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyotining kreditida quyidagi aks ettiriladi: D-t 7240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar», K-t 6240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyoti.

Bunday summani joriy yilda byudjetga o‘tkazish hisoblanganda 6240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyoti debetlanib, 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» yoki 6510 «Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar», 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schyotlari kreditlanadi.

Ushbu summa byudjetga yoki sug‘urta organlariga o‘tkazib berilganda yuqoridagi 6410, 6510 va 6520 schyotlari debetlanib, 5110 «Hisob-kitob schyoti» kreditlanadi.

7250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar» schyotida vaqtinchalik farqlarning mavjudligi tufayli vujudga keladigan kechiktirilgan Foyda solig‘i summasi aks ettiriladi.

Foyda solig‘i bo‘yicha xarajat hisob daromadidan hisoblab topiladi, to‘lanadigan foyda solig‘i esa soliqqa tortiladigan foydadan hisoblab topiladi. Hisob daromadi (foydasi) va soliqqa tortiladigan daromadi (foydasi)dan olinadigan soliqni aniqlashdagi yondoshishlar orasidagi farqi Moliyviy hisobotda inobatga olinishi kerak.

Korxonaning hisob siyosatiga binoan hisob ma’lumotlari bo‘yicha aniqlangan foyda solig‘i daromad olish moboynida korxona tomonidan qilingan xarajat deb qaraladi va u tegishli daromad va xarajatlar qaysi davrda vujudga kelgan bo‘lsa, shu davrda hisoblanadi ham korxonaning Moliyviy-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladi. Bunda hisob daromadidan hisoblab topilgan Foyda solig‘i xarajati bilan soliqqa tortiladigan daromaddan hisoblab topilgan to‘lashga tegishli foyda solig‘i orasidagi farq vaqtinchalik farq sifatida hisobga olinib 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar» schyotining kreditida quyidagi aks ettiriladi: D-t 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar», K-t 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan Foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar» schyoti.

Har yili foyda solig‘i bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlarning bir qismi Foyda solig‘i bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlarning joriy qismidek 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar» schyotida quyidagi aks ettiriladi: D-t 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i

bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar», K-t 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan Foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar» schyoti.

Bunday summani joriy yilda byudjetga o‘tkazish hisoblanganda 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar» schyoti debetlanib, 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti kreditlanadi. Ushbu summa byudjetga o‘tkazib berilsa 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti debetlanib, 5110 «Hisob-kitob schyoti» kreditlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq Kodeksining 43-moddasiga binoan yilning hisobot choragida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan eng kam ish haqining ikki yuz barobaridan ko‘proq miqdorda foyda olgan yuridik shaxslar Foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarni har oyning 10 va 25 kunlarida yilning choragi bo‘yicha Foyda solig‘i summasining oltidan bir qismi miqdorida to‘laydi.

Bu vaqtda hisoblangan bo‘nak Foyda solig‘i summasi 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar» schyotining debetida quyidagicha yoziladi: D-t 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar», K-t 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti.

Ushbu summa belgilangan muddatlarda byudjetga o‘tkazib berilsa 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti debetlanib, 5110 «Hisob-kitob schyoti» kreditlanadi.

Hisobot davri tugagach yilik Moliyviy hisobot tuzishda 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar» va 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar» schyotlarining debetida hisobga olingan soliqlar summasi 9910 «Yakuniy Moliyviy natija» schyotining debetiga o‘tkaziladi: D-t 9910 «Yakuniy Moliyviy natija», K-t 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar» va 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar» schyotlari.

Demak, Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar) summasidan Foyda solig‘ini (9810-schyoti) va foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig‘imlar (9820-schyoti) summasini ayrib tashlagandan so‘ng hisobot davrining sof foydasi (zarari) chiqadi va u Moliyviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot (2-sonli shakl)ning 270-satrida ko‘rsatiladi.

Sub’ektlar o‘zining faoliyati jarayonida Soliq kodeksiga asosan belgilangan soliqlar bo‘yicha yil davomida o‘rnatilgan grafikka asosan soliqlar bo‘yicha bo‘nak summalarini to‘lab boradilar. Ushbu to‘langan bo‘naklar yilning ohirida yakuniy Moliyviy natijalaga olib boriladi va quyidagi schyotlarda hisoblanadi.

- 9810- Foyda solig‘i bo‘yicha sarflar.
- 9820- Foyda hisobidan ajratmalar bo‘yicha sarflar.

9810- Foyda solig‘i bo‘yicha sarflar, 9820- Foyda hisobidan ajratmalar bo‘yicha sarflar schyotlarining debeti yil davomida to‘langan soliqlar, yig‘imlar va byudjetga boshqa ajratmalar hisobga olinadi. Ushbu schyotlardagi summalar 9910- yakuniy Moliyviy natija schyotining debeti bilan yopiladi (Debet 9910 va Kredit 9800).

Mavzu: Bevosita soliqlarning hisobi.

REJA.

1. **Foyda solig‘ini hisobi va hisoboti.**
2. **Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hisobi va hisoboti.**
3. **Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i va hisoboti.**
4. **Doimiy va vaqtinchalik farqlarning hisobi.**

Tayanch so‘zlar:

Daromadlar, harajatlar, foyda, zarar, jismoniy shaxslar, soliqni hisoblab chiqarish va hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi, doimiy farq, vaqtinchalik farq, obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish, amortizatsiya ajratmasi, amortizatsiya normasi, eksport imtiyoz, foyda, tadbirkorlik, qat’iy belgilangan soliq.

1. Foyda solig‘ini hisoboti.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiyotni boshqarishda buxgalteriya hisobi alohida o‘rin tutadi. Bu sharoitda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning Moliyviy buxgalteriya hisobini tashkil etish bo‘yicha me’yoriy–huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonun, Soliq kodeksi, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 dekabrdagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda Moliyviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom, «Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlarni byudjetga to‘lash bo‘yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom (2005 yil 24 fevral) va boshqalar shular jumlasidandir.

Prezidentimizning keyingi farmon va qarorlari mamlakatimizda soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilishi bilan birga buxgalteriya hisobi va jumladan soliqlar hisobini takomillashtirishda ham dasturiy amal bo‘lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda yuqorida keltirilgan me’yoriy - huquqiy hujjatlar asosida Moliyviy, boshqaruv va soliq hisoblari tashkil qilinadi. Masalan: foyda solig‘ining bazasini aniqlashda va hisobini yuritishda quyidagi BHMSdan foydalaniladi (1-jadvalga qarang).

1 – jadval

Foyda solig‘ining bazasini aniqlash va hisobini yuritishda foydalaniladigan BHMS

T/r	BHMS raqami	BHMS nomi	BHMSni qabul qilgan sanasi va raqami
1		Moliyviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos	14.08.1998 y. № 475
2	1	Hisob siyosati va Moliyviy hisobot	14.08.1998 y. № 474
3	2	Asosiy xo‘jalik faoliyatidan tushgan daromadlar	26.08.1998 y. № 483
4	3	Moliyviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti	27.08.1998 y. № 484
5	4	Tovar – moddiy zaxiralari	17.07.2006 y. № 1595
6	5	Asosiy vositalar	20.01.2004 y. № 1299
7	7	Nomoddiy aktivlar	27.06.2005 y. № 1485
8	12	Moliyviy investitsiyalar hisobi	16.01.1999 y. № 596
9	21	Korxonalar MOLIYA xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi	9.09.2002 y. № 103
10	23	Qayta tashkil etishni amalga oshirishda Moliyviy hisobotni shakllantirish	27.06.2005 y. № 1484

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha byudjet bilan hisob-kitoblarni aks ettiruvchi schyotlar son jihatidan ko‘p (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Soliqlar va majburiy to‘lovlarni Moliyviy buxgalteriya hisobida aks ettiruvchi schyotlar.

T/r	Schyotning raqami	Schyotning nomi
1	**0930**	**Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha muddati uzaytirilgan foyda solig‘i**
2	**3210**	**Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha muddati uzaytirilgan foyda solig‘i – joriy qismi**
3	**4510**	**Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar**
4	**6220**	**Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati uzaytirilgan majburiyatlar – joriy qismiga**
5	**6400**	**Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik hisobi**
6	**6520**	**Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha to‘lovlari**
7	**6530**	**Byudjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘lovlar**
8	**7210**	**Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha muddati uzaytirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar**
9	**7220**	**Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati uzaytirilgan majburiyatlar**
10	**8840**	**Maqsadli ishlatiladigan soliq imtiyozlari**
11	**9810**	**Foyda solig‘i to‘lash**

Korxonaning foyda solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazasi quyidagicha hisoblanadi:

foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda yoki zarar

qo‘shuv Soliq kodeksining 147-moddasiga muvofiq soliq solinadigan foydani aniqlashdagi soliq to‘lovchining chegarilmaydigan xarajatlari

qo‘shuv Soliq kodeksining 146-moddasiga muvofiq kelgusida soliq solinadigan bazadan chegiriladigan hisobot davrining xarajatlari

ayiruv Soliq kodeksining 146-moddasiga muvofiq joriy hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegiriladigan oldingi davrlarda amalga oshirilgan xarajatlar

ayiruv Soliq kodeksining 158-modtsasiga muvofiq soliqlar bo‘yicha imtiyozlar


ayiruv Soliq kodeksining 159-moddasiga muvofiq soliq solinadigan foydani kshaytiradigan summalar

barobar foyda solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan baza.

MISOL. «Umid» korxonasida soliq solingunga qadar foyda 34 700 ming so‘m deylik; Soliq kodeksining 147-modtsasiga muvofiq soliq solinadigan foydani aniqlashdagi soliq to‘lovchining chegirilmaydigan xarajatlari - 2 840 ming so‘m; Soliq kodeksining 146-moddasiga muvofiq kelgusida soliq solinadigan bazadan chegiriladigan hisobot davrining xarajatlari - 1 500 ming so‘m; Soliq kodeksining 146-moddasiga muvofiq joriy hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegiriladigan oldingi davrlarda amalga oshirilgan xarajatlar - 600 ming so‘m; solikdar bo‘yicha imtayozlar - 800 ming so‘m; Soliq kodeksining 159-moddasiga muvofiq soliq solinadigan foydani kamaytiradigan summalar - 400 ming so‘m.

O‘zbekiston Respublikasi MOLIYA vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining qarorlari bilan tasdiqlangan «Yuridik shaxslarning daromadi (foydasi)ga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Yo‘riqnomada «…soliq solinadigan foydaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar foyda solig‘i to‘lovchilar hisoblanadi» deb belgilab qo‘yilgan.

Daromadlar



1-rasm. Daromadlarni hisobga olish tizimi

Qurilish tashkilotlarining **foydasiga** soliq solish xuddi boshqa tadbirkorlik sub’ektlaridagidek amalga oshiriladi - ya’ni **jami daromad** va **chegiriladigan** xarajatlar aniqlanadi. Bunda ta’kidlash lozimki, Soliq kodeksining 130-moddasiga ko‘ra, qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish ishlari (xizmatlar)i bo‘yicha, shuningdek ob’ektlarni foydalanishga tayyor qilib qurish chog‘ida shartnomaviy baholardan kelib chiqib haq to‘lash uchun hisob-kitob hujjatlari taqdim etilgan, buyurtmachilar tomonidan bajarilgan (ko‘rsatilgan) va tasdiqlangan ishlarning (xizmatlarning) qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymati tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan olingan daromadga qo‘shiladi.

Bunda uzoq muddatli kontraktlarni bajarishdan olingan daromadlar hisobot davri mobaynida ularni amalda bosqichma-bosqich bajarish qismida hisobga olinadi.

Uzoq muddatli kontraktning amalda bajarilishi hisobot davri oxirida kontraktni bajarish boshlanganidan beri qilingan xarajatlarning kontraktni bajarish xarajatlarining umumiy summasidagi salmog‘i hisob-kitobi asosida aniqlanadi.

Hisobot davri oxiridagi daromad xarajatlarning hisoblangan salmog‘i va kontrakt bo‘yicha daromad umumiy summasining (kontrakt bahosi) ko‘paytmasi sifatida aniqlanadi. Mazkur kontrakt bo‘yicha ilgari hisobga olingan daromadlar joriy hisobot davri uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan olingan daromadni aniqlash chog‘ida chegiriladi.

MISOL. *Qurilish kompaniyasi 4 qavatli ma’muriy korpusni foydalanishga tayyor qilib topshirish shartlarida quryapti. Qurilish muddati - 24 oy. Qurilish boshlanishi - 2010 yil 1 yanvar.*

Kontraktning amalda bajarilishi ma’lumotnoma-hisobvaraq-faktura asosida aniqlanadi *(mazkur ma’lumotnomadan faqat qurilishda foydalaniladi).* Uni, mulkchilik shakli va MOLIYAlash manbalaridan qat’i nazar, qurilish tashkilotlari rasmiylashtiradilar. Ma’lumotnoma-hisobvaraq-faktura qurilish tashkiloti tomonidan ishlar hajmlarini tasdiqlash uchun buyurtmachiga topshiriladi. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlar hajmi qilingan xarajatlarni aniqlash asosi bo‘lib hisoblanadi.

Qilingan xarajatlar summasi 1 yanvardan 1 iyulgacha 52 mln so‘mni, loyihaning smeta qiymati 450 mln so‘mni tashkil qildi. Tuzilgan kontraktning bahosi - QQSni hisobga olmasdan 480 mln so‘m.

Qilingan xarajatlarning salmog‘i 11,6%ni (52/450 x 100) tashkil etadi va, tegishincha, 2010 yilning birinchi yarmi uchun realizatsiya qilishdan daromad 55,7 mln so‘mga (480 x 11,6%) teng.

Boshqa davrlar uchun ham daromadlar xuddi shunday qilib aniqlanadi. Soliq kodeksida nazarda tutilishicha, bittadan ortiq soliq davridagi daromadlarni aniqlash chog‘ida ilgari daromadga kiritilgan summa hisobot soliq davrida kiritilmaydi. Ya’ni 2010 yilda kiritilgan daromad 2011 yil daromadi summasidan chegiriladi.

Ko‘rsatilgan moddaning **imtiyoz** tovarlar (**ishlar,** xizmatlar) **ishlab chiqarishni** amalga oshirayotgan soliq to‘lovchilar tomonidan qo‘llanadi degan qoidasini e’tiborga olib, uning amal qilishi qurilish tashkilotlariga ham tatbiq etiladi. Masalan, qurilish tashkiloti kran xarid qilgan. Ushbu kranni xarid qilishga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga, hisobot soliq davrida hisoblab yozilgan amortizatsiyani chegirgan holda, korxona soliq solinadigan bazani kamaytirishga, biroq soliq solinadigan bazaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan hajmda, haqlidir.

Bunda belgilanishicha, agar, shartnomaga ko‘ra, ushbu ishlarni materiallar bilan ta’minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo‘lsa va uning ushbu materiallarga mulk huquqi saqlansa, bajarilgan ishlar, xizmatlar qiymatiga materiallar qiymati kiritilmaydi.

2010 yil 1 yanvargacha soliq solinadigan bazaga buyurtmachidan qurilish tashkilotiga beriladigan tovar-moddiy boyliklarning qiymati, qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab yozgan holda, kiritilgan, ushbu boyliklar soliq solish maqsadida realizatsiya qilingan deb hisoblangan.

Yagona soliq to‘lovini to‘lovchi qurilish tashkilotlari **o‘z kuchlari bilan** bajarilgan, ular uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan tushum hisoblangan ishlar hajmini belgilashlari kerak.

O‘z kuchlari bilan bajarilgan ishlar deganda buyurtmachiga taqdim etilgan, yordamchi pudrat tashkilotlarining xizmatlariga haq to‘lash xarajatlarini chegirgan holda, ishlar hajmini tushunish lozim.

Soliq kodeksining 355-moddasiga kiritilgan qo‘shimchada nazarda tutilishicha, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta’minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo‘lsa, ushbu materiallarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, o‘z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi.

Soliq kodeksining 155-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlariga mazkur daromadlarni olish bilan bog‘liq xarajatlar chegirib tashlanmagan holda to‘lov manbaida soliq solinadi. Norezidentlarning to‘lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga, xususan, quyidagilar kiradi:

dengiz, daryo va havo kemalaridan, temir yo‘l yoki avtomobil transporti vositalaridan xalqaro tashishlarda foydalanishdan olinadigan daromadlar**.** Ularga transport vositalaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishdan, ularni ijaraga berishdan yoki har qanday boshqa shakllarda foydalanishdan, shu jumladan konteynerlardan, konteynerlarni tashish uchun treylerlar va qo‘shimcha uskunalardan foydalanish, ularni saqlash yoki ijaraga berishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar) kiradi. Ayrim hollarda fraxt (shartnoma shartlaridan kelib chiqib) yukni ortish, qayta yuklash, tushirish va joylashtirish uchun to‘lovlarni ham o‘z ichiga oladi. Bunda, agar jo‘natish punkti yoki tayinlangan punkt O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan bo‘lsa, tashish xalqaro miqyosda tashish hisoblanadi;

xalqaro tashishlarda va O‘zbekiston Respublikasining ichidagi tashishlarda transport-ekspeditorlik xizmatlari ko‘rsatishdan olingan daromadlar**.** Bunda yuk jo‘natuvchidan (yukni qabul qilib oluvchidan) olingan summa bilan yuk tashuvchiga to‘lanishi kerak bo‘lgan, yuk tashuvchining tegishli birlamchi hujjatlari bilan tasdiqlangan summa o‘rtasidagi farq sifatida hisoblangan haq summasiga soliq solinadi. Bunday hujjatlar bo‘lmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga norezidentning SK 155-moddasining 9-bandida ko‘rsatilgan fraxtdan olinadigan daromadlariga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘langan umumiy summaga soliq solinadi.

Soliq kodeksining 160-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston norezidentining doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan va to‘lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga quyidagi stavkalar bo‘yicha soliq solinadi:

1) dividendlar va foizlarga - 10 foiz;

2) sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlariga - 10 foiz;

3) xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) - 6 foiz;

4) Soliq kodeksining 155-moddasida belgilangan daromadlarga, bundan Soliq kodeksi 160-moddasining 1-3-bandlarida ko‘rsatilgan daromadlar mustasno - 20 foiz.

Shu tariqa transport-ekspeditorlik kompaniyasi tomonidan daromad summasi (yuk jo‘natuvchidan (yuk oluvchidan) olingan summa bilan yuk tashuvchiga to‘lanadigan, tegishli birlamchi hujjatlar bilan tasdiqlangan summa o‘rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan haq) tasdiqlanganda uning daromadiga 20 foizlik stavka bo‘yicha soliq solinadi.

Yuk tashuvchining tegishli birlamchi hujjatlari mavjud bo‘lmaganda norezidentga to‘langan, fraxtdan olingan daromadning butun summasiga 6 foizlik stavka bo‘yicha soliq solinadi.

Soliq kodeksining 165-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi norezidentlariga daromadlar to‘lash paytida yuridik shaxslar foyda solig‘ini to‘lov manbaida ushlab qolishlari shart. Uning summasi norezidentga daromad to‘lash sanasida Markaziy bank tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha hisoblab chiqariladi.

Norezidentga daromad to‘lash manbai soliq organiga to‘lov amalga oshirilgan hisobot davri tugaganidan keyin 25 kundan kechiktirmay foyda solig‘i hisob-kitobini, soliq davri tugaganidan keyin esa 30 kun mobaynida daromad oluvchi shaxslar STIRi, nomi, daromad summasi va soliq davrida ushlangan foyda solig‘i summasini ko‘rsatgan holda belgilangan shakldagi ma’lumotnomani ham taqdim etishi shart.

Korxona rahbari tasdiqlangan me’yorlarga qo‘shimcha to‘lov belgilab, uni buyruq *(farmoyish)* bilan rasmiylashtirishga haqlidir Biroq bunda shuni hisobga olish lozimki, me’yorlardan ortiqcha sutkalik pullar summasi:

Soliq kodeksi 174-moddasining 9-bandiga ko‘ra xodimning daromadi deb e’tirof etiladi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadi;

- foyda solig‘i to‘lovchi korxonalar uchun chegirilmaydigan xarajat hisoblanadi *(SK 147-moddasining 3-bandi);*
- yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari solinmaydi *(SK 308-moddasining 1-bandi).*

Me’yor doirasidagi sutkalik pullar foyda solig‘ining hisob-kitobi paytida chegiriladi *(SK 145-moddasining 14-bandi),* jismoniy shaxsning daromadi hisoblanmaydi *(SK 171-moddasi ikkinchi qismining 7-bandi),* tegishincha, ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar solinmaydi.

Yagona soliq to‘lovi to‘lovchisida xarajatlar soliq solinadigan tushum hisob-kitobi chog‘ida hisobga olinmaydi.

MISOL. Ishlab chiqarish korxonasining xodimi Moskvaga 5 kun muddat bilan xizmat safariga yuborildi. Korxona rahbarining buyrug‘iga asosan xodimga xizmat safarida bo‘ladigan har bir sutka uchun 35 dollar hisob-kitobidan sutkalik xarajatlarga mablag‘lar to‘landi. Qaytib kelgach xodim buxgalteriyaga bo‘nak hisobotini taqdim etdi, unda ko‘rsatilishicha, sutkalik pullar 175 AQSh dollarini tashkil etib, hisobot to‘ldirilgan kunda MB kursi bo‘yicha so‘mga qayta hisoblaganda 274 750 so‘mni (175 x 1 570) tashkil etadi.

Me’yor doirasida xodimga 125 dollar (sutkasiga 25 dollardan) berilgan, unga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinmaydi va summa foyda solig‘i to‘lovchi korxonada chegiriladigan xarajat deb e’tirof etiladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hisob-kitobi chog‘ida xodimning jami daromadiga oshgan summa - 50 dollar (78 500 so‘m) kiritiladi. Ushbu summa foyda solig‘i hisob-kitobi chog‘ida chegirilmaydigan xarajat hisoblanadi. Sutkalik pullarning butun summasiga (274 750 so‘m) yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari solinmaydi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqaruvchi korxona yangi texnologik uskunani xarid qilayotganda Soliq kodeksining 159 va 269-moddalari bilan belgilangan, foyda solig‘i va mol-mulk solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish ko‘rinishidagi imtiyozlardan foydalanishga haqlidir.

Foyda solig‘ini xato sodir etilgan paytda amal qilgan stavka bo‘yicha qo‘shimcha hisoblab to‘lash kerak. Xato 2011 yilda sodir etilganligi bois foyda solig‘i 9 %lik stavka bo‘yicha to‘lanadi

Soliqlar bilan birga to‘lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,05% miqdorida penya hisoblab yozish kerak. Bunda boshqa soliqlar va majburiy to‘lovlarning ortiqcha to‘langan summalariga teng bo‘lgan qarz summasiga penya hisoblab yozilmaydi. Uning

miqdori tegishli soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarz summasidan oshmasligi kerak *(Soliq kodeksining 120-moddasi, Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarga penya hisoblash tartibi to‘g‘risidagi nizom).*

MISOL. 2011 yil uchinchi choragi uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisob-kitobida korxona xatoga yo‘l qo‘yib, xodimlarga Mustaqillik kuniga to‘langan 9 000 ming so‘m miqdoridagi mukofotni chegiriladigan xarajatlar tarkibiga kiritdi. Xato 2010 yil aprelida aniqlandi.

Bayram sanalari munosabati bilan xodimlarga to‘langan mukofotlarning summalari Soliq kodeksi 147-moddasining 21-bandiga ko‘ra chegirilmaydigan xarajatlarga kiradi. Binobarin, ular chegiriladigan xarajatlar tarkibiga noto‘g‘ri kiritilgan.

Ushbu xatoni tuzatish uchun byudjetga 810 ming so‘m (9 000 000 x 9%) foyda solig‘i o‘tkazish lozim.

Foyda solig‘i kam to‘langanligi natijasida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i amalda 72 ming so‘m (900 000 x 8%) ortiqcha to‘langan.

Bundan tashqari, soliqlar bo‘yicha to‘lov kechiktirilgan har bir kun uchun, 2011 yilning 26 oktyabridan boshlab to‘lash kuniga qadar, 0,05% miqdorida penya to‘lanishi kerak. Chunonchi, agar soliq 2012 yil 25 aprelda to‘lansa, penya to‘lash kunini hisoblagan holda 182 kunga hisoblab yoziladi.

Boshqa soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha ortiqcha to‘langan summalarga teng qarz summasiga penya hisoblab yozilmasligi sababli, mazkur vaziyatda penya farqqa, ya’ni 738 ming so‘mga (810 000 - 72 000) hisoblab yoziladi.

2011 yilda xatoga yo‘l qo‘yilganligini hisobga olib, foyda solig‘i shuningdek 2011 yil 26 oktyabrdan 2012 yil 1 yanvarga qadar davr uchun hisoblab yozilgan penya summasi taqsimlanmagan foyda hisobiga qo‘shimcha hisoblab yoziladi, 2012 yil 1 yanvardan boshlab soliq to‘lash paytiga qadar bo‘lgan davr uchun qo‘shimcha hisoblab yozilgan penya esa joriy yilda korxonaning boshqa xarajatlariga kiritiladi. Soliq solinadigan foydani belgilash chog‘ida penya summasi Soliq kodeksi 147-moddasining 25-bandiga asosan chegirilmaydi.

Mazkur vaziyatda foyda solig‘i bo‘yicha to‘lovni kechiktirganlik uchun to‘lanadigan penya summasi 67 158 so‘mni (828 000 x 182 x 0,05%), shu jumladan

Xo‘jalik operatsiyasining mazmuni	***Summa (so‘m)***	*21-son BHMS* ***bo‘yicha hisobvaraqlar korrespondentsiyasi***	
		debet	***Kredit***
2009 yil uchun qo‘shimcha hisoblangan foyda solig‘i aks ettirildi	900 000	8710	6410
Hisobot davrida byudjetga to‘lanadigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i summasi kamaytirildi	72 000	6410	8710
2011 yil uchun qo‘shimcha hisoblangan soliq bo‘yicha penya summasi aks ettirildi (67 kun)	27 738	8710	6410
2012 yil uchun qo‘shimcha hisoblangan soliq bo‘yicha penya summasi aks ettirildi (115 kun)	39420	9430	6410

Kompensatsiya miqdorlarini belgilash chog‘ida xodimlarning shaxsiy avtomobillaridan xizmat maqsadlari uchun (xizmat safarlaridan tashqari) foydalanganlik uchun kompensatsiya to‘lash tartibiga *(Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 2 apreldagi 154-son qaroriga 3-ilova)* amal qilish kerak. Mazkur tartibda to‘lovning chegaralangan me’yorlari belgilangan.

Kompensatsiya summasi hisoblanganda avtomobilning rusumiga qarab, eng kam ish haqiga karrali miqdordan kelib chiqib, bir oy uchun to‘lov me’yorlari hisobga olingan. Ular:

GAZ-24, 31 uchun - EKIHning 6 baravari;

VAZ, Neksiya, Moskvich uchun - EKIHning 5 baravari;

Tiko uchun - EKIHning 3 baravari;

boshqa xorijiy rusumlar uchun - EKIHning 4 baravarini tashkil qilgan.

Mazkur ro‘yxatda ko‘rsatilmagan rusumlardagi avtomobillar bo‘yicha korxonalar kompensatsiya summasini mustaqil ravishda (xodim bilan kelishib), yonilg‘i-moylash materiallarini xarid qilish, texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlaridan, bir oydagi avtomobil amortizatsiyasi summasidan kelib chiqib belgilaganlar.

2011 yilda Prezidentning 2010 yil 24 dekabrdagi PQ-1449-son qarori *(32-ilova)* bilan kompensatsiya to‘lashning chegaralangan summalari avtomobil dvigatelining quvvatiga bog‘liq holda (uning rusumidan qat’i nazar) quyidagicha belgilandi:

100 ot kuchidan yuqori - bir oy uchun eng kam ish haqining 4,5 baravari;

70 dan 100 ot kuchigacha - EKIHning 3,5 baravari;

70 ot kuchigacha - EKIHning 2 baravari.

Dvigatelning quvvati ishlab chiqaruvchi zavodning hujjatlarida, texnik pasportda ko‘rsatiladigan avtomobilning texnik ma’lumotlari bo‘yicha belgilanadi. Shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya oluvchi xodim buxgalteriyaga texnik pasport nusxasini taqdim etishi shart. Masalan, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan avtomobillar dvigatel quvvatining quyidagi parametrlariga (ot kuchida) egalar:

Matiz		Epica		Spark		Nexia	
M, MX	BEST	LS	LT	L, LS	LT	SOHC 1.5	DOHC 1.6
49	62	143	156	68	81	75	108

Captiva LTZ (AT)	Lacetti	Damas	Tico
230	121	38	41

Rossiyada ishlab chiqarilgan ayrim avtomobillar bo‘yicha dvigatelning ot kuchidagi quvvati quyidagilarni tashkil qiladi:

VAZ			GAZ		Moskvich
2107	2110	Niva	31	24	407 1.4
72	69	80	150	98	45

Tegishincha, EKIH 49 735 so‘m bo‘lganda Lacetti avtomobilidan foydalanganlik uchun kompensatsiyani to‘lash me’yori oyiga 223 807,5 so‘mni tashkil qiladi va hokazo.

Korxona o‘zining Moliyviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, kompensatsiyani belgilangan me’yorlardan oshadigan miqdorlarda to‘lashi mumkin. Biroq ushbu holda korxonaning o‘zi uchun ham (foyda solig‘i bo‘yicha), kompensatsiya oluvchi uchun ham (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha) soliq oqibatlari yuzaga keladi. Me’yorlardan ortiqcha to‘lov summasi soliq solinadigan foydani belgilayotganda xodimning chegirilmaydigan xarajati *(Soliq kodeksi 147-moddasining 11-bandi, bundan keyin - SK)* va soliq solinadigan daromadi *(SK 174-moddasining 11-bandi)* hisoblanadi. Me’yorlar doirasidagi summalar korxonaning chegiriladigan daromadi hisoblanadi *(SK 145-moddasining 15-bandi)* va xodimning daromadi deb tan olinmaydi *(SK 171-moddasi ikkinchi qismining 8-bandi).* Me’yor doirasida va undan oshadigan kompensatsiya summasiga yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari solinmaydi. Shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun xodimga to‘lanadigan kompensatsiyaning aniq miqdori rahbarning tegishli buyrug‘i bilan belgilanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish va hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblab chiqarish ushbu Kodeksning 128-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobi, agar ushbu moddada boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik Moliyviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari doimiy muassasa joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organiga O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyatining xususiyati haqidagi hisobotni (erkin shaklda), shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobini chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun yillik Moliyviy hisobotni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Bunda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobida byudjetga to‘lanadigan sof foydadan olinadigan soliq summasi alohida satrda ko‘rsatiladi. Faoliyat kalendar yil tugashidan avval tugatilgan taqdirda, bu hujjatlar faoliyat tugatilganidan keyin bir oydan kechiktirmasdan taqdim etilishi shart.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik sub’ektlariga yuqori darajada qulay shart-sharoitlarni yaratish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, tadbirkorlik sub’ektlariga ko‘maklashish va ularning huquqiy erkinligini oshirish borasida qator choralar ko‘rilmoqda.

Bunga asosan, joriy yilning 3-choragidan boshlab, yirik korxonalar uchun 2 ta Moliyviy hisobot shakllari, ya’ni Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot (3-shakl) hamda Debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma (2a-shakl), kichik korxonalar uchun 1 ta – Debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma (2a-shakl) bekor qilindi.

Bundan tashqari, 2013 yil 1 yanvardan boshlab, soliq organlariga taqdim etiladagan 11 turdagi soliq hisobotlari va boshqa ma’lumotlarni birlashtirib, 5 taga tushirilishi belgilandi.

Jumladan, foyda solig‘i bilan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha hisobot shakllari birlashtirildi.

Prezidentimizning 2011 yil 18 iyuldagi «**Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida**» PF-4455- sonli farmonlariga asosan bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirishning g‘oyat muhim vazifalari biri: statistik, Moliyviy va soliq hisobotlarini taqdim etishda, soliqlar va majburiy to‘lovlarni to‘lashda, ro‘yxatga olish va ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirishda, er maydonlarini ajratish va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishda, shuningdek, tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlashda davlat, nazorat qiluvchi organlar bilan tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasidagi bevosita muloqotni, byurokratik sansalorlik va korruptsiyani istisno etuvchi elektron tizimga, shu jumladan, internet tarmog‘iga keng miqyosda o‘tishni ta’minlash belgilangan;

2013 yilning 1 yanvaridan boshlab tadbirkorlik sub’ektlari tegishli davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida quyidagi tartib-taomillarni o‘z xohishlariga ko‘ra elektron shaklda amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladilar:

bank hisobvaraqlariga masofadan turib xizmat ko‘rsatish tizimi, shu jumladan, «Internet-banking» tizimi orqali soliqlarni va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash — O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Markaziy banki, tijorat banklari.

Shuningdek Davlat soliq qo‘mitasi Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi tomonidan beriladigan elektron raqamli imzo kalitlarni berish uchun to‘lov miqdori eng kam minimal ish haqidan 20 foizdan 10 foizga qisqartirildi.

2013 yilning 1 yanvaridan boshlab tadbirkorlik sub’ektlari soliq va majburiy to‘lovlarni to‘lashning elektron tizimiga, shu jumladan tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan elektron masofali tizim xizmatlarni Moliyviy xizmatlarga tenglashtirish yo‘li bosqichma-bosqich o‘tish belgilangan.

Amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotni liberallashtirishga, ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga, raqobatni rivojlantirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga xizmat qiladi.

Soliq to‘lash tartibi (164-modda). Hisobot davri mobaynida soliq to‘lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini joriy to‘lovlarni kiritish orqali to‘laydilar, ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar bundan mustasno.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarning summasini aniqlash uchun soliq to‘lovchilar joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi haqida ma’lumotnoma taqdim etadilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlar har oyning 10-kunidan kechiktirmay ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan yil choragi bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasining uchdan bir qismi miqdorida to‘lanadi. Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan soliq to‘lovchilar joriy to‘lovlarni to‘lamaydi.

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi hisobot davri uchun byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasiga nisbatan 10 foizdan ko‘proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to‘lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini, shuningdek sof foydadan olinadigan soliqni joriy to‘lovlarni to‘lamasdan yiliga bir marta, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan keyin bir oy ichida to‘laydi.

2. Jismoniy shaxslarning olinadigan daromad solig‘i hisobi va hisoboti.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ob’ekti, bazasi va jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi, shuningdek soliq stavkalariga bag‘ishlanadi. Bu masalalar Soliq kodeksining (SK) 29-32-boblari bilan tartibga solinadi.

Soliq to‘lovchilar, soliq solish ob’ekti va bazasi. SKga muvofiq soliq solinadigan daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar va O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari uchun norezidentlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchilari hisoblanadi.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari hamda norezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari soliq solish ob’ekti hisoblanadi.

Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, SKga muvofiq soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan, qat’iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq solish ob’ekti bo‘lmaydi.

Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi

1) mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar;
2) mulkiy daromadlar;
3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
4) boshqa daromadlar.

MISOL. Reklama bo‘yicha menejerga lavozim maoshi 395 000 so‘m qilib belgilangan. Fevral oyida u 15 ish kuni ishladi.

Bu erda mehnatga haq to‘lashning oddiy vaqtbay shaklida haqiqatda ishlab berilgan kunlarga to‘lov amalga oshiriladi. Fevral oyida 20 ish kuni bo‘lib, ulardan 15 kuni reklama bo‘yicha menejer tomonidan ishlab berilgan.

Uning ish haqini hisoblash uchun, oldin, bir ish kuni uchun to‘lanadigan ish haqi miqdorini aniqlash zarur. Maoshi 395 000 so‘m bo‘lgan holatda, fevral oyidagi kunlik ish haqi 19 750 so‘mga (395 000 / 20) teng bo‘ladi. Shunday ekan, fevral oyi uchun menejerning ish haqi 296 250 (19 750 x 15) so‘mga teng bo‘ladi.

Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo‘lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga

hisoblanadigan va to‘lanadigan barcha to‘lovlar mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar deb e’tirof etiladi:

mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;

- ilmiy daraja va faxriy unvon uchun qo‘shimcha to‘lovlar;
- SKning 173-moddasiga muvofiq rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar;
- SKning 174-moddasiga muvofiq kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiya);
- SKning 175-moddasiga muvofiq ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash.

Shuningdek mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarga quyidagilar ham kiradi:

- fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq to‘lovlar;
- yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o‘xshash organi) a’zolariga yuridik shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar;
- O‘zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining xodimlariga xizmatni o‘tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to‘lanadigan pul ta’minoti, pul mukofotlari va boshqa to‘lovlar.

MISOL. Taftish komissiyasi a’zosiga tashkilotning umumiy yig‘ilishiga tayyorlanishi va qatnashishi kunlariga 25 000 so‘m summadan kelib chiqib har bir kun uchun to‘lanadi. 5 kun uchun unga 125 000 so‘m hisoblanib, ushbu summa taftish komissiyasi a’zosining arizasiga asosan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga maksimal stavka (22%) bo‘yicha tortiladi.

Bu erda taftish komissiyasi a’zosiga to‘lanadigan mukofot summasi (125 ming so‘m) mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarga kiritiladi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga tortiladi va ijtimoiy sug‘urtaga majburiy ajratmalar ob’ekti hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi 27 500 so‘mni (125 000 x 22%), hisoblangan sug‘urta badali summasi - 6 875 so‘mni (125 000 x 5,5%) tashkil etadi.

MISOL. Korxona o‘z xodimiga 2012 yilning yanvar oyiga 629 200 so‘m miqdorida ish haqi va oziq-ovqat uchun 125 840 so‘m ajratadi.

Bu erda daromad solig‘ini hisoblashda soliq solish bazasiga oylik ish haqi va oziq-ovqat puli kiritiladi (2012 yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining 2011 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-313-son Qonuni bilan SKning 174-moddasiga o‘zgartirish kiritildi). Soliqqa tortiladigan jami daromad summasi 755 040 so‘mni tashkil qiladi. EKIH miqdori 62 920 so‘m. Yanvar oyi uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi shkala bo‘yicha:

(62 920 x 5) x 9% = 28 314 so‘m

[(629 200 - 314 600) x 16%] = 50 336 so‘m

[(755 040 - 629 200) x 22%] =27 684,8 so‘m

Demak, yanvar oyi uchun jami byudjetga to‘lanishi kerak bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi - 106 334,8 so‘m.

Ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash - SKning 175-moddasida ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash tarzidagi daromad turlari to‘liq keltirilgan, ular, jumladan, quyidagilardir:

- yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta’tilga haq to‘lash, shuningdek ushbu ta’tildan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to‘lash;

- asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta’tilda bo‘lgan xodimlarga beriladigan to‘lovlar;

- qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo‘yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

- xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun haq to‘lash;

- mehnat layoqatini vaqtincha yo‘qotgan xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash;

- yuridik shaxsning mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo‘shimchalar, stipendiyalar.

MISOL. Korxona xodimiga navbatdagi yillik ta’til 2011 yil 1 martdan 24 ish kuni (asosiy ta’til - 15 kun va qo‘shimcha ta’til - 9 kun) muddati bilan berildi. 2011 yil mart oyida mehnat ta’tiliga chiqishdan oldingi 12 kalendar oy uchun ish haqi miqdor 2 260 ming so‘m, shu jumladan tarif bo‘yicha 2 150 ming so‘m va tarifdan yuqorisi 1 100 ming so‘mni tashkil qiladi.

Hisob-kitob kuniga tarif bo‘yicha ish haqi - 190 000 so‘m.

Ta’til vaqtiga haq summasi quyidagicha hisoblanadi:

Ta’til vaqtiga haq summasini aniqlash uchun asos qilib Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan o‘rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish tartibining 1-bandiga muvofiq hisoblanadigan xodimning o‘rtacha oylik ish haqi olinadi.

Ushbu holatda xodimning o‘rtacha oylik ish haqi quyidagini tashkil etadi:

190 000 + 110 000 / 12 =199 166,7 so‘m,

bu erda:

190 000 - tarif stavkasi,

110 000 - tarif stavkasidan yuqori summalar,

12 - oylar.

Ta’til vaqtiga haq to‘lash uchun summalarni olti kunlik ish haftasi bo‘yicha hisoblaganda oyning o‘rtacha davomiyligi 25,4 kun deb olinadi.

Xodimga hisoblangan ta’til vaqtiga haq summasi 188 189,01 (199 166,7 / 25,4 x 24) so‘mni tashkil etadi.

Moddiy naf tarzidagi daromadlar –

1) yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko‘zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to‘lash, shu jumladan:

jismoniy shaxslarning bolalarini maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘qitish, tarbiyalash;

kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari haqini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash;

sanatoriy-kurortlarda davolanish yo‘llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash;

yuridik shaxsning jismoniy shaxs daromadi bo‘lgan boshqa xarajatlari;

2) soliq to‘lovchining manfaatlarini ko‘zlab tekinga, shu jumladan hadya shartnomasi asosida berilgan mol-mulk, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati;

3) tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xodimlarga realizatsiya qilinadigan narxi va shu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan qiymati o‘rtasidagi salbiy tafovut;

4) qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temir yo‘l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo‘yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

5) jismoniy shaxsning yuridik shaxs oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalari;

6) ish beruvchi tomonidan to‘lovlar hisobiga to‘lanib, xodimdan ushlab qolinishi lozim bo‘lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar.

Soliq to‘lovchi yuridik shaxsdan tovarlar (ishlar, xizmatlar) olgan taqdirda, ushbu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati ularni olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Jismoniy shaxs yuridik shaxsdan aktsiz to‘lanadigan tovarlar yoki qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) olsa, bunday tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymatida aktsiz solig‘ining va qo‘shilgan qiymat solig‘ining tegishli summasi hisobga olinadi.

MISOL. Korxona balansida bo‘lgan (QQS to‘lovchi) qiymati 180 ming so‘mlik kompyuter xodimga tekinga topshirildi.

Taqdim etilgan kompyuter boshidan ularni xodimga tekinga berish uchun xarid qilinmagan, balki ular korxonaning ehtiyoji uchun olingan bo‘lib, tegishincha, ular bo‘yicha SKning 218-moddasiga asosan QQS hisobga olingan. Tekinga berishda hisobga olish summasiga tuzatish kiritilmaydi.

Kompyuterni tekinga berish QQS solish oboroti hisoblanadi va hisobvaraq-faktura rasmiylashtiriladi. QQS 36 ming (180 x 20%) so‘mni tashkil etadi.

Tegishincha, xodimning daromadi 216 ming (180 + 36) so‘mga teng, xususan, unga soliq solinmaydi, chunki u eng kam ish haqining olti baravari miqdoridan oshmaydi (EKIH miqdori - 62 920 so‘m bo‘lganda) (SKning 179-moddasi 14-bandi).

Boshqa daromadlar - SKning 178-moddasida boshqa daromad turlari to‘liq keltirilgan, quyida ularning bir qanchasi keltiriladi:

- hayvonlarni (qoramol, parranda, mo‘ynali va boshqa hayvonlarni, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so‘yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, ipak qurti, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;
- jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo‘yicha) olingan mol-mulk yoki mulkiy huquqlar qiymati;
- xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo‘shatish nafaqasi va boshqa to‘lovlar;
- moddiy yordam tariqasida:

vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan to‘lovlar;

xodimga mehnatda mayib bo‘lganlik, kasb kasalligi yoxud sog‘liqqa boshqacha shikast etganligi bilan bog‘liq to‘lovlar;

favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan to‘lovlar;

maqsadli xususiyatga ega bo‘lgan hamda xodimlar bilan yuz bergan shaxsiy tusdagi voqealar, hodisalar va tadbirlar bilan bog‘liq bo‘lgan hamda bajariladigan ish natijalariga bog‘liq bo‘lmagan to‘lovlar;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag‘lar berish tarzidagi to‘lovlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy-kommunal xizmatlari haqini to‘lash bo‘yicha har oylik kompensatsiya pul to‘lovlari;

- ishlamaydigan pensionerlarga yuridik shaxs tomonidan to‘lanadigan to‘lovlar.

Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari - SKning 179-moddasida jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari turlari to‘liq keltirilgan, ularning bir qanchasi quyidagilardir:

- moddiy yordam summalari:

favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summalari - to‘laligicha; vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalari - EKIHning yigirma baravarigacha miqdorda;

boshqa hollarda - soliq davri uchun EKIHning o‘n ikki baravarigacha miqdorda;

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, fermer xo‘jaligi boshlig‘i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

- jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan:

qimmatli qog‘ozlarni, yuridik shaxslarning ustav jamg‘armasidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);

yashash uchun mo‘ljallanmagan joylarni;

ketma-ket keladigan o‘n ikki oylik davr ichida ikki martadan ortiq bitim tuzilgan taqdirda, uy-joylarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar mustasno;

- uy xo‘jaligida, shu jumladan dehqon xo‘jaligida etishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo‘ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so‘yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog‘dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno. Mazkur daromadlar soliq to‘lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining boshqaruvlari tomonidan berilgan, realizatsiya qilingan mahsulot soliq to‘lovchi tomonidan unga yoki uning oila a’zolariga ajratilgan er uchastkasida etishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi;

- jamg‘arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek banklar va kredit uyushmalaridagi omonatlar bo‘yicha foizlar hamda yutuqlar.

MISOL. Tijorat banki jismoniy shaxsning depozit-so‘mlik omonati bo‘yicha yillik foizlar hisobladi. Omonat summasi 500 ming so‘mga teng, omonat bo‘yicha yillik foiz 18% miqdorida belgilangan.

Omonat bo‘yicha foizlar summasi 90 ming (500 x 18%) so‘mni tashkil etadi.

Tijorat bankidagi depozit omonati bo‘yicha foizlar ko‘rinishidagi daromadga SKning 179-moddasi 17-bandiga asosan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinmaydi.

Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarga kiritilmaydi, tegishincha, yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badalini hisoblash ob’ekti hisoblanmaydi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga belgilangan eng kam stavka bo‘yicha soliq solinadi:

- baland tog‘li, cho‘l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan koeffitsientlar bo‘yicha qo‘shimcha to‘lovlar tariqasida olingan daromadlarga. Bunda cho‘l va suvsiz joylarda, baland tog‘li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda ishlaganlik uchun yuridik shaxslar xodimlarining ish haqiga koeffitsientlar hisoblashning eng yuqori summasi hisoblash paytidagi holatga ko‘ra belgilangan EKIHning to‘rt baravari miqdorida belgilanadi;

- korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik qishloq xo‘jaligi ishlariga yuborilgan jismoniy shaxslarning shu ishlarni bajarishdan olingan daromadlariga;

- mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga;

- jismoniy shaxslardan tekin olingan ulushlar, paylar va aktsiyalar tarzidagi daromadlarga;

- jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlarga.

Jismoniy shaxslarning ish haqidan olinadigan daromad solig‘ining buxgalteriya hisobi 6411 «Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha byudjetga qarzdorlik» schyotida olib boriladi.

Jismoniy shaxslarning ish haqidan olinadigan daromad solig‘ining buxgalteriya hisobida aks ettirilishini misollar yordamida karab chikamiz.

1. Savdo kompaniyasida sotuvchilarga 200000 so‘m va ma’muriyat xodimlarga 32000 so‘m mikdorida ish haqi hisoblandi:

Debet 9414 «Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha harajatlar» 200000 so‘m

9421 «Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha harajatlar ma’muriyat harajatlari)» 32000 so‘m

Kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» 232000 so‘m

2. Kompaniya ishchi va hizmatchilarga hisoblangan ish haqi hisobidan 12 foiz mikdorda daromad solig‘i ushlandi. Bu ho‘jalik jarayoni buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettiriladi:

Debet 6411 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob - kitoblar» 27840 so‘m

Kredit 6411 «Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha byudjetga qarzdorlik» 27840 so‘m

Ijtimoiy sugo‘rta ajratmalarini hisoblash va buxgalteriya hisobida aks ettirishni quyidagi misollar yordamida ko‘rib chikamiz.

3. Kompaniya ishchi-hizmatchilariga hisoblangan ish haqi hisobidan sugo‘rta to‘lovi ushlanganda:

Debet 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» 5800 so‘m

Kredit 6720 «Ijtimoiy sugo‘rta bo‘yicha to‘lovlar» 5800 so‘m

Ijtimoiy sugo‘rta uchun 37,3 foizlik ajratma hisoblanganda:

Debet 9415 « Mehnat haqi jamg‘armasidan ajramalar» 74600 so‘m

9422 « Mehnat haqi jamg‘armasidan ajramalar» 11936 so‘m

Kredit 6520 «Ijtimoiy sugo‘rta bo‘yicha to‘lovlar» 86536 so‘m

5. Ish haqidan ushlangan daromad solig‘i va ijtimoiy sugo‘rta to‘lovlariga ajratmalar hisob kitob schyotidan to‘langanda:

Debet 6411 «Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha byudjetga qarzdorlik» 27840 so‘m

6520 «Ijtimoiy sugo‘rta bo‘yicha to‘lovlar» (5800+86536) = 92336 so‘m

Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 120176 so‘m

6. Kompaniya tomonidan xodimlarga ish haqi berilganda:

Debet 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob - kitoblar» 198360 so‘m

Kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablaglari» 190300 so‘m

7. O‘z vaktida olinmagan ish haqi summasi deponetga o‘tkazilganda:

Debet 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob - kitoblar» 8060 so‘m

Kredit 6720 «Deponentlik mehnat haqi» 8060 so‘m

Yangi schyotlar rejasiga asosan, soliqlar bo‘yicha byudjet bilan hisob-kitoblarning buxgalteriya hisobi 6410-»byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik hisobi» schyotlarda olib boriladi. Bu schyotda bir soliq har bir soliq turiga alohida schyot ochiladi. Bunda korxona o‘zi mustaqil tarzda subschyot ochish huquqiga ega.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lov manbaida soliq solish soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq agentlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq agentlari soliq to‘lovchining ushbu Kodeksning 184-moddasida ko‘rsatilgan daromadlaridan hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasini mazkur daromadlar haqiqatda to‘lanayotganda ushlab qolishlari shart.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning hisoblangan summasini soliq to‘lovchidan ushlab qolish soliq agenti soliq to‘lovchiga to‘layotgan har qanday pul mablag‘lari hisobidan, mazkur pul mablag‘lari haqiqatda soliq to‘lovchiga yoki uning topshirig‘iga binoan uchinchi shaxslarga to‘lanayotganda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining to‘g‘ri ushlab qolinishi va o‘z vaqtida byudjetga o‘tkazilishi uchun javobgarlik daromad to‘layotgan soliq agentining zimmasida bo‘ladi. Mazkur soliq summasi ushlab qolinmagan taqdirda, soliq agenti ushlab qolinmagan summani hamda u bilan bog‘liq penyani byudjetga to‘lashi shart.

Soliqni hisoblab chiqarishva ushlab qolish tartibi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish uchun soliq stavkasini qo‘llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo‘yicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish ushbu bo‘limda belgilangan soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo‘yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo‘yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq agentlari:

1) soliq davri tugaganidan so‘ng o‘ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida, asosiy ish joyi bo‘yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslar bundan mustasno, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi MOLIYA vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma’lumotnoma taqdim etishi shart, unda quyidagilar aks ettiriladi:

soliq to‘lovchining - jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami;

soliq to‘lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi manzili;

o‘tgan soliq davri yakunlari bo‘yicha daromadlarning umumiy summasi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingan umumiy summasi;

soliq agentining identifikatsiya raqami;

soliq agentining nomi, joylashgan eri (pochta manzili);

2) yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik MOLIYA hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to‘langan daromadlar summalari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingan summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi MOLIYA vazirligi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etishi shart.

Rasshifrovkaning barcha ustunlari bo‘yicha aniqlangan oy oxiriga qoldiq qatori ma’lumotlari keyingi oy uchun to‘ldiriladigan rasshifrovkaning oy boshiga qoldiq qatorida qayd etilgan bo‘lishi shart.

Yuqorida to‘ldirilishi haqida batafsil keltirilgan har oyda tuziladigan rasshifrovkada ifodalangan ma’lumotlar asosida har chorakda bir marotaba yuridik shaxslar tomonidan «Hisoblangan va haqiqatda to‘langan daromadlar summalari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingan summalari to‘g‘risida»gi ma’lumot to‘ldiriladi. Ushbu ma’lumotda yuridik shaxs yozuvlarninning haqqoniyligi va to‘g‘riligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Soliq kodeksining 187-moddasiga ko‘ra, yuridik shaxslar yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kuniga qadar, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik MOLIYA hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to‘langan daromadlar summalari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingan summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni belgilangan shaklda taqdim etishi shart ekanligi belgilangan.

Soliq kodeksining 188-moddasiga muvofiq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining hisoblab chiqarilgan summasi byudjetga yuridik shaxslar tomonidan pul mablag‘larini olish uchun xizmat ko‘rsatuvchi bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda hamda to‘lov natura holida amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

Prezidentimizning 2012 yil 16 iyul kuni «Statistik, soliq, Moliyviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 4453-sonli Farmoniga asosan 2013 yildan e’tiboran taqdim etish davriyligi quyidagi soliq hisobotlari barcha soliq to‘lovchi yuridik shaxslar tomonidan yilda bir marotaba taqdim etilishi belgilandi:

- jismoniy shaxslarga hisoblangan daromadlar rasshifrovkasi;
- jismoniy shaxslarning soliq solishdan ozod etilgan daromadlari rasshifrovkasi.

Hisoblangan va amalda to‘langan daromadlar summalari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingan summalari to‘g‘risida
M A ‘ L U M O T L A R

(so‘mda)

№	Ko‘rsatkichlar	Satr-lar	To‘lovchining ma’lumotlari bo‘yicha
1	Yil boshidan daromad olgan jismoniy shaxslar soni, jami (kishi)	001	1 150,00
	Jumladan: o‘rindoshlik bo‘yicha (kishi)	002	200,00
	Pudrat shartnomasi bo‘yicha ishlarni bajaruvchilar	003	150,00
	01-satrdan horijiy jismoniy shaxslar (kishi)	004	
2	Hisobot davri boshiga qarzdorlik:		
	- xodimlarga soliq solinadigan daromadlarni to‘lash bo‘yicha (soliqlar va majburiy ajratmalar chegirilgan holda)*	005	176 078 397,00
	- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha	006	34 251 000,00
	shundan, xodimlarga to‘langan daromad summasiga nisbatan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha qarzdorlik (ortiqcha to‘langan) summasi	007	-------
	- ShJBPHga badallar bo‘yicha	008	2 227 119,00
	shundan, xodimlarga to‘langan daromad summasiga nisbatan ShJBPHga badallar bo‘yicha qarzdorlik (ortiqcha to‘langan) summasi	009	-------
3	Hisobot davri uchun hisoblangan:		
	Xodimlarga berilishi lozim bo‘lgan soliq solinadigan daromad summasi (soliqlar va majburiy ajratmalar chegirilgan holda)*:		

3. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i va hisoboti.

Yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan xorijiy investitsiyali yuridik shaxslar ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lovchilar hisoblanadi.

Soliq solish ob’ekti bo‘lib «Moliyviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»ning 2-son shakli 270-satrida «Soliq solinadigan foyda» qiymatidan foyda solig‘i ayrilgan summasi hisoblanadi. Soliqning eng yuqori stavkasi soliqqa tortish ob’ektining 8%i miqdorida belgilangan. Mahalliy hokimiyat idoralari soliqni past stavkalar bo‘yicha to‘lashi mumkin.

Balansida ijgimoiy infratuzilma ob’ektlari bo‘lgan soliq to‘lovchilar byudjetga to‘lanadigan soliq summasini quyidagi tartibda aniqlaydi:

- agar ijgimoiy infratuzilma ob’ektlarini ta’minlash uchun xarajatlar summasi ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq summasiga teng yoki undan ortiq bo‘lsa, soliq to‘lanmaydi;
- agar ijgimoiy infratuzilma ob’ektlarini ta’minlash uchun xarajatlar summasi ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq summasidan kam bo‘lsa,

byudjetga to‘lanadigan soliq hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan haqiqatda sarflangan xarajatlar summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliq hisoblanganda:

Debit 9810-»Foydadan hisoblangan va to‘lanadigan soliq»


Kredit 6410-»Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik»

Bu soliq byudjetga to‘langanda:

Debit 6410-»Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik»

Kredit 5110-»Hisob-kitob schyoti».

Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i korxonaning sof foydasidan hisoblanadi:



1. Bu soliq hisoblanishi.
2. Soliqni byudjetga to‘lanishi.

6410- Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i hisoblash va to‘lash tartibi			
Debet		Kredit	
5110 hisob raqamdan utikazish		9810-»Foydadan hisoblangan va to‘lanadigan soliq»	

Misol: Korxona hizmat ko‘rsatishi natijasida yil yakunida soliq inspeksiyasiga yillik hisobot topshirishi natijasida korxona sof foydasi 19638, ming so‘mni tashkil kilgan.

Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini hisoblandi:

Inf.riv.sol = 19638 x 8% = 1571,04 ming so‘m

Byudjetga to‘lanishi kerak bo‘lgan Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i summasiga va ushbu summaning byudjetga o‘tkazilishi schyotlarda quyidagicha aks ettiriladi:

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob’ektlari bo‘lgan, obodonlashtirish va ijtimoiy rivojlantirish solig‘i to‘lovchilari uchun joriy to‘lovlarni hisoblash bo‘yicha ___chorak uchun

MA’LUMOTNOMA

Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Tahmin qilinayotgan sof foyda summasi	010	1 200 000 000
Ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarini saqlab turish harajatlarining tahmin qilinayotgan summasi	020	96 000 000

Soliq to‘lovchining balansida bo‘lgan ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarini saqlab turish harajatlariga to‘g‘ri keladigan yuridik shaxslarning foyda solig‘ining hisoblangan summasi (020 satr h foyda solig‘i stavkasi) / 100	030	96 000
Tahmin qilinayotgan soliq solish bazasi (010-satr + 020-satr – 030-satr)	040	1 295 904 000
Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i stavkasi, % da	050	8
Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining hisoblangan summasi (040-satr h 050-satr)	060	103 672 320
Byudjetga to‘lanadigan obodonlashtirish va ijtimoiy Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i summasi (060-satr – 020-satr)	070	7 672 320
Har oylik joriy to‘lovlar summasi (070-satr / 3)	080	2 557 440

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob’ektlari bo‘lmagan, obodonlashtirish va ijtimoiy Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i to‘lovchilari uchun joriy to‘lovlarni hisoblash bo‘yicha ____chorak uchun

M A ‘ L U M O T N O M A

Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Tahmin qilinayotgan sof foyda	010	1200 000 000
Obodonlashtirish va ijtimoiy Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i stavkasi, %da	020	8
Hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i summasi (010-satr h 020-satr)	030	96 000 000
Har oylik joriy to‘lovlar summasi (030-satr / 3)	040	32 000 000

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi (300-modda). Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob’ektlari bo‘lgan soliq to‘lovchilar byudjetga to‘lanadigan soliq summasini quyidagi tartibda aniqlaydi:

- agar ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarini ta’minlash uchun xarajatlar summasi ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq summasiga teng yoki undan ortiq bo‘lsa, soliq to‘lanmaydi;
- agar ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarini ta’minlash uchun xarajatlar summasi ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq summasidan kam bo‘lsa,

byudjetga to‘lanadigan soliq hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan haqiqatda sarflangan xarajatlar summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliq to‘lovchilar, bundan ushbu moddaning oltinchi qismida ko‘rsatilganlar mustasno, hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlar to‘laydi.

Joriy to‘lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi MOLIYA vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo‘yicha hisobot davrining birinchi oyi 10-kuniga qadar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining joriy to‘lovlari to‘g‘risidagi ma’lumotnomada ko‘rsatilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Joriy to‘lovlar ushbu moddaning to‘rtinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay to‘lanadi.

Quyidagilar joriy to‘lovlarni to‘lamaydi:

- hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda bo‘lgan soliq to‘lovchilar;
- ilgarigi hisobot davrida ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarini saqlash xarajatlari summasi soliq solinadigan baza summasiga teng yoki undan ortiq bo‘lgan soliq to‘lovchilar;
- yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tmagan mikrofirmalar va kichik korxonalar.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik Moliyviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lash mazkur soliq bo‘yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

4. Doimiy va vaqtinchalik farqlarning hisobi.

Soliqqa tortiladigan foydani aniq hisoblashda «doimiy farqlar», «vaqtinchalik farqlar» tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Bu tushunchalarning mohiyati 12-MHHS «Foydadan soliq» standartda ko‘rsatib o‘tilgan.

Farqlar buxgalteriya hisobida ko‘rsatilgan foyda bilan soliqqa tortish maqsadida aniqlangan foyda o‘rtasidagi farqdir. Bu farqlar daromadlar va xarajatlarni buxgalteriya hisobi va soliq qonunchiligida tan olish qoidalari har xilligidan kelib chiqadi.

Doimiy farqlar – bu hisobot davrida buxgalteriya hisobi bo‘yicha foydani shakllantiruvchi daromadlar va xarajatlar bo‘lib, ular hisobot davridagi (kelgusi hisobot davrida) soliqqa tortiladigan foyda bazasidan chegiriladi.

Vaqtinchalik farqlar – bu foydani shakllantiruvchi daromad va xarajatlarning ba’zi moddalarini buxgalteriya hisobi foydasiga hisobot davrida, foyda solig‘i bazasiga boshqa davrga olib borilishi natijasida hosil bo‘ladigan farqlar.

Vaqtinchalik farqlar soliqqa tortiladigan foyda bazasiga ta’siriga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

- chegiriladigan (kechiktiriladigan) vaqtinchalik farqlar;
- soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farqlar.

Vaqtinchalik farqlarni kelib chiqish sabablaridan biri bu asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya ajratmasini hisoblashda Moliyviy hisob bilan soliq hisobida har xil usullarning qo‘llanishidir.

Misol: «FARM GLASS» qo‘shma korxonasiga asosiy vosita (engil avtomobil) 2005 yil dekabrda qabul qilindi. Uning qiymati 24 000 000 so‘m. Foydalanish muddati 5 yil, amortizatsiyaning me’yori 20 foiz. Soliq solish maqsadi uchun amortizatsiya me’yori hisob siyosatida 12 foiz belgilangan. 2006 yil uchun amortizatsiya summasi va vaqtinchalik farq hisoblansin.

3– jadval

«FARM GLASS» qo‘shma korxonasida asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmasini hisoblashda vaqtinchalik farqni hisoblash. (so‘mda)

T/r	Ko‘rsatkichlar	Buxgalteriya hisobi maqsadi uchun	Foyda solig‘i bazasini aniqlash maqsadi uchun
1	**Asosiy vositaning (engil avtomobil) boshlang‘ich qiymati**	**24 000 000**	**24 000 000**
2	**2009 yil uchun amortizatsiya summasi**	**2 880 000**	**4 800 000**
3	**2010 yil yanvar holatiga asosiy vositaning qoldiq qiymati**	**21 120 000**	**19 200 000**

3-jadvalga asosan Buxgalteriya Moliyviy hisob bo‘yicha amortizatsiya 2 880 000 so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, soliq bazasini aniqlash maqsadi uchun esa - 4 800 000 so‘mni tashkil qildi.

Vaqtinchalik farq:

4 800 000 – 2 880 000 = 1 920 000 so‘m

Kechiktirilgan foyda solig‘i: 2006 yilda foyda solig‘ining stavkasi 12 foiz.

1 920 000 x 12% : 100 = 230 400 so‘m

Yuqoridagi hisob-kitoblarga asosan vaqtinchalik farqlar Moliyviy hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

DEBET: schyot 0950 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» - 230 400 so‘m

KREDIT: schyot 6410 «Byudjet to‘lovlar bo‘yicha qarz turlari bo‘yicha» - 230 400 so‘m

Keyinchalik, ya’ni har oyda soliqning tegishli qismi uzoq muddatli qismdan joriy qismga o‘tkaziladi:

DEBET: schyot 3210 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» - 19 200 so‘m

KREDIT: schyot 0950 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» - 19 200 so‘m

Amaliyotda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatida bu holatlar juda ko‘p bo‘lib, ular summasi katta miqdorni tashkil qiladi. Bu esa foyda solig‘i bo‘yicha soliq bazasini aniqlashda va uning real bo‘lishiga ta’sir qiladi. Lekin amaliyotda ko‘p hollarda buxgalterlar tomonidan doimiy va vaqtinchalik farqlar e’tiborga olinmaydi. Natijada, soliqqa tortiladigan foyda summasi real bo‘lmaydi.

Nazorat uchun savollar.

1. Foyda deganda nimani tushunasiz?
2. Daromad tarkibiga kiradigan elementlar?
3. Soliqqa tortish maqsadida xarajatlar tarkibiga nimalar kiradi?
4. Foyda solig‘ini to‘lovchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni ayting.
5. Doimiy farq nima?
6. Vaqtinchalik farq nima?
7. Foyda solig‘i bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga qanday imtiyozlar beriladi?
8. Eksportiyor korxonalarga foyda solig‘i bo‘yicha qanday imtiyozlar berilgan?
9. Vaqtinchalik farqlar schyotlarda qanday aks ettiriladi?
10. Foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlar schyotlarda qanday aks ettiriladi?
11. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining solig‘ini to‘lovchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni ayting?

Mavzu: Bilvosita soliqlarning hisobi.

REJA.

1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoboti.

2. Aktsiz solig‘i hisobi va hisoboti.

3. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hisobi va hisoboti.

Tayanch so‘zlar:

Aktsiz, qo‘shilgan qiymat solig‘i, harajatlar, boj, tovar aylanma, eksport imtiyoz, soliqlar bo‘yicha imtiyoz, QQS solig‘idan imtiyoz, soliq hisoboti.

1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoboti.

Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va hizmat ko‘rsatish, tovarlarni sotish hamda O‘zbekiston hududiga tovarlarni import kilish jarayonida ular qiymatiga yangi qiymat ko‘shiladi. Bu ko‘shilgan qiymatning bir kismi soliq sifatida byudjet daromadiga olinadi.

Ko‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) bo‘yicha hisobda turgan yoki hisobda turishi shart bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati bilan shugulanuvchi yuridik shaxslar ko‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar hisoblanadi.

Ko‘shilgan qiymat solig‘ining ob’ekti bo‘lib, tovarni (ishlarni, hizmatlarni) realizatsiya va import kilish oboroti hisoblanadi. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi bojxona qonunlarida belgilab ko‘yilgan bojxona rejimiga muvofik Respublika hududiga import qilinadigan tovarlar, ishlar va hizmatlar QQS solinadigan ob’ektlardir. Bojxona qiymati import qilinadigan tovarlarga QQS ni hisoblash uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Realizatsiya bo‘yicha soliq solinadigan oborot mikdori realizatsiya qilinadigan tovarlar, qiymati asosida, qo‘llaniladigan narhlar va tariflardan kelib chikib, aktsiz solig‘ini hisobga olgan holda ularga QQSni kiritmasdan belgilanadi.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan oborot mikdoriga bojxona qiymati bilan bir katorda bojxona to‘lovi mikdori va aktsiz solig‘i mikdori kiritiladi.

Import qilingan xom ashyo bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i Soliq kodeksining 39-bobiga muvofiq hisobga kiritiladi. Uni amalga oshirish uchun Soliq kodeksining 218-moddasining quyidagi talablariga rioya etish kerak:

- xom ashyodan soliq solinadigan oborot, shu jumladan nol darajali stavka bo‘yicha oborot maqsadlarida foydalaniladi;
- QQS byudjetga to‘lanadi. Agar import qilingan tovarlarga soliq to‘lashdan ozod qilish tarzida maqsadli imtiyoz berilgan bo‘lsa, QQS ham hisobga qabul qilinadi;
- import qilingan xom ashyo va materiallardan nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan eksport mahsulotini ishlab chiqarishda foydalanilganida eksport mahsulotiga chet ellik xaridor haq to‘laganligini tasdiqlaydigan bank ko‘chirmasi mavjud.

Mamlakat ichida sotiladigan mahsulot ishlab chiqarish uchun xom ashyo import qilinganida QQS amalda byudjetga to‘langan hisobot davrida hisobga kiritiladi.

Eksport mahsuloti (nol darajali stavka bo‘yicha QQS solinadigan) ishlab chiqarish uchun import xom ashyosidan foydalanilganida olib kirish chog‘ida to‘langan QQS valyuta tushumi korxonaning hisob-kitob raqamiga kelib tushgan davrda mahsulot realizatsiyasidan kelib tushgan ulushida hisobga qabul qilinadi.

MISOL. QQS to‘lovchi korxona mamlakat ichida va eksportga realizatsiya qilinadigan mahsulot ishlab chiqaradi. Uni ishlab chiqarish uchun xom ashyo keltirilib, uni bojxonada rasmiylashtirishda 12 500 ming so‘m QQS to‘langan.

Xom ashyo olib kirilganida korxonada uning xarajatini eksportga va ichki bozorda realizatsiya qilinadigan mahsulot bo‘yicha alohida hisob-kitob qilish imkoniyati mavjud bo‘lmagan. Hisobot davrida realizatsiya hajmi quyidagilarni tashkil qildi:

ichki bozorga - 48 100 ming so‘m, shu jumladan 8 016,7 ming so‘m QQS;

eksportga - 35 200 ming so‘m (QQSning nol darajali stavkasi). Bunda kontraktning umumiy summasidan 40% valyuta tushumi kelib tushgan.

Xarid qilingan import xom ashyosidan quyidagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda foydalanilgan:

ichki bozorda realizatsiya qilingan mahsulot - 18 000 ming so‘mga, QQS - 3 600 ming so‘m;

eksport qilinadigan - 15 100 ming so‘m, QQS - 3 020 ming so‘m.

Hisobot davrida quyidagi tarzda hisobga qabul qilinadi:

ichki bozorda realizatsiya qilingan mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilgan import xom ashyo bo‘yicha QQS summasi - 3 600 ming so‘m;

eksport qilingan mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilgan, olib kirilgan xom ashyo bo‘yicha QQS summasi (kelib tushgan valyuta tushumidan ulushda) - 1 208 ming so‘m (3 020 x 40%).

QQS 20 foiz stavka bo‘yicha to‘lanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha ijtimoiy ahamiyatga molik ayrim ozik-ovkat tovarlari bo‘yicha QQS 10 foiz stavkada to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining 71 va 72-moddalarida QQS bo‘yicha imtiyozlar berilgan.

Byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan QQS realizatsiya qilingan tovarlar uchun hisoblab chiqarilgan QQS summasi bilan qiymatni ishlab chiqarish va muomala harajatlariga quyiladigan tovarlar uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan QQS summasi o‘rtasidagi farq sifatida belgilanadi.

Import qilinadigan tovarlarga QQS summasi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

SQQS = (St + Pip + As)/N, bunda

St - import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymati;

Pip – bojxona to‘lovi mikdori;

As – aktsiz solig‘i mikdori;

N - QQS - stavkasi foiz hisobida.

Soliq to‘lovchi QQS bo‘yicha tasdiqlangan shakldagi hisob-kitoblarni ortib boruvchi yakun bilan soliq yuzasidan har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay va yil yakuni bo‘yicha yillik Moliyviy hisobotini topshirish muddatida takdim etadi.

Soliq to‘lovchi soliqni hisob-kitoblar takdim etiladigan kundan kechiktirmay tegishli davr(oy) uchun realizatsiya bo‘yicha amaldagi oborot asosida to‘laydi.

Tovarlarni import kilish chogida QQS bojxona deklaratsiyasi kabul qilinishidan oldin yoki bir vaktda to‘lanadi. Iport qilinayotgan ishlar va hizmatlar bo‘yicha QQS ishlar va hizmatlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida hisoblab chiqariladi va import kiluvchi tomonidan yozilgan to‘lov kog‘ozi asosida to‘lanadi.

Hisobga kiritiladigan summa hisoblab yozilgan soliq summasidan oshib ketganda *(bundan keyin - QQS bo‘yicha oshib ketish)* QQSni hisobga kiritish va qaytarish tartibi Soliq kodeksi ning 41-bobida belgilangan. Unda:

- hisobga qabul qilingan QQS summasi 20%lik stavkada soliq solinadigan oborotlar bo‘yicha hisoblab yozilgan QQSdan ko‘p bo‘lgan hollarda;

- soliqning nol darajali stavkasini qo‘llash natijasida.

20%lik stavka bilan soliq solinadigan oborotlar bo‘yicha hisoblab yozilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i bobida oshib ketgan summani hisobga kiritish va qaytarish tartibini belgilaydigan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud emas.

QQSning nol darajali stavkasini qo‘llaydigan korxonalar uchun nazarda tutilgan QQSni hisobga kiritish va qaytarish tartibi Soliq to‘lovchilarga nol darajali stavkani qo‘llash natijasida hosil bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘ining ortiqcha summasini qaytarish to‘g‘risidagi nizomda *(MV va DSQning AV tomonidan 2008 yil 16 mayda 1807-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan)* batafsil tushuntirilgan.

Ishlab chiqarish korxonasi 2001 yilning yanvar oyida quyidagi harajatlarni amalga oshiradi:

1. Mol etkazib beruvchilardan 280000 so‘mga hom ashyo va materiallar olindi, shundan QQS summasi 56000 so‘mni tashkil etgan.

Debet 1010 «Hom ashyo va materiallar» 280000 so‘m
4510 «Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar» 6000 so‘m
Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 336000 so‘m

2. Ijara harajatlari uchun 20000 so‘m ko‘chirib berildi, shundan QQS 4000 so‘mni tashkil etadi.

Debet 2510 «Umumishlab-chiqarish harajatlari» 20000 so‘m
4510 «Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar» 4000 so‘m
Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 24000 so‘m

3. Telejamg‘armaan foydalanganlik uchun 5000 so‘m to‘chirib berildi, shundan QQS 1000 so‘mni tashkil etadi.

Debet 2510 «Umumishlab-chiqarish harajatlari» 5000 so‘m
4510 «Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar» 1000 so‘m
Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 6000 so‘m

4. Kommunal hizmat harajatlari uchun 3000 so‘m berildi, shundan QQS 600 so‘mni tashkil etadi.

Debet 2510 «Umumishlab-chiqarish harajatlari» 3000 so‘m
4510 «Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar» 600 so‘m
Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 3600 so‘m

5. Shaxsiy ho‘jalikdan yordamchi materiallar sotib olindi 8000 so‘m.

Debet 1090 «Boshqa materiallar» 8000 so‘m
Kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablaglari»8000so‘m

Tayyor mahsulotlarni sotishdan 480000 so‘m daromad olindi.

$$QQS = \frac{480000/20}{100+20} = 80000 \text{ so‘m}$$

Hisoblangan QQS summasiga buxgalteriyada quyidagi buxgalteriya yozuvi kayd etiladi.

Debet 9010 «Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadlar» 80000 so‘m
Kredit 6412 «QQS ning byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik» 80000 so‘m

Byudjetga to‘lanadigan yoki byudjetdan olinadigan summa o‘zaro Hisob-kitob yo‘li bilan aniqlanadi.

4510 schyot bo‘yicha 5600 + 4000 + 1000 + 600 = 61600 so‘m

6412 schyot bo‘ycha 80000 so‘m, farq 80000 – 616000 = 18400 so‘m byudjetga to‘langach quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi.

Debet 6412 «QQS ning byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik» 18400 so‘m
Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 18400 so‘m
Material sotib olinganda QQS summasi:
Debet 4410-«Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lolvri»
Kredit 6010-«Mol etkazib beruvchilarga to‘lanadigan schyotlar»
Hisobot ohirida QQS summasi 6410 hisobvaraq debitiga o‘tkaziladi:
Debit 6410-«Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qazdorlik»
Kredit 4410-«Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari»
Sotilgan mahsulot qiymatiga:
Debit-4010 «Haridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar»
Kredit 9010-«Realizatsiya» hisobvarag‘i
QQS byudjetga o‘tkazilganda:
Debit 6410-«Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik»
Kredit 5110-«Hisob-kitob»schyoti.

Ishlab chiqarish korxonasi 2010 yilning yanvar oyida quyidagi harajatlarni amalga oshirdi:

Mol etkazib beruvchilardan 280000 so‘mga hom-ashyo va materiallar olindi, shundan QQS summasi 56000 so‘mni tashkil etadi.

Debet 1010 «Hom ashyo va materiallar» 280000
4510 «Soliqlar bo‘yicha bunak to‘lovlari» 56000 so‘m
Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 336000 so‘m

2. Tayyor mahsulotlarni sotishdan 480000 so‘m daromad olindi.


QQS = 480000h20 = 80000 so‘m
100+20

Hisoblangan QQS summasiga buxgalteriyada quyidagi buhalteriya yozuvi kayd etiladi.

Debit-4010 «Haridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» 480000
Kredit 9010-«Realizatsiya» hisobvarag‘i 480000

Debet	Kredit	∑
6410-3202	5110	24000 so‘m.

QQSni hisoblash tartibi va to‘lanishi



1. Material sotib olinganda QQS summasi hisoblanishi
2. Hisobot ohiridagi QQS summasi 6410- hisobvaraqqa debitga o‘tkazyapdi.
3. Sotilgan mahsulot qiymati.
4. QQS byudjetga to‘lanish.
5. Ko‘rsatilgan hizmat uchun QQS hisoblandi.

STIR | | | | | | | | | varaq | 0 | 2 |

Qo‘shilgan qiymat solig‘i hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Summa
1	2	3
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) summasi (2-ilovaning 050-satri)	010	2 017 578 932,05
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo‘yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi (3-ilovaning 050-satri)	020	----------
Hisobga olinadigan jami QQS summasi (010-satr + 020-satr)	030	2 017 578 932,05
Tovarlarni (ishlarni, hizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo‘yicha QQS summasi (4-ilovaning 010-satr 4-ustun)	040	2 242 969 077,40
Byudjetga to‘lanadigan (kamaytiriladigan) QQS summasi (040-satr – 030-satr)	050	225 390 145,35

Qo‘shilgan qiymat solig‘i hisob-kitobiga 1-ilova

STIR | | | | | | | | | Varaq | | |

Hisobga olinadigan QQS Hisob-kitobi uchun foydalaniladigan olingan tovarlar (ishlar, hizmatlar) bo‘yicha QQS summasi

Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Qiymat	QQS summasi
1	2	3	4
QQS summasi hisobga olinishi mumkin bo‘lgan tovarlar (ishlar, hizmatlar) (7-ilovaning 5 va 6-ustunlari yakuniy summalari)	010	10 087 894 660,26	2 017 578 932,05
Hisobga olinadigan QQS summasiga tuzatish kiritish:		H	H
umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga, shu jumladan yagona soliq to‘lovchisi tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘ini ihtiyoriy ravishda to‘lashga o‘tilganda, shuningdek imtiyoz bekor qilinganda QQS to‘lash bo‘yicha majburiyat yuzaga kelganda tovarlarning (ishlarning, hizmatlarning) qoldiqlari bo‘yicha	020	----------	----------
soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga (qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lamaydiganlar toifasiga) o‘tganda, shu jumladan imtiyozlar	030	----------	----------

tadbiq etilganda, tovar (ishlar, hizmatlar) qoldiqlari bo‘yicha			
Hisobga olinadigan QQS summasi hisob-kitobi uchun foydalaniladigan olingan tovarlar (ishlar, hizmatlar) bo‘yicha QQS summasi (010-satr + 020-satr – 030-satr)	040	10 087 894 660,26	2 017 578 932,05

Qo‘shilgan qiymat solig‘i hisob-kitobiga 2-ilova

STIR | | | | | | | | | varaq | 0 | |

Hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Har bir oborotning realizatsiya bo‘yicha jami oborotdagi salmog‘i*	Realizatsiya bo‘yicha oborot summasi	QQS
1	2	3	4	5
Tovar (ish, hizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum, jami (Moliyviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot - 2-sonli shaklning 010-satri)	010	100%	11 214 845 387,00	h
shu jumladan:				h
20 foizli stavka qo‘llaniladigan	0101	100%	11 214 845 387,00	h
0 foizli stavka qo‘llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari)	0102	----------	----------	h
0 foizli stavka qo‘llaniladigan tovarlar eksporti:	0103	h	h	h
chet el valyutasida	01031	h	----------	h
jo‘natish kuniga O‘zR Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valyutadagi ekvivalentda	01032	----------	----------	h
valyuta tushumi kelib tushishi (chet el valyutasida)	01033	h	----------	h
kelib tushgan chet el valyutasining salmog‘i (01033-satr / 01031-satr h 100)	01034	----------	h	h
soliq solinmaydigan tushum	0104	----------	----------	h
Hisobga olinadigan QQS summasi hisob-kitobi uchun foydalaniladigan olingan tovarlar (ishlar, hizmatlar) bo‘yicha QQS summasi (1-ilovaning 040-satri)	020	h	h	2 017 578 932,05
Olingan va realizatsiya bo‘yicha oborotlar uchun ishlatiladigan tovarlar (ishlar, hizmatlar) bo‘yicha	030	h	h	----------

QQS summasi (alohida-alohida yuritiladigan hisob bo‘yicha)				
shu jumladan:		h	h	
20 foizli stavka qo‘llaniladigan oborotlar uchun	0301	h	h	----------
0 foizli stavka qo‘llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun	0302	h	h	----------
0 foizli stavka qo‘llaniladigan tovarlarning chet el valyutasidagi eksporti uchun	0303	h	h	----------
qo‘shilgan qiymat solig‘i solinmaydigan oborot uchun	0304	h	h	----------
Olingan va realizatsiya bo‘yicha oborotlar uchun ishlatiladigan tovarlar (ishlar, hizmatlar) bo‘yicha QQS summasi (mutanosib usul bo‘yicha) (020-satr – 030-satr)	040	h	h	2 017 578 932,05
shu jumladan:		h	h	
20 foizli stavka qo‘llaniladigan oborotlar uchun (040-satr h 0101-satr)	0401	h	h	2 017 578 932,05
0 foizli stavka qo‘llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun (040-satr h 0102-satr)	0402	h	h	----------

Qo‘shilgan qiymat soliqni hisoblab chiqarish tartibi. Soliq solinadigan oborotlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq solinadigan oborot bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan ushbu Kodeksning 218-moddasiga muvofiq hisobga olinadigan soliq summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Tovarlarni import qilish bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobda turgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik Moliyviy hisobot topshirilgan muddatda;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan - har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa - yillik Moliyviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchilar, bundan kredit va sug‘urta tashkilotlari mustasno, qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha hisobvaraq-fakturalar reestrini taqdim etadi. Hisobvaraq-fakturalar reestrining shakli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

2. Aktsiz solig‘i va hisoboti.

Bozor iktisodiyoti sharoitida tovarlar inson ehtiyojini kondirishiga karab ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga inson ehtiyoji uchun har kuni iste’mol qiladigan tovarlardir. Ikkinchi guruh aholi ehtiyoji uchun zarur bo‘lmagan tovarlardir. Inson ehtiyoji uchun uncha zarur bo‘lmagan tovarlarning ba’zi turlariga aktsiz solig‘i belgilanadi.

Bular jumlasiga arok, vino, konyak, pivo, tomaki mahsulotlari, neft mahsulotlari, paxta yogi, gilam va gilam buyumlari, tabiiy gaz, hrustal buyumlar, mebel, oltin, video va audio tehnika va boshqa tovarlar kiradi. Mulk shaklidan kat’iy nazar, bunday tovarlarni ishlab-chiqaruvchi va sotuvchi korxonalar, kompaniyalar aktsiz solig‘i to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadi.

Aktsiz solig‘iga to‘lovchilari kimlar bo‘lishi, soliq solish ob’ekti, bazasi, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish sanasi, soliqdan chegirmalar Soliq kodeksining 8-bo‘limi bilan tartibga solinadi.

Quyidagi yuridik va jismoniy shaxslar aktsiz solig‘i to‘lovchilar hisoblanadilar:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida aktsiz solig‘i solinadigan tovarlar (aktsiz to‘lanadigan tovarlar) ishlab chiqaruvchilar;
- O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga aktsiz to‘lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;
- aktsizli tovarni ishlab chiqarishda oddiy shirkat ishlarini yuritish vazifasi yuklangan oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Soliq solish ob’ekti vujudga keladigan korxonalar va jismoniy shaxslargina aktsiz solig‘i to‘lovchilar hisoblanadi. Aktsiz solig‘i solinadigan ob’ektlar ro‘yxati SKning 230-moddasi bilan belgilangan.

Aktsiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo‘yicha O‘zR Prezidentining qaroriga asosan, aktsiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarmaydigan shaxs (masalan, «Djeneral Motors O‘zbekiston» YoAJ dilerlari) aktsiz solig‘i to‘lovchi qilib belgilanishi mumkin.

Aktsiz solig‘i solinadigan tovarlar aktsiz to‘lanadigan tovarlar hisoblanadi. Aktsiz to‘lanadigan tovarlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishda soliq solish ob’ekti yuzaga kelgan hollarda aktsiz solig‘i to‘lovi bo‘yicha majburiyat paydo bo‘ladi.

Soliq solish ob’ektini to‘g‘ri aniqlash uchun aktsiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxatini ham, soliq solinadigan operatsiyalar turlarini ham bilish zarur.

Ishlab chiqarishda quyidagilar aktsiz solig‘i solinadigan tovarlar hisoblanadi: etil spirti; vino; konyak, aroq va boshqa spirtli mahsulotlar; pivo; o‘simlik (paxta) yog‘i; sigaretalar; zargarlik buyumlari; «Djeneral Motors O‘zbekiston» YoAJ ishlab chiqargan avtomobillar; kumushdan tayyorlangan oshxona anjomlari; qimmatbaho metallar; neft mahsulotlari (benzin, dizel yonilg‘isi, aviakerosin); tabiiy gaz; suyultirilgan gaz; paxta-tola.

Soliq solinadigan baza har bir aktsiz to‘lanadigan tovar turi bo‘yicha alohida belgilanadi.

MISOL. Korxona turli markali vino va aroq ishlab chiqaradi. 2012 yilning hisobot davrida 10 ming dal aroq (etil spirti ulushi 40%dan ortiq) va 2 ming dal vino realizatsiya qilingan.

Aktsiz solig‘i summasi realizatsiya qilingan aroq va vino dallari miqdorini tegishli soliq stavkasiga ko‘paytirish orqali aroq va vino bo‘yicha alohida-alohida hisoblab

chiqariladi.

Etil spirti ulushi 40%dan ortiq hajmli 10 ming dal aroqni realizatsiya qilishda aktsiz solig‘i stavkasi 1 dal tayyor mahsulot uchun 35 921 so‘m miqdorda belgilanadi, hisoblab yozilgan aktsiz solig‘i summasi (spirt bo‘yicha aktsiz solig‘i hisobga kiritilmagan) 359 210 ming so‘mni (35 921 x 10 000) tashkil qiladi.

Vino bo‘yicha aktsiz solig‘i stavkasi 1 dal tayyor mahsulot uchun 4 981 so‘mga teng, hisoblab yozilgan aktsiz solig‘i summasi (hisobga kiritilmagan) 9 962 ming so‘mni (2 000 x 4 981) tashkil qiladi.

Shuningdek, 2012 yilning 1 yanvaridan boshlab PQ-1675-son qarorning 6-bandi bilan zargarlik buyumlari bilan savdo qiladigan chakana savdo tarmoqlariga aktsiz solig‘i joriy etildi. Jumladan chakana savdo tarmog‘ida realizatsiya qilinadigan, tilladan yasalgan zargarlik buyumlariga, chakana savdo korxonalariga, tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lsa, xarid qilingan tilladan yasalgan zargarlik buyumlariga ular to‘lagan aktsiz solig‘ini chegirish huquqini bergan holda, zargarlik buyumining 1 grammi uchun 10 AQSh dollariga ekvivalent miqdorda aktsiz solig‘i joriy qilingan.

MISOL. Zargarlik buyumlari bilan savdo qiluvchi savdo do‘koni 2012 yilning 21-30 yanvar kunlarida 35 gr zargarlik buyumlarini sotdi. Import qilinganda to‘langan aktsiz solig‘i summasi 140 AQSh dollarini (AQSh dollarining ushbu paytdagi kursi 1 760 so‘mga teng bo‘lgan) tashkil qiladi. Bu erda yanvar oyining uchinchi dekadasi uchun byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan summa quyidagicha aniqlanadi.

3 fevraldagi AQSh dollari so‘mga nisbatan, faraz qilaylik, 1 795 so‘mni tashkil qilmoqda.

Byudjetga hisoblanadigan: 35 gr x 10 AQSh dollari = 350 AQSh dollari = 628 250 so‘m.

Hisobga olinadigan aktsiz solig‘i summasi: 140 AQSh dollari = 246 400 so‘m.

Byudjetga to‘lanishi lozim summa: 628 250 - 246 400 = 381 850 so‘mni tashkil qiladi.

Quyidagi operatsiyalar aktsiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishda aktsiz solig‘i solish ob’ekti hisoblanadi:

1) aktsiz to‘lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:

- tovar savdo-sotig‘i (yuklab jo‘natilishi);
- garov bilan ta’minlangan (kafolatlangan) majburiyat ijro etilmagan taqdirda, garovga qo‘yuvchi tomonidan garovga qo‘yilgan aktsiz to‘lanadigan tovarlarning berilishi;
- aktsiz to‘lanadigan tovarlarning tekinga berilishi;
- aktsiz to‘lanadigan tovarlarning ish beruvchi tomonidan, qonun bilan ko‘zda tutilgan hollarda, yollanma xodimga ish haqi hisobiga yoxud yuridik shaxs muassisi (ishtirokchisi)ga hisoblab yozilgan dividendlar hisobiga berilishi;
- aktsiz to‘lanadigan tovarlarning boshqa tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga ayirboshlash orqali berilishi.

Aktsiz to‘lanadigan tovarlarning bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga tekinga va/yoki pullik asosda egalik huquqiga o‘tkazilishi, shuningdek ulardan mahsulot bilan to‘lovda foydalanish aktsiz to‘lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, deb e’tirof etiladi. Garov bo‘yicha majburiyatlar bajarilmaganda aktsiz to‘lanadigan tovarlar - garov predmetlarining berilishi, shuningdek aktsiz to‘lanadigan tovarlarning boshqa tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga ayirboshlash orqali berilishi ham realizatsiya qilish hisoblanadi.

Aktsiz solig‘i stavkalari mutlaq summada (qat’iy) belgilangan aktsiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza aktsiz to‘lanadigan tovarlarning mahsulot bilan ifodalangan hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Masalan, tamaki mahsulotlari bo‘yicha aktsiz solig‘i stavkasi 1 000 donaga, o‘simlik (paxta) yog‘i bo‘yicha - 1 tonnaga belgilangan, ya’ni

aktsiz solig‘i summasi = soliq miqdori + soliq stavkasi.

MISOL. Zargarlik zavodi aktsiz solig‘i va QQS hisobga qabul qilinmagan holdagi qiymat bo‘yicha, umumiy summasi 120 000 ming so‘mga teng oltin buyumlar turkumini realizatsiya qildi. Aktsiz solig‘i stavkasi 25%ni tashkil qiladi.

Aktsiz solig‘i summasi 30 000 ming so‘mga (120 000 x 25%), QQS summasi - 30 000 ming so‘mga [(120 000 + 30 000) x 20%] teng bo‘ladi;

2) aktsiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav jamg‘armasi (ustav kapitali)ga hissa yoki pay badali sifatida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sherik (ishtirokchi) hissasi sifatida berish.

Aktsiz to‘lanadigan tovarlarni boshqa tashkilotning ustav kapitaliga hissa sifatida berishda soliq solinadigan baza tegishli tashkilot muassislari (ishtirokchilari) o‘rtasida muvofiqlashtirilgan hissa qiymati bo‘yicha belgilanadi.

MISOL. Zargarlik zavodi 20 martda o‘z mahsulotlarining bir qismini vositachilik shartnomasi bo‘yicha realizatsiya qilish uchun berdi. Vositachi (komissioner) komitent mahsulotining bir qismini 15 mayga kelibgina realizatsiya qildi (aprelda realizatsiya qilinmagan).

Aktsiz solig‘i solish maqsadida realizatsiya qilingan sana deb 15 may e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchida soliq solinadigan bazani tuzatish quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- tovar to‘liq yoki qisman qaytarilganda;
- shartnoma shartlari o‘zgartirilganda;
- qiymatlar o‘zgartirilganda, xaridor chegirmadan foydalanganda.

Soliq solinadigan bazani tuzatish bir yil muddat doirasida amalga oshiriladi.

Misol. Ishlab chiqaruvchi korxona 100% oldindan to‘lov shartlarida 18 576 ming so‘mga avtomobilni realizatsiya qildi, shu jumladan aktsiz solig‘i - 3 480 ming so‘m, QQS - 3 096 ming so‘mni tashkil qildi. Avtomobilning zavodda belgilangan qiymati - 12 000 ming so‘m.

Avtomobildan foydalanish vaqtida uning texnik nosozliklari aniqlandi. Ixtisoslashtirilgan avtoservis tomonidan berilgan ekspertiza xulosalari bo‘yicha avtomobilni ta’mirlab bo‘lmaydi. Xaridor, shartnomaning bunday holatlarda avtomobilni qaytarish mumkinligi to‘g‘risidagi bandiga tayanib, uni xarid qilingandan so‘ng 20 kundan keyin qaytardi.

Avtomobil xaridor tomonidan qaytarilganda korxona foyda solig‘i *(SK, 131-modda)*, QQS *(205-modda)* va aktsiz solig‘i *(233-modda)* bo‘yicha soliq solinadigan baza tuzatilishi lozim.

Avtomobilning qaytarilishi va bilvosita soliqlarni tuzatish hisobda quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

N	*Xo‘jalik operatsiyasining mazmuni*	*Summa, ming so‘m*	*Schyotlar korrespondentsiyasi*	
			debet	*kredit*
1	Xaridor tomonidan avtomobilning qaytarilishi aks ettirilgan	12 000 6 576	9040 4010 2810	4010 5110 9110
2	9040 schyotining yopilishi	12 000	9010	9040
3	QQSni tuzatish aks ettirilgan	3 096	6410 4010	4010 5110
4	Aktsizni tuzatish aks ettirilgan	3 480	6410 4010	4010 5110

QQS va aktsiz solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazani tuzatish summasiga qo‘shimcha hisobvaraq-faktura tuzilib, u xaridor tomonidan tasdiqlanishi lozim.

MISOL. Korxona 2012 yil 3 martda o‘zi ishlab chiqargan mahsulot birligi - aktsizli tovarni realizatsiya qildi (aktsiz stavkasi 29%). Nosozlik aniqlanganligi bois, 22 martda xaridor tovarni ishlab chiqaruvchiga qaytardi.

Xaridor tomonidan mahsulot qaytarilganda ta’minotchi qo‘shimcha (manfiy) hisobvaraq-fakturani rasmiylashtiradi:

2012 yil «____» _____dagi ___-son tovar-jo‘natish hujjatiga 2012 yil 22 martdagi 111-son
HISOBVARAQ-FAKTURA
(2012 yil 3 martdagi 72-son hisobvaraq-fakturaga qo‘shimcha)

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomi	*O‘lchov bir-ligi*	*Miq-dori*	*Narxi*	*Etkazib berish qiymati*	*Aktsiz solig‘i*		*QQS*		*Etkazib berishning QQS hisobga kiritil-gan qiymati*
					ctav-kasi	*summasi*	*ctav-kasi*	*summasi*	
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*
Mahsulot nomi	dona	-1	12 000 000	-12 000 000	29%	-3 480 000	20%	-3 096 000	-18 576 000
Jami qaytarishga:	O‘n sakkiz million besh yuz etmish olti ming so‘m					-3 480 000		-3 096 000	-18 576 000

Kafolat muddati belgilangan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza kafolat muddati doirasida tuzatiladi.

Aktsiz solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazani tuzatish yuqorida qayd etilgan holatlar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Byudjetga to‘lanadigan aktsiz solig‘i summasi **chegirma (hisob) summasiga** kamaytiriladi. Aktsiz to‘lanadigan tovarlarni xarid qilishda yoki ularni bojxona hududiga import qilishda, mazkur tovarlardan keyinchalik aktsiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida foydalanilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi hududida to‘langan aktsiz solig‘i summasi chegirib qolinadi (soliq hisoboti formalarida «Aktsiz solig‘i bo‘yicha hisobga qabul qilish» atamasi qo‘llaniladi).

Aktsizli tovar (xom ashyo)ni etkazib beruvchilar hisobvaraq-fakturada mazkur tovar (xom ashyo) bo‘yicha aktsiz solig‘i summasini ajratib ko‘rsatishlari lozim. Xarid qilinadigan aktsizli tovar (xom ashyo) bo‘yicha aktsiz solig‘i summasi hisobvaraq-fakturada ajratib ko‘rsatilmagan taqdirda, u chegirib qolinmaydi.

Chegirma hisobvaraq-fakturada yoki BYuDda ko‘rsatilgan, soliq davrida realizatsiya qilingan aktsiz to‘lanadigan tovarlarning hajmiga to‘g‘ri keladigan aktsizli tovar (xom ashyo) hajmidan kelib chiqqan holda belgilangan aktsiz solig‘i summasiga nisbatan amalga oshiriladi.

MISOL. Korxona - aktsiz to‘lanadigan mahsulotni ishlab chiqaruvchi hisobot davrida 3 120 ming so‘mga xom ashyo xarid qildi, shu jumladan aktsiz solig‘i - 600 ming so‘m, QQS - 520 ming so‘mni tashkil qildi. Butun xom ashyodan aktsiz to‘lanadigan mahsulotni ishlab chiqarishda foydalanildi. Soliq davrida 2 880 ming so‘mga tayyor mahsulot turkumi realizatsiya qilindi, shu jumladan aktsiz solig‘i - 400 ming so‘m, QQS - 480 ming so‘mni tashkil qildi. Mazkur turkumni ishlab chiqarish uchun xarid qilingan xom ashyoning 40%idan foydalanildi.

Soliq davrida korxona xarid qilingan xom ashyoning faqat 40%i bo‘yicha, ya’ni faqat realizatsiya qilingan mahsulotni ishlab chiqarishda foydalanilgan xom ashyo bo‘yicha aktsiz solig‘i summasini chegirib qolishi mumkin. Aktsiz solig‘i bo‘yicha chegirma 240 ming so‘mni (600 x 40%) tashkil qiladi. Soliq davrida 160 ming so‘m (400 - 240) byudjetga to‘lanishi lozim.

Daval aktsizli xom ashyo va materiallar egasi tomonidan aktsiz solig‘i to‘langanligi tasdiqlangan taqdirda, daval aktsizli xom ashyo va materiallardan tayyorlangan aktsiz to‘lanadigan tovarlarni berishda ham soliq chegirmasi qo‘llaniladi. Qayta ishlash korxonalariga nisbatan chegirma buyurtmachining xom ashyo va materiallar etkazib beruvchiga to‘langan aktsiz solig‘i ajratib ko‘rsatilgan hisobvaraq-fakturasi asosida qo‘llaniladi (qayd etib o‘tilganidek, aktsizli materiallarning daval asosda qayta ishlashga berilishi aktsiz solig‘i solinadigan oborotga kiritiladi).

Aktsiz solig‘ining stavkalari mutlaq summada (qat’iy) belgilangan aktsiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza aktsiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Aktsiz solig‘i byudjetga oyning aktsiz to‘lanadigan tovar realizatsiya qilingan o‘n kunligi tugagandan keyin uch kundan kechiktirmay o‘tkazilishi lozim. Soliq to‘lovchi aktsiz solig‘i bo‘yicha hisob-kitoblarni soliq organiga har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 20-kunigacha takdim etadi.

Aktsiz to‘lanadigan import tovarlar uchun bojxona haqidagi qonun hujatlariga asosan belgilangan boj qiymati soliq solish ob’ekti hisoblanadi. Aktsiz to‘lanadigan import tovarlar uchun aktsiz solig‘i bojxonada rasmiylashtirilgunga kadar yoki rasmiylashtirish paytida to‘lanadi.

Aktsiz solig‘i buxgalteriya hisobida 6413 «Aktsiz solig‘ining byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorligi» schyotida aks ettiriladi.

Sotilgan mahsulotlarga to‘g‘ri keladigan aktsiz solig‘i summasiga buxgalteriyadv quyidagi buxgalteriya yozuvi rasmiylashtiriladi.

Debet 9010 «Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadlar»
200000 so‘m
Kredit 6413 «Aktsiz solig‘i» 200000 so‘m

Belgilangan muddatda, aktsiz solig‘i summasini korxonalar to‘lov topshiriqnomasiga asosan byudjetga o‘tkazadilar va bu Buxgalteriya hisobida ko‘yidagicha aks ettiriladi:

Debet 6413 «Aktsiz solig‘i» 200000 so‘m
Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 200000 so‘m

Korxonalar aktsiz solig‘ining o‘z vaktida o‘tkazmasalar, qonun asosida tegishli Moliyviy jarima to‘laydilar va mansabdor shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko‘riladi.

Sotilgan mahsulot qiymatiga:
Debit 5110-»Hisob-kitob schyoti»
Kredit 9010-»Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromad»
Aktsiz solig‘i qiymatiga :
Debet 9010-»Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromad»
Kredit 6410-»Byudjet to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlik»
Aktsiz solig‘i byudjetga o‘tkazilganda:
Debet 6410-»Byudjet to‘lovlari bo‘yicha qarzdolik»
Kredit 5110-»Hisob-kitob»schyoti

D-t 5110 K-t		D-t 6410 K-t		D-t 9430 K-t	
		10000 (2)	10000	10000 (1)	10000

1. Aktsiz solig‘i qiymati.
2. Aktsiz solig‘i byudjetiga o‘tkazildi.

Hisob-kitobni taqdim etish tartibi. Aktsiz solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- aktsiz solig‘i to‘lovchilar bo‘lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan - har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Soliq to‘lash tartibi. Ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu Kodeksning 236 va 237-moddalariga muvofiq hisoblab chiqarilgan aktsiz solig‘i summasi byudjetga quyidagi muddatlarda to‘lanadi:

- joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay - joriy oyning birinchi o‘n kunligi uchun;
- joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay - joriy oyning ikkinchi o‘n kunligi uchun;
- kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay - hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha aktsiz solig‘ini to‘lash bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Aktsiz markalari bilan

tamg‘alanishi lozim bo‘lgan import qilinadigan aktsiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha aktsiz solig‘i aktsiz markalari olinguniga qadar to‘lanadi.

Prezidentimizning 2012 yil 16 iyul kuni «Statistik, soliq, Moliyviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 4453-sonli Farmoni asosan 2013 yildan e’tiboran - aktsiz solig‘i hisobotlari barcha soliq to‘lovchi yuridik shaxslar tomonidan chorakda bir marotaba taqdim etilishi belgilandi.

3. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hisobi va hisoboti

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq (bu - iste’mol solig‘i), uning to‘lovchilari, soliq solish ob’ekti, bazasi hamda soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi. Bu masalalar Soliq kodeksining XIV bo‘limi bilan tartibga solinadi.

Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni chakana realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar iste’mol solig‘ini to‘lovchilar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni chakana realizatsiya qilish soliq solish ob’ektidir.

Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning natura holidagi realizatsiya qilingan hajmi soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq masalalari Soliq kodeksining XIV bo‘limida ochib berilgan. Ushbu soliqning to‘lovchilari bo‘lib jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni chakana realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi *(Soliq kodeksi 301-modda).* Bunda jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni chakana realizatsiya qilish soliq solish ob’ekti hisoblanadi. Soliq solinadigan baza sifatida jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning natura holidagi realizatsiya qilingan hajmi olinadi.

Soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2011 yildagi «O‘zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1675-son qarorining 21-ilovasida jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq stavkalari ko‘rsatilgan, xususan transport vositalari uchun 1 kub metr siqilgan gaz uchun 200 so‘m belgilangan.

Yuridik shaxslarga chakana narxlarda chakana savdo tarmog‘i (avtomobillarga yonilg‘i quyish shoxobchalari) orqali benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz sotishda jismoniy shaxslardan transport vositalariga ushbu mahsulotlarni ishlatganlik uchun olinadigan soliq byudjetga qonunchilikda belgilangan tartibda to‘lanadi va sotish narxida hisobga olinadi *(PQ-1675-son qarorning 21-ilovasiga izoh).*

MISOL. Yanvar oyining birinchi o‘n kunligi yakuni bo‘yicha AYoQSh jismoniy shaxslarga 50 000 litr benzin realizatsiya qildi. Bu davr uchun 13 yanvargacha byudjetga to‘lanadigan soliq summasi 10 000 ming so‘mni (50 000 x 200) tashkil qiladi. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi

2012 yil uchun 1 litriga 200 so‘m miqdorida belgilangan. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2011 yildagi PQ-1675-son qarorining 21-ilovasi).

Iste’mol solig‘i soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Iste’mol solig‘i summasi chakana narxga qo‘shimcha ravishda belgilanadi, sotib oluvchiga beriladigan chekda alohida qatorda ko‘rsatiladi hamda jismoniy shaxslardan realizatsiya qilinayotgan benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz uchun mablag‘larni olish bilan bir vaqtda undiriladi.

Soliq summasi quyidagi formula bilan hisoblab chiqariladi:

N = V x St,

bu erda:

N - hisoblangan soliq;

V - jismoniy shaxslarga realizatsiya qilingan benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz hajmi;

St - soliq stavkasi.

Soliq davri, hisob-kitobi va to‘lash tartibi	
Mikrofirmalar va kichik korxonalar	Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar
Yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik Moliyviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi	Har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik Moliyviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi
Soliqni to‘lash jismoniy shaxslarning transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz chakana realizatsiya qilingan oyning o‘n kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kunidan kechiktirmay, yoqilg‘i quyish shoxobchasi joylashgan erda har o‘n kunda amalga oshiriladi	

Prezidentimizning 2012 yil 16 iyul kuni **«Statistik, soliq, Moliyviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 4453-sonli Farmoni** asosan 2013 yildan e’tiboran - jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hisob-kitobi barcha soliq to‘lovchi yuridik shaxslar tomonidan chorakda bir marotaba taqdim etilishi belgilandi.

MISOL. *Birinchi chorak yakuni bo‘yicha AYoQSh quyidagi ma’lumotlarga ega:*

Ko‘rsat-kichlar	***O‘lchov birligi***	***1-chorak, jami***	***yanvar***			***fevral***			***mart***		
			1-O‘n kunlik	***2-O‘n kunlik***	***3-O‘n kunlik***	***1-O‘n kunlik***	***2-O‘n kunlik***	***3-O‘n kunlik***	***1-O‘n kunlik***	***2-O‘n kunlik***	***3-O‘n kunlik***
Benzin	litr	**29 000**	3 000	2 800	3 400	2 500	3 100	4 000	3 000	4 800	2 400
Dizel yoqilg‘isi	litr	**17 800**	2 400	1 900	1 700	2 000	1 900	1 500	1 800	2 100	2 500
Siqilgan gaz	kub m	**12 800**	1 300	1 700	1 500	1 000	1 600	1 800	1 400	1 500	1 000

Bu erda birinchi o‘n kunlik uchun soliq summasi quyidagicha bo‘ladi:

- benzin bo‘yicha - 600 ming so‘m (3 000 x 200);
- dizel yoqilg‘isi bo‘yicha - 480 ming so‘m (2 400 x 200);
- siqilgan gaz bo‘yicha - 260 ming so‘m (1 300 x 200).

1-chorak uchun soliq summasi:

- benzin bo‘yicha - 5 800 ming so‘m (29 000 x 200);
- dizel yoqilg‘isi bo‘yicha - 3 560 ming so‘m (17 800 x 200);
- siqilgan gaz bo‘yicha - 2 560 ming so‘m (12 800 x 200).

AYoQShlar yagona soliq to‘lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani iste’mol solig‘i summasiga kamaytiradilar.

Soliq hisobini yuritish tartibi. Soliq to‘lovchi realizatsiya qilingan benzin, dizel yoqilg‘isi, gaz hajmini va byudjetga hisoblab chiqarilgan soliq summasining hisobini alohida yuritishi kerak. Buxgalteriya hisobida iste’mol solig‘i hisobi quyidagicha aks ettiriladi:

Xo‘jalik operatsiyasining mazmuni	***Debet***	***Kredit***
Jismoniy shaxslardan transport vositalariga iste’mol solig‘i hisobi	5010-«Milliy valyutadagi pul mablag‘lari»	6411-«Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq»
Jismoniy shaxslardan transport vositalariga iste’mol solig‘i bo‘yicha qarzning yopilishi	6411-«Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq»	5110-«Hisob raqami»

O‘n kunlik to‘lovlarni hisobga olgan holda soliq bo‘yicha hisob-kitoblar AYoQSh joylashgan joydagi soliq organiga taqdim qilinadi.

Iste’mol solig‘i AYoQSh joylashgan joy bo‘yicha to‘lanadi. Soliq mahalliy soliqlar tarkibiga kiritilganligi bois u mahalliy byudjetga to‘lanadi.

AYOQSHDA YAST bazasini kamaytirish tartibi. Soliq kodeksining 356-moddasiga ko‘ra, AYoQSh uchun soliq solinadigan baza benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning AYoQShning belgilangan eng yuqori ustamadan oshadigan chakana narxi bilan olish narxi o‘rtasidagi mahalliy byudjetga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan farq summasiga kamaytiriladi.

Soliq kodeksining Soliq kodeksining 356-moddasi ikkinchi qismining 1-bandiga ko‘ra avtomobilga yonilg‘i quyish shoxobchalarida YaST hisob-kitobida soliq solinadigan yalpi tushum:

benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning AYoQShning belgilangan eng yuqori ustamadan oshadigan chakana narxi bilan olish narxi o‘rtasidagi mahalliy byudjetga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan farq summasiga;

jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga kamaytiriladi.

Mintaqaviy MOLIYA organi tomonidan chakana iste’molchilarga realizatsiya qilinadigan neft mahsulotlarining bir tonnasiga so‘mda belgilanadigan eng yuqori ustama AYoQSh tasarrufida qoladi *(VMning 1.07.2003 yildagi 296-son qarori bilan tasdiqlangan*

Neft mahsulotlari sotuvchi korxonalarning cheklangan ustamalarini shakllantirish to‘g‘risidagi nizomning 11, 12-bandlari). Agar benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning chakana narxi bilan olish narxi o‘rtasidagi farq belgilangan ustamadan oshib ketsa, oshgan summa 3 bank kuni davomida mahalliy byudjetga o‘tkaziladi. Avtomobilga yonilg‘i quyish shoxobchalarida YaST bo‘yicha soliq solinadigan baza ayni shu summaga kamaytiriladi *(bundan keyin - oshgan summa).*

AYoQSh benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moli uchun jismoniy shaxslardan olinadigan soliq to‘lovchisidir. Soliq summasi realizatsiya narxida hisobga olinadi va YaST hisob-kitobi paytida soliq solinadigan yalpi tushumdan ham chegirilishi kerak.

Realizatsiyadan olinadigan yalpi tushum hamda SK 356-moddasi ikkinchi qismining 1-bandiga asosan chegiriladigan summalar buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bo‘yicha belgilanadi.

Yagona soliq to‘lovi hisob-kitobini to‘ldirish chog‘ida boshqacha vaziyat shakllanadi, uning shakli avvalo YaST solinmaydigan summalarni kiritgan holda umumiy yalpi tushumni aks ettirishni nazarda tutadi. Hisob-kitobga zarur ilovalar to‘ldirilganidan keyin esa soliq solinadigan yalpi tushumdan jami chegirmalar summasi (imtiyozlar summasi) belgilanadi.

Chunonchi, Hisob-kitobning 010-»Tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan sof tushum» satri bo‘yicha benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishdan barcha pul tushumlari, shuningdek benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moliga soliq hamda oshish summasini ko‘rsatish kerak. 010-satr ma’lumotlari Hisob-kitobning 040-satri bo‘yicha soliq solinadigan yalpi tushum tarkibida hisobga olinadi.

Soliq solinadigan yalpi tushumdan chegirmalar summasini belgilash uchun Hisob-kitobga 3-»Soliq solinadigan yalpi tushumning kamayishi» ilovasini to‘ldirish lozim, uning 0208-satrida soliq summasi, 0209-satrda esa oshgan summa ko‘rsatiladi. Chegirmalarning umumiy summasi 3-ilovaning 010-satrida aks ettiriladi, YaST hisob-kitobining 0502-satriga ko‘chiriladi va 050-satrda YaST bo‘yicha soliq imtiyozlarining umumiy summasida ko‘rsatiladi.

Shu tariqa, YaST hisob-kitobi shakliga ko‘ra, soliq solinadigan yalpi tushumni (040-satr) imtiyozlar summasiga (050-satr) kamaytirish yo‘li bilan soliq solinadigan baza aniqlanadi (060-satr), u belgilangan stavkaga ko‘paytiriladi va byudjetga to‘lanadigan YaST summasi hisoblab chiqariladi.

Plastik kartochkalarni qo‘llagan holda tovarlarni realizatsiya qiladigan korxonalar YaSTning belgilangan stavkasini 10%ga kamaytirishga haqli. Pasaytirilgan stavka benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moliga soliq hamda oshgan summani chegirgan holda, terminal bo‘yicha to‘lanadigan ulushda to‘lov terminallari orqali olingan tushumga qo‘llanadi.

4. Soliq imtiyozlar hisobi.

Foyda solig‘ining hisobini o‘rganishda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga soliq bo‘yicha imtiyozlar berish masalalari muhim ahamiyatga egadir.

Soliq imtiyozlarini berish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan va qabul qilinmoqda. Berilayotgan imtiyozlarning rag‘batlantiruvchi rolini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori hisoblanadi.

Soliq qonunchiligiga asosan soliq imtiyozlaridan foydalanish, to‘g‘ri hisoblash va maqsadli yo‘naltirishni nazorat qilish soliq xizmati organlari zimmasiga yuklatilgan.

Yuridik shaxslar tomonidan foydalanilgan soliq imtiyozlari miqdori byudjetga undirilgan soliq tushumiga nisbatan o‘rtacha 15,0-15,7%ni tashkil qilmoqda.

2005 yil 24 fevralda tasdiqlangan «Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlar bo‘yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom (yangi tahrirdagi)ga asosan soliq imtiyozlarining buxgalteriya hisobi olib boriladi. Bu Nizomga asosan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga soliqlar va bojxona imtiyozlari:

a) bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo‘naltirish sharti bilan;

b) bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan holda beriladi.

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo‘naltirish sharti bilan soliqlar imtiyozlarining Moliyviy hisobi 8840-«Maqsadli ishlatiladigan soliq imtiyozlari» schyotida soliq imtiyozlarining turlari bo‘yicha olib boriladi.

Soliqlar va bojxona imtiyozlarini hisoblab yozayotganda batafsil hisobga olish maqsadida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar schyotlar rejasidagi quyidagi schyotlarni ochadi:

a) byudjetga bo‘nak to‘lovlarni hisobga olish hisob varaqlari (4400) guruhida «Byudjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari – soliqlar va bojxona imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» schyoti;

b) byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzni hisobga olish hisobvaraqlari (6400) guruhida «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar va bojxona imtiyozlari (turlar bo‘yicha)» schyoti;

v) sug‘urta bo‘yicha va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga olish hisobvaraqlari (6500) guruhida «Davlat maqsadli jamg‘armalarga to‘lovlar – soliq imtiyozlari (turlar bo‘yicha)» schyoti;

g) turli kreditorlardan qarzlarni hisobga olish hisob varaqlari (6900) guruhida «Import chog‘ida QQS va aktsizlar bo‘yicha hisoblab yozilgan soliq imtiyozlari (turlar bo‘yicha)» schyoti.

Yuridik shaxslar tomonidan byudjetga to‘lanadigan soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risida nizomda *(AV tomonidan 2005 yil 2 aprelda 1463-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)* belgilab berilgan. Mazkur Nizomning amal qilishi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va bojxona imtiyozlari berilgan, mulkchilik shaklidan, faoliyat turidan, idoraviy mansubligidan qat’i nazar, respublika hududidagi barcha birlashmalar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalarga taalluqlidir.

Shuni hisobga olish lozimki, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga bu boradagi imtiyozlar bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo‘naltirish sharti bilan yoki ularni maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan holda beriladi.

Xususan, bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan soliqlar va bojxona imtiyozlari berilganda byudjetga to‘lanadigan soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlar mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) hamda boshqa xil mol-mulkning sotish (xarid) qiymatiga hisoblab yozilmaydi va kiritilmaydi.

Imtiyozlar bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo‘naltirish sharti bilan berilganda soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlarni byudjetga hisoblab yozish qonun hujjatlariga muvofiq umumbelgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda soliq imtiyozlari berilgan, byudjetga hisoblangan soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar, to‘lovchi ro‘yxatga olingan joydagi soliq organlariga belgilangan shakllar va muddatlarga muvofiq taqdim etiladi. Mahsulot (tovar, ishlar, xizmatlar) va boshqa aktivlar realizatsiya qilinayotganda soliq solinadigan aylanmaga hisoblangan QQS

(QQS to‘lovchilar uchun) va aktsiz solig‘i (aktsizli tovarlar (mahsulotlar) sotilganda) summasi ajratilgan holda hisobvaraq-faktura yoziladi.

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo‘naltirish sharti bilan soliq va bojxona imtiyozlari berilganda hisoblab yozilgan bojxona to‘lovlari, soliqlar (mazkur soliq to‘lovchilari uchun QQS, shuningdek qonunga muvofiq hisobga qabul qilinadigan aktsiz solig‘idan tashqari) va byudjetga majburiy to‘lovlar qonun hujjatlariga muvofiq umumbelgilangan tartibda mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) hamda boshqa xil mol-mulkning sotish (xarid) qiymatiga kiritiladi.

QQS to‘lovchisi hisoblangan va QQS bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lgan korxonalar xarid qilinadigan (shu jumladan import qilinadigan) tovar-moddiy zaxiralar (tovarlar) bo‘yicha QQS summasini xarid qiymatiga kiritmaydilar, balki umumbelgilangan tartibda byudjetga to‘lanadigan QQSni belgilashda hisobga kiritadilar.

O‘z ehtiyojlari uchun ishlatiladigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobda xarid qilish qiymati bo‘yicha, bunga QQS va aktsiz solig‘i summasi kiritiladi, aks ettiriladi.

Aktsiz solig‘i bo‘yicha imtiyoz berilayotganida qonun hujjatlariga muvofiq hisobga qabul qilinadigan aktsiz solig‘i to‘lovchilari hisoblangan korxonalar xarid qilingan (shu jumladan import qilinayotgan) tovar-moddiy zaxiralar (tovarlar) bo‘yicha aktsiz solig‘i summasini ularning xarid qiymatiga kiritmaydilar, balki umumbelgilangan tartibda byudjetga to‘lanadigan aktsiz solig‘ini aniqlash chog‘ida hisobga kiritadilar.

Soliq va bojxona imtiyozlari miqdori belgilangan tartibda byudjetga hisoblab yozilgan soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Maqsadli vazifalarni bajarishga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan imtiyozlarning buxgalteriya hisobi 8840-»Maqsadli ishlatiladigan soliq imtiyozlari» hisobvarag‘ida, berilgan soliqlar va bojxona imtiyozlarining turlari bo‘yicha yuritiladi.

Soliqlar va bojxona imtiyozlarini hisoblab yozayotganda batafsil hisobga olish maqsadida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar hisobvaraqlarining ish rejasida qu-yidagi hisobvaraqlar ochiladi:

a) byudjetga bo‘nak to‘lovlarini hisobga olish hisobvaraqlari (4400) guruhida «Byudjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari - soliqlar va bojxona imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» hisobvarag‘i;

b) byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzni hisobga olish hisobvaraqlari (6400) guruhida «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz - soliqlar va bojxona imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» hisobvarag‘i;

v) sug‘urta bo‘yicha va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga olish hisobvaraqlari (6500) guruhida «Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar - soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» hisobvarag‘i;

g) turli kreditorlardan qarzni hisobga olish hisobvaraqlari (6900) guruhida «Import chog‘ida QQS va aktsizlar bo‘yicha hisoblab yozilgan soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» hisobvarag‘i.

8840-«Maqsadli ishlatiladigan soliq imtiyozlari» hisobvarag‘ida hisobga olinadigan, soliqlar va bojxona imtiyozlarini berish natijasida bo‘shagan mablag‘lar summalari quyidagi tartibda hisobdan chiqariladi:

a) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy boyliklarni xarid qilishga, kredit va qarzlarni so‘ndirishga, asosiy vositalarni rekonstruktsiya qilish va zamonaviylashtirishga yo‘naltirganda, agar imtiyozli davr ko‘rsatilgan bo‘lsa - muddatlarning eng kami bo‘yicha: imtiyozli davr yoki haqiqatda ishlatish tugaganda, imtiyozli davr ko‘rsatilmagan hollarda esa - har yili:

8840-«Maqsadli ishlatiladigan soliq imtiyozlari» hisobvarag‘i debeti;

8530-«Tekinga olingan mol-mulk» hisobvarag‘i krediti, bunda «Soliqlar va bojxona imtiyozlari» hisobvarag‘i ajratiladi;

b) joriy majburiyatlarning hosil bo‘lishiga (masalan: ish haqining hisoblab yozilishi, ijara, davlat maqsadli jam-g‘armalariga ajratmalar va hokazo) olib keladigan joriy xarajatlarni qoplashga yo‘naltirilganda:

8840-«Maqsadli ishlatiladigan soliq imtiyozlari» hisobvarag‘i debeti;

6010-«Etkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan hisobvaraqlar» yoki 6120-«Shu’ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan hisobvaraqlar» yoxud 6710-«Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» yoki turli kreditorlardan qarzni hisobga olish hisobvarag‘i (6900) krediti yoxud boshqa tegishli hisobvaraqlar.

Shuningdek, soliqlar va bojxona imtiyozlari berilganda bo‘shayotgan mablag‘lar summalari, agar ulardan maqsadli foydalanish nazarda tutilmagan bo‘lsa, buxgalteriya hisobining bank hisobvaraqlarida aks ettirilmaydi va shu munosabat bilan Moliyviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda (2-son shakl) aks ettirilmaydi va, tegishlicha, Moliyviy natijalarni shakllantirishga ta’sir qilmaydi.

Vaqtinchalik soliqlar va bojxona imtiyozlari chog‘ida bo‘shayotgan mablag‘larning lozim darajadagi buxgalteriya hisobini ta’minlash maqsadida, agar ularni maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan bo‘lsa, byudjetga to‘lanadigan har bir soliq turi, bojxona va majburiy to‘lovlar bo‘yicha «Vaqtinchalik soliqlar va bojxona imtiyozlari» alohida balansdan tashqari hisobvaraqlari ochiladi.

Byudjetga to‘lanadigan har bir soliq turi, bojxona va majburiy to‘lovlar bo‘yicha hisoblab yozilgan, bo‘shagan mablag‘lar summasi umumbelgilangan tartibda mazkur hisobvaraqlar debeti bo‘yicha aks ettiriladi.

Imtiyoz berilgan davr tugaganidan so‘ng «Vaqtinchalik soliqlar va bojxona imtiyozlari» balansdan tashqari hisobvaraqlari debetida hisobga olinadigan bo‘shagan mablag‘lar summasi ushbu hisobvaraqlar kreditiga hisobdan chiqariladi.

Doimiy soliqlar va bojxona imtiyozlari chog‘ida bo‘shayotgan mablag‘lar, agar ularni maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan bo‘lsa, byudjetga to‘lanadigan har bir soliq turi, bojxona va majburiy to‘lov bo‘yicha Moliyviy hisobotga tushuntirish xatida ochib beriladi.

PQ-1754-son qarorga binoan 2012 yilning II choragidan boshlab foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovini to‘lash bo‘yicha imtiyozlar imtiyozli xizmat turlarini ko‘rsatishdan olingan tushum umumiy tushum hajmining 80 foizi va undan ortig‘ini tashkil qilishi sharti bilan mikrofirmalar va kichik korxonalarning barcha daromadlariga tatbiq etiladi. Masalan, yagona soliq to‘lovi to‘lovchisi bo‘lgan kichik korxona imtiyozlar belgilangan xizmatlarni ko‘rsatish bilan bir vaqtda savdo faoliyatini ham amalga oshiradi. Xizmatlarni ko‘rsatishdan olingan tushum umumiy tushum hajmining 80 foizi va undan ko‘prog‘ini tashkil qilsa, u holda joriy yilning II choragidan (ya’ni 1 apreldan) boshlab YaSTni to‘lash bo‘yicha imtiyozlar savdodan olingan daromadlarga ham tatbiq qilinadi. Biroq bunda korxona I chorakda savdo faoliyatini amalga oshirgan bo‘lsa, u holda u I chorak uchun savdo faoliyatidan olingan tushum qismida yagona soliq to‘lovini to‘liq miqdorda to‘lashi kerak.

Shuni ta’kidlash kerakki, imtiyozli xizmatlar bilan birga belgilangan mezonga amal qilgan holda (xizmat ko‘rsatishdan olingan tushum umumiy tushumning 80 foizi va undan ko‘prog‘ini tashkil qiladi) boshqa faoliyat turlarini ham amalga oshiradigan hamda tegishli ravishda YaSTni to‘lashdan to‘liq ozod etilgan yagona soliq to‘lovi to‘lovchilariga YaSTni eng kam miqdorni (qat’iy belgilangan soliq yoki er solig‘ining uch

baravari) hisobga olgan holda hisoblab chiqarish va to‘lashning quyidagi hujjatlar bilan nazarda tutilgan tartibi tatbiq etilmaydi:

 Yagona soliq to‘lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan chakana savdo korxonalari, xizmat ko‘rsatish sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yagona soliq to‘lovini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizom *(MV va DSQning AV tomonidan 18.08.2010 yilda 2134-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan);*

 Yagona soliq to‘lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona soliq to‘lovini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizom *(MV, IV va DSQning AV tomonidan 3.03.2011 yilda 2203-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan).*

Imtiyozli xizmatlar hajmi 80 foizdan kam bo‘lgan yuridik shaxslar avvalgidek imtiyozni Ayrim xizmatlarni ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar uchun foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovi bo‘yicha soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomga *(MV va DSQning AV tomonidan 17.07.2006 yilda 1594-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan)* muvofiq imtiyozli xizmatlar hajmigagina qo‘llaydilar.

Soliq imtiyozlarini aks ettirishda Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 2 sentyabrdagi 310-son qarori bilan mehmonxonani rekonstruktsiya qilishga olingan kreditni uzish davrida daromad (foyda), mol-mulk, QQS, er soliqlaridan ozod qilingan. Bunda bo‘shaydigan mablag‘lar to‘laligicha kreditni uzishga yo‘naltiriladi.

Bo‘shaydigan mablag‘larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo‘naltirish sharti bilan soliq imtiyozlarining buxgalteriya hisobi 8840-»Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» hisobvarag‘ida berilgan imtiyozlarning turlari bo‘yicha yuritiladi.

Maqsadli ishlatish sharti bilan hisoblab yozilgan soliqlarni aks ettirish		
operatsiya	***debet***	***kredit***
Realizatsiya qilish oborotlaridan QQS hisoblab yozilgan	4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar»	6410-«Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)»
QQS hisobga qabul qilingan	4410-«Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» 6410-«Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)»	6010-«Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» 4410-«Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)»
Mol-mulk, er soliqlari hisoblab yozilgan	9430-«Boshqa operatsion xarajatlar»	6410-«Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)»
Foyda solig‘i hisoblab yozilgan	9810-«Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar»	6410-«Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)»
Maqsadli foydalanish sharti bilan hisoblab yozilgan soliqlar aks ettirilgan (8840-hisobvaraqqa hisobdan chiqarish)	6410-«Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)»	8840-«Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari»

Soliq imtiyozlari hisoblab yozilayotganda batafsil hisobga olish uchun xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar hisobvaraqlarining ish rejasida soliqning har bir turiga (va unga doir

bo‘nak to‘lovlari)ga alohida hisobvaraqlar ochiladi. Masalan, 6411-«Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz - soliq imtiyozlari (QQS)», 6412-«Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz - soliq imtiyozlari (er solig‘i)» va hokazo.

Korxona bo‘shagan mablag‘lardan kreditni uzish uchun foydalanishi sababli soliq imtiyozlarini hisobdan chiqarish quyidagi provodka bilan aks ettiriladi (1463-son Nizomning 9-bandi):

Kreditlarni uzishga maqsadli foydalanish bilan soliq imtiyozlarini hisobdan chiqarish		
operatsiya	***debet***	***kredit***
Kreditlarni uzish chog‘ida maqsadli foydalangan holda mablag‘lar - soliq imtiyozlarini hisobdan chiqarish aks ettirilgan	8840-«Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari»	8530-«Tekinga olingan mol-mulk - soliq imtiyozlari hisobiga»

Ushbu provodka har yili yoki kreditni uzish muddati tugagach beriladi (biroq kredit shartnomalari bilan belgilangan muddatdan ko‘pga emas).

21-son BHMS uzoq muddatli kreditni uzayotganda qarzning mazkur hisobot davrida to‘lanadigan qismini uzoq muddatli qismidan joriy qismga o‘tkazishni tavsiya qiladi. Buning uchun 6950-«Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi» hisobvarag‘idan foydalaniladi, u 7810-«Uzoq muddatli bank kreditlari» hisobvarag‘i bilan korrespondentsiyada tegishli summaga kreditlanib, bunda majburiyatning boshlang‘ich summasi kamaytiriladi.

MISOL. Korxonaning yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ozod qilingan. Imtiyozni qo‘llash davrida hisoblab yozilgan YaST summasi 122,5 mln so‘mni tashkil etdi.

Uni qo‘llash sharti bo‘lib soliq solishdan bo‘shaydigan mablag‘larni ishlab turgan korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur xom ashyo va materiallarni xarid qilishga, muhandis-texnik xodimlarni rag‘batlantirish va hokazo tadbirlarga maqsadli sarflash hisoblanadi.

Imtiyozli mablag‘lar hisobiga korxona quyidagi maqsadli xarajatlarni amalga oshirdi:

90 000 ming so‘mlik texnologik jihozlar xarid qildi;

30 000 ming so‘mlik materiallar sotib oldi;

xodimlarga mukofot - 1 000 ming so‘m to‘ladi va undan yagona ijtimoiy to‘lov - 250 ming so‘m to‘ladi.

Agar korxona asosiy vositalar ob’ektlari, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy boyliklarni xarid qilsa yoki kredit va qarzlarni uzsa, uzoq muddatli aktivlarni rekonstruktsiya yoki modernizatsiya qilsa**,** foydalanilgan summalar 8530-«Tekinga olingan mulk» hisobvarag‘iga, «Soliq va bojxona imtiyozlari» hisobvarag‘ini ajratgan holda hisobdan chiqariladi. Agar imtiyozli davr belgilanmagan bo‘lsa, bunday provodka har yili beriladi. Uni ko‘rsatish chog‘ida eng kam muddat: imtiyozli davrdan haqiqatda foydalanilgan muddat yoki uning tugash muddati tanlanadi.

Agar korxona ish haqi, ijara, ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar singari joriy xarajatlarni MOLIYAlashga imtiyozli mablag‘lardan foydalansa, 8840-hisobvaraqni tegishli kreditorlarni hisobga olish hisobvaraqlari bilan korrespondentsiyalaydi.

Korxonaning buxgalteriya hisobida maqsadli imtiyozlar, imtiyozlarni qo‘llash natijasida bo‘shagan mablag‘lardan foydalanish va ularni hisobdan chiqarish quyidagi provodkalar bilan aks ettirilishi kerak:

N	***Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni***	***Summa, ming so‘m***	21-son BHMS ***bo‘yicha hisobvaraqlar korrespondentsiyasi***	
			debet	***kredit***
1	Maqsadli imtiyozdan foydalanish chog‘ida hisoblab yozilgan YaST aks ettirilgan	122 500	9820 6411	6411 8840
2	Asbob-uskuna xarid qilingan va foydalanishga joriy qilingan	90 000	0820 0130	6010 0820
3	Materiallar xarid qilingan	30 000	1010	6010
4	Mukofotlar va ular bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lov hisoblab yozilgan (mablag‘lardan maqsadli foydalanish)	1 000 250	8840	6710 6520
5	Asbob-uskuna va materiallarni xarid qilishga yo‘naltirilgan mablag‘lar summalari (90 000 + 30 000) hisobdan chiqarilgan	120 000	8840	8530

Shuni ham hisobga olish lozimki, korxona maqsadli imtiyozlardan foydalanayotganda muayyan maqsaddagi tadbirlarni: ya’ni asbob-uskuna, materiallarni xarid qilishni MOLIYAlashtirish rejasiga (smeta, byudjet va h.k.) ega bo‘lishi kerak. Yillik Moliyviy hisobot bilan birga imtiyoz tufayli bo‘shagan maqsadli mablag‘lardan foydalanilishi to‘g‘risida hisob-kitob taqdim etiladi.

Soliq solish maqsadida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha maqsadli imtiyozlarni qo‘llash hisobiga bo‘shaydigan mablag‘lar byudjetdan subsidiyalar tarzida qaraladi *(Soliq kodeksining 22-moddasi)* va Soliq kodeksi 355-moddasi to‘rtinchi qismining 6-bandiga asosan YaST solish ob’ekti hisoblanmaydi. Tegishincha, 8840-hisobvaraqda hisobga olingan, shuningdek 8530-hisobvaraqqa hisobdan chiqarilgan summalarga yagona soliq to‘lovi solinmaydi.

Soliq qarzini kechiktirib to‘lash tartibi. Soliq qarzini to‘lashni kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash hamda ortiqcha to‘langan soliq summalarini qaytarish qoidalari Soliq kodeksining 9-10-boblari bilan tartibga solinadi**.**

Soliq qarzini to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash vaqtinchalik Moliyviy qiyinchilikka ega bo‘lgan korxonalarga davlat tomonidan yordam ko‘rsatish maqsadida to‘lash muddatini soliq to‘lovchi qarz summasini bir yo‘la yoxud bosqichma-bosqich to‘lagan holda keyinroq muddatga ko‘chirishdan iboratdir.

Soliq qarzini to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish va byudjetga to‘lovlar intizomini

mustahkamlash bo‘yicha respublika Komissiyasi tomonidan bir oydan yigirma to‘rt oygacha muddatga beriladi.

Oxirgi hisobot sanasidagi holatga ko‘ra joriy aktivlar summasining jami 20 foizidan ortiq miqdordagi qo‘shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda Moliyviy sanktsiyalarni undirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan e’tiboran olti oy ichida soliq qarzi oyma-oy bo‘lib to‘langan holda amalga oshiriladi. To‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash soliq qarzining hammasiga yoki uning bir qismiga nisbatan amalga oshirilishi mumkin.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha penya hisoblash ular bo‘yicha qarzni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilish davri boshlanishidan e’tiboran to‘xtatib turiladi.

Soliq qarzini to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish tartibi Byudjet va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni to‘lash muddatini kechiktirish va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkonini berish, penya hisoblashni to‘xtatish, shuningdek penya va jarima sanktsiyalarini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risida nizomga *(AV tomonidan 14.01.2005 yilda 1442-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)* muvofiq belgilanadi. Ushbu qoidalar bojxona to‘lovlarini va davlat bojini to‘lashga tatbiq etilmaydi. Bojxona to‘lovlarini va davlat bojini to‘lashda bu qoidalar bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mavzu: Mol-mulk va resurs soliqlari hisobi.

REJA.

1. Mol-mulk solig‘i hisoboti.

2. Er solig‘i hisobi va hisoboti.

3. Er qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliq hisobi va hisoboti.

4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisobi va hisoboti.

Tayanch so‘zlar:
Mol-mulk, er solig‘i, er qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bonus, soliqlar bo‘yicha imtiyoz, soliq hisobi, soliq hisoboti.

1. Mol-mulk solig‘i hisoboti.

Soliq kodeksining 47-bobida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq masalalari tartibga solinadi.

Mol-mulk solig‘i to‘lovchilar quyidagilar:

- respublika hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo‘lgan yuridik shaxslar - O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) hududda o‘z mulkida ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan yuridik shaxslar - O‘zbekiston Respublikasining norezidentlaridir. Agar ko‘chmas mulk mulkdorining joylashgan erini aniqlash imkoni bo‘lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo‘lsa, shu shaxs soliq to‘lovchi hisoblanadi.

Quyidagilar mol-mulk solig‘i to‘lovchilari bo‘lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, SKda nazarda tutilgan tartibda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilardir;
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Quyidagilar mol-mulk solig‘i solish ob’ektidir:

1) asosiy vositalar, shu jumladan Moliyviy ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar;

2) nomoddiy aktivlar;

3) tugallanmagan qurilish ob’ektlari. Tugallanmagan qurilish ob’ektlari jumlasiga muayyan qurilish ob’ektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, qurilish boshlanganidan e’tiboran 24 oy ichida qurilishi tugallanmagan ob’ektlar kiradi;

4) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar jumlasiga montaj qilinishi talab etiladigan hamda rekonstruktsiya va (yoki) modernizatsiya qilinayotgan ob’ektlarda loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq kapital qo‘yilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi. Loyiha-smeta hujjatlarida asbob-uskunalarni ishga tushirish muddatlari bo‘lmagan taqdirda, buyurtmachi sifatida ish ko‘rayotgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlangan muddatlar soliq solish ob’ektini belgilash

uchun qabul qilinadi, lekin bu muddatlar asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e’tiboran bir yildan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan mamlakatimiz norezidentlari uchun quyidagilar soliq solish ob’ektidir:

O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq doimiy muassasa faoliyati bilan bog‘liq qaysi asosiy vositalar bo‘yicha hisob yuritayotgan bo‘lsa, o‘sha asosiy vositalar;

ushbu doimiy muassasa faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan, mazkur norezidentlarga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk.

Respublikada faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun mamlakatimiz hududida joylashgan, ularga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk soliq solish ob’ektidir. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ O‘zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan mulk qilib olingan (realizatsiya qilingan) ko‘chmas mulk ob’ekti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ushbu ob’ektlar joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organiga ro‘yxatdan o‘tkazilganidan keyin o‘n kun ichida ma’lum qilishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan er uchastkalari va (yoki) nomoddiy aktivlar tarkibida hisobga olinadigan ulardan foydalanish huquqi soliq solish ob’ekti sifatida qaralmaydi.

Soliq solinadigan baza - asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha - asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati hisoblanadi. Ushbu qiymat mol-mulkning boshlang‘ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to‘lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliq solinadigan bazani belgilash tartibi. Soliq solish ob’ektlarining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko‘ra soliq solish ob’ektlarining qoldiq qiymatlarini qo‘shishdan olingan summaning o‘n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

MISOL. Soliq solinadigan mulkning oy oxiriga qoldiq qiymati quyidagilardan iborat:

- 31 yanvar - 2 990 ming so‘m;
- 28 fevral - 2 860 ming so‘m;
- 31 mart - 2 730 ming so‘m;
- 30 aprel - 2 600 ming so‘m;
- 31 may - 2 470 ming so‘m;
- 30 iyun - 2 340 ming so‘m;
- 31 iyul - 2 210 ming so‘m;
- 31 avgust - 2 080 ming so‘m;
- 30 sentyabr - 1 950 ming so‘m;
- 31 oktyabr - 1 820 ming so‘m;
- 30 noyabr - 1 690 ming so‘m;
- 31 dekabr - 1 560 ming so‘m.

Mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati 1-chorak uchun quyidagicha hisoblanadi:

[2 990 + 2 860 + 2 730] / 12 = 715 ming so‘m.

Mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati 1 yarim yil uchun quyidagicha hisoblanadi:

[2 990 + 2 860 + 2 730 + 2 600 + 2 470 + 2 340] / 12 = 1332,5 ming so‘m.

Mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati 9 oy uchun quyidagicha hisoblanadi: [2 990 + 2 860 + 2 730 + 2 600 + 2 470 + 2 340 + 2 210 + 2 080 + 1 950] / 12 = 1 852,5 ming so‘m.

Mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati 12 oy uchun quyidagicha hisoblanadi:

[2 990 + 2 860 + 2 730 + 2 600 + 2 470 + 2 340 + 2 210 + 2 080 + 1 950 + 1 820 + 1 690 + 1 560] / 12 = 2 275 ming so‘m.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining Soliq kodeksi 266-moddasi ikkinchi qismining uchinchi xatboshisida va uchinchi qismida ko‘rsatilgan ko‘chmas mulk ob’ektlari bo‘yicha soliq solinadigan baza mazkur ob’ektlarga bo‘lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Mol-mulk solig‘ini to‘lovchi tomonidan ushbu soliqni to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, soliq solinadigan baza faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy hajmida mol-mulk solig‘ini to‘lash nazarda tutilgan sof tushumning solishtirma salmog‘idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

MISOL. Mol-mulk solig‘i hisoblanadigan asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati 12 000 ming so‘mni tashkil qiladi. Ushbu soliqning yillik hisob-kitobi - 420 ming so‘m. Yillik to‘langan summa - 385 ming so‘m. Dekabr oyida (11-kunida) yangi asbob-uskuna xarid qilinib, ishga tushirilgan. Qayta hisob-kitoblardan keyin yillik o‘rtacha qoldiq qiymat 12 625 ming so‘mni tashkil qildi.

Hisobot yili davomida soliq solish bazasi oshganda mol-mulk solig‘ini to‘lash tartibi quyidagicha bo‘ladi:

hisobot yili uchun o‘rtacha yillik mol-mulk solig‘i 441 875 (12 625 000 x 3,5 / 100) so‘mni tashkil etadi.

Yil yakuni bo‘yicha byudjetga 56 875 (441 875 - 385 000) so‘m qo‘shimcha to‘lov amalga oshirilishi kerak.

Soliq imtiyozlari. Mol-mulk solig‘i hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatiga kamaytiriladi:

- lizingga olingan mol-mulkning, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga;
- ishlab chiqarishga yangi joriy etilgan yangi texnologik jihozlarning, besh yillik muddatga va Soliq kodeksining 26-moddasida ko‘rsatilgan boshqa imtiyozlar.

Mol-mulk solig‘idan quyidagilar ozod qilinadi:

- yangi tashkil etilgan korxonalar - davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran 2 yil mobaynida.
- ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub’ektlarini - yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e’tiboran Soliq kodeksining 26-moddasida ko‘rsatilgan boshqa imtiyozlar.

Soliq davri. Hisobot davri

Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi hisobot davridir.

Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarini taqdim etish va to‘lash tartibi. Mol-mulk solig‘ini hisoblab chiqarish soliq to‘lovchi - O‘zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan SK 267-moddasining birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari *(%da)* (Qarorga 17-ilova)	
Yuridik shaxslar	3,5
O‘zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun, bundan ro‘yxati Prezidentning 1997 yil 10 oktyabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan xom ashyo tovarlari mustasno:*	
sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

**) Belgilangan (me’yoriy) muddatlarda ishga tushirilmagan uskunalar va tugallanmagan qurilish qiymatiga pasaytirilgan stavkalar qo‘llanilmaydi.*

Izoh: Me’yoriy muddatlarda o‘rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig‘i ikki baravar stavkada to‘lanadi.

MISOL. Ishlab chiqarish korxonasi o‘zi ishlab chiqargan mahsulotlarini eksport qiladi va quyidagi ko‘rsatkichlarga ega: hisobot choragi uchun mol-mulk solig‘ini hisoblab chiqarish uchun mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati - 6 000 ming so‘mni; o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni sotishdan sof tushum hisobot davriga - 16 000 ming so‘mni, shu jumladan eksport hajmi - 4 000 ming so‘mni tashkil qiladi.

Hisobot davrida o‘zi ishlab chiqargan mahsulotlarni sotishdan tushumda eksportning hajmi 25% (4 000/16 000 x 100%)ni tashkil qiladi. Shunday qilib, korxona imtiyozdan foydalanish va soliq stavkasini 30%ga pasaytirishga haqli, bunda soliq stavkasi 2,45%ni (3,5 x 70%) tashkil qiladi.

Imtiyozni hisobga olgan korxona hisobot davri uchun mol-mulk solig‘ini 147 (6 000 x 2,45%) ming so‘m miqdorida to‘lashi kerak.

Shunga e’tibor berish kerakki, realizatsiya oborotlari yil davomida o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi. Shuning uchun imtiyozlarni hisobga olib, yakuniy hisob-kitobni yil oxirida qilish mumkin.

Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar har oyda joriy to‘lovlarni to‘laydilar, mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno. Joriy to‘lovlar summasi tegishli yil uchun mol-mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan mol-mulk solig‘i yillik summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida belgilanadi. Joriy to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to‘lovchi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga belgilangan shakldagi ma’lumotnomani joriy yilning 10 yanvarigacha taqdim etadi.

Byudjetga joriy to‘lovlarni to‘lash har oyning 10-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Mol-mulk solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik Moliyviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

To‘lanishi lozim bo‘lgan mol-mulk solig‘i summasi hisob-kitoblarni topshirish uchun belgilangan kundan kechiktirmay byudjetga o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘yicha mol-mulk solig‘ini hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan mamlakatimiz norezidenti doimiy muassasaning soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solinadigan mavjud mol-mulk to‘g‘risidagi ma’lumotnomani hisobot yilidan keyingi yilning 25 yanvaridan kechiktirmay taqdim etishi shart. Taqdim etilgan ma’lumotnoma asosida davlat soliq xizmati organi mol-mulk solig‘i summasi hisob-kitobini o‘n kun ichida amalga oshiradi va to‘lov xabarnomasini yozadi;

Ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlarga soliq solish tartibi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida» PQ-1675-son qarori bilan 2012 yil 1 yanvardan boshlab yuridik shaxslar uchun bir oyda soliq solinadigan eng kam daromadni aniqlash maqsadida ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olinadigan ijara to‘lovining eng kam miqdorlari joriy qilinmoqda.

Ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlarga soliq shartnomada belgilangan ijara to‘lovi summasidan, biroq har yili O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan va O‘zbekiston Respublikasi MOLIYA vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishilgan ijara to‘lovining eng kam stavkalari hisob-kitoblari asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va TOSHKENT shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadigan davlatning ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqining eng kam stavkalaridan kelib chiqib hisoblanadigan soliq summasidan kam bo‘lmagan miqdorda soliq solinadi.

Ko‘chmas mulkni ijaraga berish shartnomasi bilan belgilangan ijara to‘lovi summasi belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalaridan kelib chiqib hisoblab chiqilgan ijara to‘lovi summasidan kam bo‘lgan taqdirda quyidagi soliq turlari bo‘yicha davlatning ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqining eng kam stavkalaridan kelib chiqib qo‘shimcha hisoblash amalga oshiriladi:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- yagona soliq to‘lovi to‘lovchilari uchun - yagona soliq to‘lovi bo‘yicha.

Ko‘chmas mulkni ijaraga berish asosiy faoliyat turi bo‘lgan umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchi yuridik shaxslar uchun yuqorida sanab o‘tilgan soliqlarga qo‘shimcha ravishda byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, Respublika yo‘l jamg‘armasi, byudjetdan tashqari Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar bo‘yicha ham qo‘shimcha hisoblash amalga oshiriladi.

Davlatning ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqining belgilangan eng kam stavkalari bilan yuqorida aytib o‘tilgan soliqlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarishda hisobga olinadigan ko‘chmas mulkni ijaraga berish shartnomasi bilan belgilangan summa o‘rtasidagi ijobiy farq qo‘shimcha hisoblangan summa hisoblanadi.

Soliq solinadigan bazani belgilash uchun buxgalteriya hisobining balans aktivida aks ettiriladigan quyidagi schyotlar bo‘yicha summalar qabul qilinadi.

Soliq solinadigan bazani aniqlash uchun eskirishni chegirib gashlagan holda quyidagi buxgalteriya xisobi schyotlari bo‘yicha balansshshg aktivida joylashgan summalar qabul qilinadi:

0110-0199 - asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar;

0310-«Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar»;

0410-0490 - nomoddiy akgivlarni hisobga oluvchi schyotlar;

0710-0720 - o‘rnatiladigan asbob-uskunalarni hisobga oluvchi schyotlar (me’yordagi muddatlarda o‘rnagilmaganlari bo‘yicha);

0810-«Tugallanmagan qurilish» (belgilangan muddatlarda tugallanmaganlari bo‘yicha).

Korxonaning mol-mulkiga 3,5%li stavka bo‘yicha soliq solinadi. Me’yordagi muddatlarda o‘rnatilmagan va foydalanilmayottan mol-mulk uchun korxona va tashkilotlar mol-mulk solig‘ini ikki karrali stavka bo‘yicha to‘laydilar.

M i s o l. Quyidagi ma’lumotlar mavjud:

	Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati	**Asosiy vositalarning jamg‘arilgan eskirishi**
31 yanvar holatiga	15 000 ming so‘m	5 000 ming so‘m
28 fevral holaxiga	25 000 ming so‘m	7 500 ming so‘m
31 holatiga	25 000 ming so‘m	12 000 ming so‘m

Mol-mulk solig‘ini hisoblash uchun mol-mulkning o‘rtacha yillik qiymati 40 500 ming so‘mni tashkil etadi.

Soliq solinadigan bazani belgilash uchun Buxgalteriya hisobining balans aktivida aks ettiriladigan quyidagi hisobvaraqlar bo‘yicha summalar qabul qilinadi:

0110-0190-«Asosiy vositalar»

0310-«Uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar»

0410-«Nomoddiy aktivlar»

Mulk solig‘i hisoblanganda:


Debit 9430-«Boshqa operatsion harajatlar»

Kredit 6410-«Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik»

Byudjetga o‘tkazilganda:

Debit 6410-«Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik»

Kredit 5110-«Hisob-kitbo schyoti»



1. Mol-mulk solig‘i hisoblanishi.

2. Mol-mulk solig‘i byudjetga to‘lanishi

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga 3,5 foiz stavkasi bo‘yicha soliq solinadi.

Misol: Korxona 2010 yildagi asosiy vositalarining qoldiq qiymati 97396, ming so‘mni tashkil kilgan. Korxona 2010 yil uchun quyidagicha mol-mulk solig‘ini hisoblaydi va byudjntga utkazadi.

Mol-mulk solig‘i = 97396*3,5% = 3408,86 ming so‘m

Soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha joriy to‘lovlarni hisoblash bo‘yicha

MA’LUMOTNOMA

Ko‘rsatkichlar	**Satr kodi**	**Summasi**
Asosiy vositalar, shu bilan birgalikda Moliyviy ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar)ning va nomoddiy aktivlarning hisoblangan o‘rtacha yillik qoldiq qiymati	010	418 429,21
Soliq stavkasi, %da	020	3,5%
Soliq summasi (010-satr h 020-satr)	030	14 645,02
Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob’ektining tahmin qilinayotgan o‘rtacha yillik qiymati	040	
Soliq stavkasi, %da	050	
Soliq summasi (040-satr h 050-satr)	060	
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan uskunaning tahmin qilinayotgan o‘rtacha yillik qiymati	070	
Soliq stavkasi, %da	080	
Soliq summasi (070-satr h 080-satr)	090	
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning umumiy summasi (030-satr + 060-satr + 090-satr)	100	14 645,02
Har oylik joriy to‘lovlar summasi (satr-100/12)	110	

STIR | | | | | | | | | | varaq | 0 | 2 |

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
Hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Asosiy vositalar, shu bilan birgalikda Moliyviy ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning va soliq solinadigan nomoddiy aktivlarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati - Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq Hisob-kitobiga 1-ilovaning 070-satri	010	420 252,21
Soliq solinadigan bazaning kamaytirilishi - Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq Hisob-kitobiga 4-ilovaning 010-satri	020	1823,00
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash uchun soliq solinadigan baza (010-satr – 020-satr)	030	418 429,21
Belgilangan soliq stavkasi, %	040	3,5%
Tuzatilgan stavka, % - Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq Hisob-kitobiga 6-ilovaning 060-satri	050	

Soliq summasi (030-satr h 040-catr, yoki 050-satr)	060	
Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektining o'rtacha yillik qiymati – Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq Hisob-kitobiga 1-ilovaning 080-satri	070	
Soliq stavkasi, %da	080	
Soliq summasi (070-satr h 080-satr)	090	
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan uskunaning o'rtacha yillik qiymati – Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq Hisob-kitobiga 1-ilovaning 090-satri	100	
Soliq stavkasi, %da	110	
Soliq summasi (100-satr h 110-satr)	120	
Byudjetga to'lanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi (060-satr + 090-satr + 120-satr)	130	14 645,02
O'tgan hisobot davri uchun hisob-kitob bo'yicha hisoblangan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi	140	
Qo'shimcha to'lashga	150	
Kamaytirishga	160	

STIR | | | | | | | | | | varaq | 0 | 6 |

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga
solinadigan soliq hisob-kitobiga4-ilova

Soliq solinmaydigan mol-mulk
RO‘YXATI

Soliq solinmaydigan mol-mulk	Satr kodi	Mol-mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha soliq solinadigan bazaning kamaytirilishi (020-satr + 030-satr)	010	1823,00
O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq –jami:	020	
uy-joy kommunal ho‘jaligi ob’ektlari	0201	212,00
ijtimoiy-madaniy soha ob’ektlari	0202	
yuridik shaxslarning madaniyat muassasalari, maktabgacha va umumta’lim o‘kuv muassasalari ehtiyojlari uchun foylaniladigan mol-mulki	0203	
qishloq ho‘jaligi (o‘simlikshunoslik, chorvachilik, baliqchilik) mahsulotlarini etishtirish va saqlash uchun foydalaniladigan qishloq ho‘jaligi korxonalari balansida bo‘lgan mol-mulk	0204	
sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari ob’ektlari	0205	
aloqa yo‘ldoshlari	0206	
kredit hisobidan olingan asbob-uskuna, uni foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yilga, lekin kreditni uzish uchun belgilanganidan ko‘p bo‘lmagan muddatga	0207	
tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong‘in havfsizligi uchun foydalaniladigan ob’ektlar	0208	
umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar va avtomobil yo‘llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek ushbu ob’ektlarning ajralmas tehnologik qismi bo‘lgan inshootlar	0209	1611,00
konservatsiya qilinishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori qabul qilingan ishlab chiqarish asosiy vositalari	02010	
lizingga olingan mol-mulk, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga	02011	
soliq to‘lovchining balansida bo‘lgan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmaydigan fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob’ektlar	02012	
shahar va shahar atrofidagi yo‘nalishlarda yo‘lovchilar tashiydigan shahar yo‘lovchilar transporti tashkilotlarining transport vositalari (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten poezdlari)	02013	

2. Er solig‘i hisobi va soliq hisoboti.

Yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i to‘lovchilari, soliq solish ob’ekti, bazasi hamda soliq stavkasini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari, soliq davrini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibini Soliq kodeksining (SK) 49-bobi bilan tartibga solinadi.

Er uchastkalaridan foydalanganlik uchun byudjetga to‘lovlar er solig‘i yoki er uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan er uchastkalari uchun to‘lanadigan ijara haqi er solig‘iga tenglashtiriladi. Er uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘ini to‘lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida foydalaniladigan er uchastkalari uchun er solig‘i to‘laydilar.

Soliq to‘lovchilar - Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida er uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari er solig‘ini to‘lovchilaridir.

Ko‘chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi er solig‘ini to‘lovchi bo‘ladi.

Er uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs er uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o‘z ulushi uchun er solig‘ini to‘lovchidir.

Soliq solish ob’ekti - Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan er uchastkalari soliq solish ob’ektidir.

Quyidagilarga soliq solish ob’ekti sifatida qaralmaydi:

- aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi erlari. Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi erlari jumlasiga quyidagilar kiradi:
- maydonlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, sug‘orish tarmog‘i, sohil bo‘yi erlari va boshqa shu kabi erlar;
- aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan erlar (daraxtzorlar, bog‘lar, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan erlar);
- kommunal-maishiy erlar (qabristonlar, chiqindilarni zararsizlantirish va ularni utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar);
- zaxira erlar.

Soliq solinadigan baza - Er uchastkasining SK 282-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan er uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan bazadir.

Qaysi er uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to‘lovchiga o‘tgan bo‘lsa, o‘sha er uchastkalari uchun soliq solinadigan baza er uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi. Er uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza er uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e’tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda er solig‘i bo‘yicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan e’tiboran kamaytiriladi. Er

solig‘i bo‘yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi (ko‘paytiriladi).

Er solig‘i to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari - o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan er uchastkalari uchun;

2) yangi tashkil etilgan dehqon xo‘jaliklari - davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan e’tiboran ikki yilga va SKning 282-moddasida keltirilgan boshqa imtiyozlar.

Soliq solinmaydigan er uchastkalari jumlasiga quyidagi erlar kiradi:

1) bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo‘llari, sug‘orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa erlar), jamoa garajlarining erlari;

2) sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik erlar (xo‘jalik faoliyati yuritilayotgan erlar bundan mustasno) - tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo‘lgan er uchastkalari va SKning 282-moddasida keltirilgan boshqa imtiyozlar.

Belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan er uchastkalariga yuqorida belgilangan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Soliq davri. Hisobot davri

Kalendar yil soliq va hisobot davridir.

Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi. Er solig‘i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo‘lgan holatga ko‘ra hisoblab chiqariladi va uning hisob-kitobi er uchastkasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15 fevraliga qadar taqdim etiladi.

Er solig‘ini hisoblab chiqarish SKning 281-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazada (hisoblangan soliq summasida) soliq davri mobaynida o‘zgarish bo‘lganda, yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga er solig‘ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo‘jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o‘zgarishlar yuz bergan yagona er solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari er solig‘ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi.

MISOL. Korxonaga 960 kv. m er maydoni ajratildi. Uning bir qismi (220 kv. m) TOSHKENT shahar Bektemir tumanida, qolgan qismi (740 kv.m) TOSHKENT viloyatining O‘rtachirchiq tumanida joylashgan.

Er solig‘ining hisob-kitobi alohida hisoblanadi, u quyidagichadir:

TOSHKENT shahrida joylashgan er uchastkasi bo‘yicha er solig‘i Prezidentning 30.12.2011 yildagi PQ-1675-son qarorining 19-ilovasi, 5-jadvalida belgilangan stavkalarga asosan;

TOSHKENT viloyatida joylashgan er uchastkasi bo‘yicha er solig‘i ushbu qarorning 19-ilovasi, 7-jadvalida belgilangan stavkalarga asosan hisoblab chiqiladi.

Er solig‘i bo‘yicha hisob-kitob va to‘lov er maydoni joylashgan joyda amalga oshiriladi: TOSHKENT shahrida joylashgan er uchastkasi bo‘yicha Bektemir tuman DSIga, TOSHKENT viloyatida joylashgan er uchastkasi bo‘yicha O‘rtachirchiq tuman DSIga.

Soliq to‘lash tartibi. Er solig‘ini to‘lash, agar quyida bosh-qacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, yuridik shaxslar tomonidan yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

Hisobot davri uchun er solig‘i to‘lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to‘lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yagona er solig‘i to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan er solig‘ini to‘lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

hisobot yilining 1 iyuliga qadar - yillik soliq summasining 20 foizi;

hisobot yilining 1 sentyabriga qadar - yillik soliq summasining 30 foizi;

hisobot yilining 1 dekabriga qadar - soliqning qolgan summasi.

Qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa erlar (suv havzalari, kanallar, kollektorlar, yo‘llar, jamoat imoratlari va hovlilari va hokazolar) uchun undiriladigan er solig‘i stavkalari PQ-1449-son qarorga 19-ilovaning 4-jadvalida ko‘rsatilgan.

Imtiyozlarga kelganda, **er solig‘i solishdan ozod qilinadigan er uchastkalarining ro‘yxati Soliq kodeksi** *(SK)* **282-moddasining ikkinchi qismida keltirilgan.** Ular orasida ferma (molxona) egallaydigan erlar ko‘rsatilmagan, binobarin, ularga er solig‘i solinadi.

Biroq quyidagi er uchastkalari bo‘yicha imtiyozlar mavjud:

qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun yangi o‘zlashtirilayotgan erlar *(SK 282-moddasi ikkinchi qismining 23-bandi).* Ularni o‘zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o‘zlashtirilgan vaqtdan e’tiboran besh yil mobaynida beriladi;

melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug‘oriladigan erlar *(SK 282-moddasi ikkinchi qismining 24-bandi).* Ishlar boshlanganidan e’tiboran besh yil muddatga beriladi;

yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan erlar *(SK 282-moddasi ikkinchi qismining 25-bandi).* Uch yil muddatga beriladi. Kuzda o‘tqazilgan yangi ko‘chatlar uchun beriladigan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e’tiboran boshlanadi, bahorda o‘tqazilgan ko‘chatlar uchun esa joriy yilning 1 yanvaridan e’tiboran boshlanadi.

Biroq uchastka sizga ayni yordamchi xo‘jalik (qishloq xo‘jaligi) yuritish uchun berilgan taqdirdagina ushbu imtiyozlardan foydalana olasiz.

2011 yil 1 yanvardan boshlab to‘lovchilar sug‘orma jamoat qishloq xo‘jaligi erlari uchun undiriladigan er solig‘i stavkasini I darajali er uchun bazaviy stavkadan va unga qo‘llaniladigan, er uchastkasining sifat xususiyatini (bonitet ballini) hisobga oladigan tuzatish koeffitsientidan kelib chiqib, mustaqil tarzda belgilaydilar *(PQ-1449-son qarorga 19-ilova).*

MISOL. Korxona TOSHKENT viloyatining Qibray tumanida qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan erga ega, biroq qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari mezonlariga javob bermaydi. Sug‘orma erlarning umumiy maydoni 10 gektarni tashkil qiladi, shu jumladan V darajali - 4gektar; VI darajali - 6 gektar. 2011 yil uchun er solig‘i summasini qanday hisoblash tartibi.

Yuridik shaxslardan 2011 yil uchun belgilangan, TOSHKENT viloyatining Qibray tumanida joylashgan sug‘orma jamoat qishloq xo‘jaligi erlari (I darajali erlar) uchun yuridik shaxslardan undiriladigan er solig‘ining bazaviy stavkasi 1gektar uchun 8 697,1 so‘mni tashkil qiladi *(PQ-1449-son qarorga 19-ilovaning 1-jadvali).*

Ushbu soliqning bazaviy stavkalariga quyidagi tuzatish koeffitsientlari belgilangan:

V darajali erlar uchun (bonitetning 41-50 ballari) - 4,67;

VI darajali erlar uchun (bonitetning 51-60 ballari) - 6,78.

Shu tariqa, 2011 yil uchun sizni qiziqtiradigan erlarning 1 gektariga er solig‘i stavkalari quyidagini tashkil qiladi:

V darajali erlar bo‘yicha (bonitetning 41-50 ballari) - 40 615,46 so‘m (8 697,1 so‘m x 4,67);

VI darajali erlar bo‘yicha (bonitetning 51-60 ballari) - 58 966,34 so‘m (8 697,1 so‘m x 6,78).

2011 yil uchun hisoblangan er solig‘ining umumiy summasi 516 259,88 so‘mni (40 615,46 x 4 + 58 966,34 x 6) tashkil qiladi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi hisoblanmagan qishloq xo‘jaligi korxonasi Surxondaryo viloyatining Qiziriq tumanida 17 gektar sug‘orma erga ega, shu jumladan III jarajali - 10 gektar va 7 gektar baholanmagan erga. Unda jamoat imoratlari va hovlilari band etgan 6 gektar er ham bor.

PQ-1449-son qarorga 19-ilovaning 1-jadvaliga ko‘ra, Surxondaryo viloyatining Qiziriq tumanida joylashgan sug‘orma jamoat qishloq xo‘jaligi erlari (I darajali erlar) uchun yuridik shaxslardan undiriladigan er solig‘ining bazaviy stavkasi 2011 yilda 1 gektar uchun 10 345,1 so‘mni tashkil qiladi.

Unga tuzatish koeffitsientlari belgilangan:

III darajali erlar uchun (bonitetning 21-30 ballari)- 2,25;

baholanmagan erlar uchun - 4,67.

Qiziriq tumanida sug‘orma erlarning 1 gektari uchun er solig‘i stavkasi 2011 yilda quyidagilarni tashkil qildi:

III darajali erlar uchun (bonitetning 21-30 ballari) - 23 276,48 so‘m (10 345,1 so‘m x 2,25);

baholanmagan erlar uchun - 48 311,62 so‘m (10 345,1 so‘m x 4,67).

Ulardan undiriladigan er solig‘ining umumiy summasi 570 946,14 so‘mni (23 276,48 x 10 + 48 311,62 x 7) tashkil qiladi.

Bundan tashqari, korxona jamoat imoratlari va hovlilari band etgan 6 gektar erga ega. Qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishida foydalanilmaydigan boshqa erlar uchun undiriladigan er solig‘i stavkasi 1 gektar uchun 178 616,9 so‘mga teng *(PQ-1449-son qarorga 19-ilovaning 4-jadvali).* Jamoat imoratlari va hovlilari band etgan erlar uchun er solig‘i summasi 1 071 701,4 so‘mni (178 616,9 x 6) tashkil qiladi.

Shu tariqa, qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan erlar uchun byudjetga to‘lanadigan er solig‘i summasi 1642647,54 so‘mga (570946,14 + 1 071 701,4) teng.

Agar soliq davri mobaynida yagona er solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalarida qishloq xo‘jaligi ekinlarining umumiy maydonida va (yoki) tarkibida o‘zgarishlar yuz bersa, ular joriy yilning 1 dekabriga qadar er uchastkasi joylashgan joydagi davlat soliq organiga er solig‘ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishlari kerak *(SKning 285-moddasi).*

Shuni yodda tutish lozimki, SKning 81-moddasiga ko‘ra, hisobga qo‘yilmagan joy bo‘yicha unda er solig‘ini to‘lash majburiyati yuzaga kelgan soliq to‘lovchi tegishli er uchastkasiga (yoki er uchastkasiga bo‘lgan huquq bilan birga tegishli ko‘chmas mulk ob’ektiga) bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab 10 kun mobaynida soliq solish ob’ektlarini ular joylashgan erda hisobga qo‘yish uchun davlat soliq xizmati organlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda murojaat etishi shart. Soliq organi soliq to‘lovchining ilgari berilgan identifikatsiya raqamiga muvofiq

murojaat etilgan kundan boshlab 3 kundan kechiktirmay uni ob’ektlar bo‘yicha hisobga qo‘yadi.

SKning 113-moddasida nazarda tutilishicha, soliq organida ob’ektlar bo‘yicha hisobga turishdan bo‘yin tovlash quyidagi miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘ladi:

agar belgilangan muddatdan ko‘pi bilan 30 kun o‘tgan bo‘lsa- EKIHning 50 baravari;

30 kundan ko‘p o‘tsa - EKIHning 100 baravari.

Soliq kodeksining 81-moddasida belgilanishicha, soliq to‘lovchini ob’ektlar bo‘yicha hisobga qo‘yish soliq solish ob’ekti joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Soliq to‘lovchida er solig‘ini to‘lash bo‘yicha majburiyat yuzaga kelganida u soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yish joyida amalga oshirilmaydi.

Soliq kodeksining 285-moddasiga ko‘ra, er solig‘i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo‘lgan holatga ko‘ra hisoblab chiqariladi va er solig‘ining hisob-kitobi er uchastkasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15 fevraliga qadar taqdim etiladi.

Hisobga qo‘yilmagan joyda er solig‘i yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash majburiyati yuzaga kelgan soliq to‘lovchi tegishli er uchastkasiga (yoki u bilan birga er uchastkasiga huquq yuzaga kelgan ko‘chmas mulk ob’ektiga) huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab 10 kun mobaynida soliq organiga ular joylashgan erdagi soliq solish ob’ektlarini hisobga qo‘yish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilishi shart, unda hisobga qo‘yish ob’ektiga huquq tegishli bo‘lgan soliq to‘lovchi - yuridik shaxsning identifikatsiya raqami ko‘rsatiladi.

Shu sababli siz er uchastkalarini Yangiyo‘l tuman va Sirdaryo shahar DSIlarida ob’ektlar bo‘yicha hisobga qo‘yishingiz lozim.

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘iga kelsak, Soliq kodeksining 271-moddasiga ko‘ra, uning hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik Moliyviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

3. Er qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliq hisobi va soliq hisoboti.

Soliq kodeksining 242-moddasiga muvofiq O‘zbekiston hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida er qa’ridan foydalanuvchilardir.

Er qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilar quyidagilardir:

- er qa’ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, shu jumladan mineral xom ashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olayotgan er qa’ridan foydalanuvchilar;
- foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan er qa’ridan foydalanuvchilar.

Foydali qazilmalarni kavlab olish deganda foydali qazilmalarni er qa’ridan yuzaga chiqarib olish bilan bog‘liq ishlar majmui tushuniladi *(«Er osti boyliklari to‘g‘risida»gi Qonunning 2-moddasi).* Foydali qazilmalarni kavlab olish uchun er qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqi yuzaga kelishi uchun asos bo‘lib litsenziya hisoblanadi, uni Geologiya va mineral resurslar bo‘yicha davlat qo‘mitasi tegishli davlat organining er qa’ridan foydalanish bilan bog‘liq ishlarni yuritish uchun er uchastkasi berilishini kafolatlaydigan qarori mavjud bo‘lganida beradi. Litsenziya uning egasining belgilangan muddat mobaynida aniq chegaralarda er qa’ri uchastkasidan foydalanish huquqini tasdiqlaydi va undan foydalanish shartlarini belgilaydi.

Demak, er qa’ridan foydalanuvchilar tomonidan to‘lab beriladigan bonus, ya’ni maxsus to‘lov umumbelgilangan soliq hisoblanadi.

Soliq kodeksi 43-bobining 243-moddasiga binoan er qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilar quyidagilardir:

er qa’ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, mineral xom ashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olayotgan er qa’ridan foydalanuvchilar;

foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan er qa’ridan foydalanuvchilar.

Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotlarning hajmi er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq solish ob’ekti bo‘lib, ularning ro‘yxati Prezidentning qarori bilan belgilanadi. Er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan bepul berish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o‘z iste’moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e’tirof etiladi.

Er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq solishning ob’ekti tayyor mahsulotning har bir turi bo‘yicha alohida aniqlanadi. Chunonchi, uglevodorodlar uchun soliq solish ob’ekti qu-yidagilardir: sanoat yo‘sinida dastlabki qayta ishlovdan o‘tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar, shu jumladan qo‘shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar; uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi kavlab olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar. Qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni tugal texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi soliq solish ob’ekti bo‘lmaydi.

Soliq kodeksi 244-moddasining oltinchi qismiga muvofiq, ajratib olingan

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun soliq solish ob'ektidir. Qolgan qattiq foydali qazilmalar bo‘yicha soliq solish ob'ekti bo‘lib kavlab olingan (shu jumladan qo‘shilib chiqadigan) foydali qazilmalar; foydali qazilmalardan, mineral xom ashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar hisoblanadi.

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ekti bo‘lib kavlab olingan (chiqarib olingan) tayyor mahsulotlarning hajmi hisoblanadi. Ularning ro‘yxati Prezidentning qarori bilan belgilanadi. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki berish, shu jumladan tekin berish uchun, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o‘z iste'moli va boshqa ehtiyojlar uchun mo‘ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.

Keng tarqalgan, soliq to‘lovchilarga berilgan er uchastkalari doirasida kavlab olingan hamda o‘z xo‘jalik va maishiy ehtiyojlari uchun foydalanilgan foydali qazilmalar soliq solish ob'ekti hisoblanmaydi.

Biroq, Foydali qazilmalar konlarini ishlab chiqish uchun tog‘ tarmoqlarini berish tartibi to‘g‘risida nizomning 14-bandiga ko‘ra er egalari va erdan foydalanuvchilar ularga berilgan er uchastkalari doirasida er qa'ridan xo‘jalik va maishiy ehtiyojlar uchun litsenziyasiz keng tarqalgan foydali qazilmalar, er osti suvlaridan va tog‘ tarmog‘idan quyidagi shartlarga rioya etgan holda foydalanish huquqiga egalar:

- keng tarqalgan foydali qazilmalarni kavlab olish ochiq usul bilan, balandligi 2 metrdan va maydoni 1 gektardan ortiq bo‘lmagan bitta o‘yiq joyda amalga oshirilishi kerak;
- ishlar texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etgan holda yuritilishi kerak;
- hosildor qatlamni olish va saqlash, shuningdek buzilgan erlarni keyin rekultivatsiya qilish masalasi hal etilishi kerak;
- kon ishlari boshlanishidan 10 kun avval mahalliy hokimiyat organlari va «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspektsiyasi xabardor qilinishi kerak;
- kavlab olingan keng tarqalgan foydali qazilmalar va er osti suvlaridan faqat er uchastkasi egasi (foydalanuvchi)ning xo‘jalik yoki maishiy ehtiyojlari uchun foydalanish kerak. Kavlab olingan foydali qazilmalarni naf olish uchun boshqa korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga sotish yoki berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq to‘lovchilarga berilgan er uchastkalari doirasida kavlab olingan hamda o‘zining xo‘jalik va ro‘zg‘or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish ob'ekti bo‘lmaydi. Er qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini berish tartibi va shartlari to‘g‘risidagi nizomda Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro‘yxati *(3-ilova)* keltirilgan bo‘lib, unga quyidagilar kiritilgan:

- **argillitlar va alevrolitlar** (tsement sanoatida ishlatishga yaroqlilaridan tashqari);
- **toshqotishma va shag‘allar** (oddiy va gidrotexnik betonni to‘ldiruvchi sifatida shlatishga yaroqlilaridan tashqari);
- **gilmoya** (chinni va fayans buyumlar ishlab chiqarishga, tsement sanoatida ishlatishga yaroqli o‘tga chidamli, qiyin eriydigan, qoliplash gilmoyasi, oqartiruvchi, bo‘yoqli, bentonitli, kislotaga chidamli gilmoya va kaolindan tashqari);
- **dolomit** (arralanadigan, qoplanadigan, metallurgiya, kimyo va shisha sanoati uchun ishlatiladiganlaridan tashqari);

- **ohaktosh** (bituminozli, qoplanadigan, arralanadigan, tsement, metallurgiya, kimyo, shisha, qog‘oz-tsellyuloza va shakar sanoatida ishlatishga yaroqlilaridan, shuningdek gilmoya ishlab chiqarishda foydalaniladiganlaridan tashqari);

- **chig‘anoq tosh-ohaktosh** (qoplanadiganidan tashqari);

- **xarsangtosh;**

- **kvartsit** (kremniy karbidi, kristall kremniy va ferroqorishmalar ishlab chiqarish uchun dinasli, flyusli, qoplanadigan, temirlilaridan tashqari);

- mergel (bituminozli va tsement sanoatida ishlatishga yaroqlilaridan tashqari);

- qum (qoliplash, shisha, chinni buyumlarni ishlab chiqarishga yaroqli, o‘tga chidamli va tsement sanoatida ishlatiladiganlaridan tashqari);

- qumtoshlar (bituminozli, qoplanadigan, dinasli va shisha sanoatida ishlatiladiganlaridan tashqari);

- slanets (yonadigan va tom yopishda ishlatiladiganlaridan tashqari);

- qumoq tuproq (tsement sanoatida foydalanishga yaroqlilaridan tashqari);

- magmatik, vulkanogen va metamorfik turlar (qoplanadigan, dekorativ, o‘tga va kislotaga chidamli materiallarni ishlab chiqarish uchun, tosh quyish va mineral vata, shuningdek tsement sanoatida ishlatishga yaroqlilaridan tashqari).

2012 yil uchun soliq va majburiy to‘lovlarning stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi PQ-1675-son qarori bilan belgilangan.

Imzolanadigan bonus stavkalari (eng kam ish haqi miqdorida) (Qarorga 15-1-ilova)	
Uglevodorodlar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	10 000
Oltin qidirish va razvedka qilish huquqi	10 000
Qimmatbaho (oltindan tashqari), noyob va asl metallar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	1 000
Rudali foydali qazilmalar konlarini, 2 va 3-bandlarda ko‘rsatilganlardan tashqari, qidirish va razvedka qilish huquqi	500
Noruda foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	100
Tijorat topilmasi bonusi stavkalari *(%da)* (Qarorga 15-2-ilova)	
Uglevodorodlar, qimmatbaho va noyob metallar, rudali va noruda foydali qazilmalarni qazib olish huquqi	0,1
Ayrim turdagi mahsulotlar bo‘yicha qo‘shimcha foyda solig‘i stavkalari *(%da)* (Qarorga 16-ilova)	
Katodli mis* (so‘mdagi ekvivalentda «kesish narxi»gacha 1 tonna uchun 4 200 AQSh dollaridan yuqori)	
Tabiiy gaz* (so‘mdagi ekvivalentda «kesish narxi»gacha 1 000 kub m uchun 160 AQSh dollaridan yuqori)	50
Polietilen granulalar* (1 tonna uchun 1 200 000 so‘mdan yuqori)	
Tsement** (1 tonna uchun 95 000 so‘mdan yuqori)	
Klinker (1 tonna uchun 80 000 so‘mdan yuqori)	

Er qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to‘lashda soliq to‘lovchilar ko‘pincha xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Ularning asosiylariga to‘xtab o‘tamiz.

1. Davlat soliq xizmati organida er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yilishdan bo‘yin tovlash**.** Gilmoya, xarsangtosh, qum va qumoq tuproq O‘zbekiston Respublikasining Keng tarqalgan foydali qazilmalari ro‘yxatiga kiritilgan. Biroq ko‘pchilik korxonalar qurilishda ishlatish uchun karerdan loy olganda

soliq hisobiga turmaydilar hamda er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblamaydilar va soliqni to'lamaydilar.

2. Soliq solish tizimini noto'g'ri qo'llash. SKning 350-moddasiga muvofiq, 2008 yildan boshlab yagona soliq to'lovi aktsiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etilmaydi.

Biroq, amaliyotning ko'rsatishicha, ko'pchilik kichik korxonalar er qa'ridan foydalanuvchi bo'la turib, yagona soliq to'lovini to'lagan holda soliq solishning soddalashtirilgan tizimida qolishni davom ettirmoqdalar, holbuki, soliq qonunchiligiga binoan, ular umumbelgilangan soliqlarni, shu jumladan er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashlari kerak.

3. Foydali qazilmalar qazib olish hajmini kamaytirib ko'rsatish. Masalan, kon yuzini ochib foydali qazilmalarni olish ishlarida ularni qazib olish hajmini aks ettirmaslik yo'li bilan foydali qazilmalar hajmi yashiriladi. Buning natijasida ular Zaxiralarning davlat balansida ham aks ettirilmaydi.

Bundan tashqari, g'isht zavodlari ba'zida g'isht tayyorlashning hisob-kitob hajmini kamaytirib ko'rsatadilar, tegishincha, er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish bazasi bo'lgan sof tushum summasini kamaytiradilar.

Daryo qirg'oqlarini tozalash, tekislash va mustahkamlash bilan shug'ullanadigan ayrim korxonalar qum-shag'al aralashmasini chiqarib, qayta ishlaydilar, keyin esa er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lamagan holda uni qurilish tashkilotlari yoki xususiy shaxslarga sotadilar. Bunda ular kichik biznes sub'ektlari bo'la turib umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tmaydilar. Ba'zi fermer xo'jaliklari erlarni rejalashtirish, rekultivatsiya qilishdan olingan g'isht-cherepitsa xom ashyosini sotadilar yoki g'isht ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga ko'rsatgan xizmatlari evaziga tekinga beradilar. Bunda xo'jaliklar er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lamaydilar.

4. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan bazani noto'g'ri belgilash. SKning 245-moddasiga binoan, er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun, kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir. Ushbu baho har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

SK 245-moddasining oltinchi qismiga muvofiq, tayyor mahsulot (tayyor mahsulotning bir qismi) boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lgan yoki tayyor mahsulot (qayta ishlab hosil qilingan mahsulot) o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ayni vaqtda bir qator korxonalar daryodan qum-shag'al aralashmasini kavlab olib, mexanik yo'l bilan undan qumni ajratardilar. Uni maydalash natijasida esa shag'al olib, qurilish korxonalari va jismoniy shaxslarga ikkalasini sotardilar. Bunda er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish maqsadida bazani o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqiladigan qum-shag'al aralashmasidan kavlab olingan (ajratib olingan) materiallar (qum, shag'al, mayda tosh) hajmining qiymatidan

emas, balki kavlab olingan (ajratib olingan) qum-shag‘al aralashmasining ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqib hisoblab chiqardilar. Shu tariqa ular er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq summasini anchagina kamaytirib ko‘rsatardilar. ***Soliq kodeksi, 114-modda***

5. Litsenziyaning yo‘qligi. Keng tarqalgan foydali qazilmalar (toshqotishma, shag‘al, qum, gilmoya, qumoq tuproq va boshqalar) kavlab oluvchi ko‘pgina mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek jismoniy shaxslar er qa’ridan foydalanish huquqi uchun litsenziyasiz faoliyat yurityaptilar.

«Er osti boyliklari to‘g‘risida»gi Qonunning 26-moddasiga binoan, foydali qazilmalarni kavlab olish uchun er qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqi yuzaga kelishining asosi litsenziya hisoblanadi. U tegishli davlat organi (Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi)ning er qa’ridan foydalanish bilan bog‘liq ishlarni olib borish uchun er uchastkasi berilishini kafolatlovchi qarori mavjud bo‘lganda beriladi. Mazkur hujjat o‘z egasining muayyan chegaradagi er qa’ri uchastkasidan belgilangan muddat mobaynida foydalanish huquqini tasdiqlaydi hamda er qa’ri uchastkalaridan foydalanish shartlarini belgilaydi.

Litsenziyaga ega bo‘lmagan korxonalar va jismoniy shaxslar keng tarqalgan foydali qazilmalarni kavlab olish huquqiga ega emas. «Er osti boyliklari to‘g‘risida»gi Qonunning 52-moddasiga muvofiq, er osti boyliklari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar. Chunonchi, SKning 117-moddasiga binoan, faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug‘ullanish faoliyatning ushbu turlarini litsenziyasiz yoki boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz amalga oshirish davrida olingan sof foyda miqdorida, biroq eng kam ish haqining 50 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisoboti.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar, soliq solish ob’ekti va bazasi, soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi masalalari Soliq kodeksining X bo‘limi bilan tartibga solinadi.

Soliq to‘lovchilar - Suv solig‘i to‘lovchilari O‘zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni yoki suv iste’molini amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardir:

yuridik shaxslar - O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari;

faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari;

tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;

yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari.

Aholi punktlarining suv ta’minoti uchun suv etkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o‘z ehtiyojlariga ishlatiladigan suv solig‘ini to‘lovchidir.

Soliq solish ob’ekti - Er usti va er osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish ob’ektidir. Suv resurslarining er usti manbalariga daryolar, ko‘llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, er ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari kiradi.

Artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar esa suv resurslarining er osti manbalariga kiradi.

Soliq solinadigan baza - Foydalanilgan suvning hajmi soliq solinadigan bazadir.

Soliq solinadigan bazani belgilash tartibi. Suv resurslarining er usti va er osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (birlamchi) hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o‘lchagich asboblarining ko‘rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o‘lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv ob’ektlaridan, suv olish limitlaridan, suv iste’molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug‘orish normalaridan yoki ma’lumotlarning to‘g‘riligini ta’minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchilar er usti va er osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadilar. Suv resurslarining er usti va er osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmoqlaridagi suvdan foydalanilgan taqdirda, soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo‘yicha alohida-alohida aniqlanadi. Suv etkazib beruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog‘iga suv resurslarining er usti va er osti manbalaridan keladigan suv hajmlarining nisbati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 fevraliga qadar taqdim etishlari kerak. Davlat soliq xizmati organlari bu ma’lumotlarni soliq to‘lovchilar e’tiboriga etkazishi lozim.

Soliq to‘lovchi issiq suv hamda bug‘ hosil qilinishi bo‘yicha soliq solinadigan bazani ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o‘zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Binolarning bir qismi, alohida joylar ijaraga topshirilganda soliq solinadigan baza suv etkazib beruvchi bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida joylarni ijaraga olgan va suv etkazib beruvchi bilan shartnoma tuzgan soliq solinadigan bazani mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to‘lovchilar yuridik shaxslar bilan suv etkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko‘rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmi farqini solishtiruv amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta’mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to‘lovchilar bu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun suv solig‘ini to‘lamaydi. Ta’mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo‘lsa, aynan ular suv solig‘ini to‘lashadi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonida bajarilgan taqdirda, foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti suv solig‘ini to‘laydi.

Yagona er solig‘i to‘lovchilari bo‘lmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari soliq solinadigan bazani soliq davrida bir gektar sug‘oriladigan erlarni sug‘orish uchun sarflanadigan suvning butun xo‘jalik bo‘yicha o‘rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari uchun soliq solinadigan baza soliq organlari tomonidan aniqlanadi.

MISOL. Suv o‘lchagich uskunasining ko‘rsatkichi bo‘yicha korxona 2011 yilning 1-choragida vodoprovod tarmoqlaridan 290 kub metr suv iste’mol qilgan.

Vodoprovod tarmog‘iga er usti va er osti manbalaridan keladigan suv hajmlarining nisbati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni suv etkazib beruvchilar aniqlab beradi. Yil uchun sarflangan suv hajmining nisbati quyidagicha hisoblanadi:

er usti manbalaridan - 81,7%;

er osti manbalaridan - 18,3%.

Mos ravishda, korxona tomonidan 1-chorakda iste’mol qilingan 290 kub metr suv hajmining 236,93 kub metri (290 x 81,7%) er usti manbalari, 53,07 kub metri (290 x 18,3%) er osti manbalari ulushiga to‘g‘ri keladi.

2011 yil uchun suv solig‘i stavkalari Prezidentning 2010 yil 24 dekabrdagi PQ-1449-son qaroriga 13-ilovada er usti manbalaridan 1 kub metr uchun - 37,9 so‘m, er osti manbalaridan 1 kub metr uchun - 29,8 so‘m etib belgilangan edi.

Shundan kelib chiqib, 1-chorak uchun hisoblangan soliq summasi 9 071,87 so‘mni (53,07 x 37,9 + 236,93 x 29,8) tashkil etadi.

Soliq davri. Hisobot davri

Kalendar yil soliq davri bo‘lib, hisobot davri quyidagilardir:

suv solig‘ining umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan ko‘pni tashkil etadigan yuridik shaxslar (mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) uchun - bir oy;

suv solig‘ining umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirmalar va kichik korxonalar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun - yil choragi;

qishloq xo‘jaligi korxonalari va yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari uchun - kalendar yil.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi. Suv solig‘i summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari uchun suv solig‘i summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

2012 yil uchun soliq va majburiy to‘lovlarning stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi PQ-1675-son qarori bilan belgilangan.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari (Qarorga 13-ilova)			
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari (2-4-bandlarda ko‘rsatilganlaridan tashqari) 1 kub metr uchun stavka ***(so‘mda)**:*		
	Er usti suv resurslari manbalari	29,8	35,8
	Er osti suv resurslari manbalari	37,9	45,5
2	Elektr stantsiyalari		
	Er usti suv resurslari manbalari	8,6	10,3
	Er osti suv resurslari manbalari	12,8	15,4
3	Kommunal va xizmat ko‘rsatish korxonalari		
	Er usti suv resurslari manbalari	16,4	19,7
	Er osti suv resurslari manbalari	21,2	25,4
4	Yagona er solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari, dehqon xo‘jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suv resurslaridan foydalanadigan jismoniy shaxslar		
	Er usti suv resurslari manbalari	1,6	1,9
	Er osti suv resurslari manbalari	1,8	2,2

Suv solig‘ining hisob-kitobi suvdan foydalanish yoki suv iste’moli joyidagi soliq organlariga ortib boruvchi yakun bilan quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- suv solig‘ining umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan ko‘pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo‘jaligi korxonalari, mikrofirma va kichik korxonalar bundan mustasno) - har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik Moliyviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

- suv solig‘ining umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan - yilning har choragida, yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik Moliyviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

- yagona er solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan - yilda bir marta hisobot davrining 15 dekabrigacha;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - yilning har choragida, yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay.

Suv solig‘ini to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan deh-qon xo‘jaliklariga soliq organlari tomonidan hisobot davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

Prezidentimizning 2012 yil 16 iyul kuni «Statistik, soliq, Moliyviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 4453-sonli Farmoni asosan 2013 yildan e’tiboran hisobotlarni taqdim etish davriyligi qisqartirilishi belgilanib, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobi barcha soliq to‘lovchi yuridik shaxslar tomonidan bir yilda bir marotaba taqdim etilishi belgilandi.

Soliq to‘lash tartibi. Suv solig‘i to‘lovchilar tomonidan suvdan foydalanish yoki suv iste’moli joyida hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay to‘lanadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari tomonidan esa suv solig‘ini to‘lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar joriy yilning 15 yanvarigacha suvdan foydalanish yoki suv iste’moli joyidagi soliq organlariga suv solig‘ini to‘lash to‘g‘risidagi yozma bildirishni belgilangan limitdan kelib chiqqan holda yoki suv etkazib berish shartnomasiga muvofiq har oyda yoki yilning har choragida erkin shaklda taqdim etadilar, qishloq xo‘jaligi korxonalari bundan mustasno.

Mavzu: Kichik biznes sub'ektlari tomonidan to‘lanadigan soliqlar va majburiy to‘lovlar hisobi

REJA.

1. **Yagona soliq to‘lovini hisoblash va hisob kitoblarni taqdim etish tartibi.**
2. **Yagona er solig‘i va hisoboti.**
3. **Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat'iy belgilangan soliq hisobi.**

Tayanch so‘zlar:
Tadbirkor, mikrofirma, kichik korxona, yagona soliq to‘lovi, yagona er solig‘i, qat'iy soliq, soddalashtirilgan hisob, soddalashtirilgan hisobot, soliq hisobi, soliq hisoboti.

1. Yagona soliq to‘lovini hisoblash va hisob kitoblarni taqdim etish tartibi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bilan birga soddalashtirilgan tartibida to‘lanadigan soliqlar ham amal qiladi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi deganda – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi tushuniladi.

2005 yil 20 iyunda Prezidentning «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-3620-sonli Farmoni qabul qilindi. U kichik biznes sub'ektlarining faoliyat ko‘rsatish shart-sharoitini yaxshilashga, ularni soliqqa tortishni soddalashtirishga yo‘naltirilgan va asosiy masalalar tartibga solinadi:

1) soliq solishning soddalashtirilgan tizimi tarkibining o‘zgarishi, birxillashtirilgan soliq to‘lovining joriy etilishi;

2) joriy etilgan birxillashtirilgan soliq to‘lovi to‘lovchilari uchun imtiyozlar va qo‘shimcha preferentsiyalar berilishi.

Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar uning summasini soliq solinadigan baza va tasdiqlangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisob-kitob qiladilar. Bunda soliq organlariga davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar bo‘yicha hisob-kitoblar alohida taqdim etilmaydi, shuningdek pensiya, yo‘l va ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg‘armasi jamg‘armalariga majburiy ajratmalar summalarini alohida to‘lanmaydi.

Soliq Kodeksida belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to‘lanadigan quyidagi soliqlar qo‘llanilishi mumkin:

- yagona soliq to‘lovi;
- yagona er solig‘i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat'iy belgilangan soliq.

Yagona soliq to‘lovi to‘lovchilar quyidagilardir:

1) mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilganlar mustasno;

2) xodimlarning sonidan qat’i nazar:

savdo korxonalari va umumiy ovqatlanish korxonalari;

xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar;

lotereyalar tashkil qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar.

Yagona soliq to‘lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etilmaydi:

- aktsiz solig‘i to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi va er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga;
- yagona er solig‘i va qat’iy belgilangan soliq to‘lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga;
- mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga.

Soddalashtirilgan tartibda yagona soliq to‘lovi to‘lovchilar uchun soliq solish ob’ekti yalpi tushum hisoblanadi, soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo‘shilgan qiymat solig‘ini chegirgan holda (qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashga o‘tgan soliq to‘lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum tushuniladi.

Soliq Kodeksning 355-moddasiga muvofiq chegirmalar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan baza hisoblanadi.

Yagona soliq to‘lovini hisoblashda ayrim hollarda yalpi tushumga tuzatishlar kiritishga to‘g‘ri keladi. Soliq to‘lovchida yalpi tushumga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

1) tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda;

2) bitim shartlari o‘zgarganda;

3) baholar o‘zgarganda, sotib oluvchi siylovdan foydalanganda;

4) bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Yagona soliq to‘lovini hisoblashda kalendar yil soliq davri, yil choragi esa hisobot davri hisoblanadi**.**

Yagona soliq to‘lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar uchun yagona soliq to‘lovi summasi byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga, lekin yagona soliq to‘lovi summasining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorga kamaytiriladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini ixtiyoriy ravishda to‘lashga kalendar yil boshidan e’tiboran o‘tmagan to‘lovchilar yagona soliq to‘lovi summasini qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to‘g‘ri keladigan summaga kamaytiradilar.

Joriy yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining quyi shkalasi bo‘yicha soliq stavkasi 10 foizdan 9 foizga tushirildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi yangi 159-1-modda (mazkur o‘zgartirishlar 2012 yil 1 fevraldan e’tiboran amalga kiritiladi) bilan to‘ldirilib, fuqarolar o‘rtasida binoni, inshootni yoki ularning bir qismini, turar joyni ijaraga berish shartnomasining mavjud emasligi yoxud ijaraga berish shartnomasining majburiy notarial tasdiqlanishiga rioya qilmaslik holatlari uchun fuqarolarga nisbatan eng kam ish haqining besh baravaridan o‘n baravarigacha bo‘lgan miqdorda ma’muriy javobgarlik choralari belgilandi.

Mazkur Qonun bilan Soliq kodeksining ayrim moddalariga ham o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Xususan, foyda solig‘i bo‘yicha kiritilgan o‘zgartirish soliqni hisoblashda chegirib tashlanadigan mehnatta haq to‘lash xarajatlari tarkibiga mehnat natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan bir yo‘la beriladigan mukofotlar, ta’tilga qo‘shimcha haqlar, oziq-ovqat, yo‘l chiptalari qiymatini to‘lash yoki qoplash, shuningdek, xodimlarga ta’til uchun mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to‘langan haq va ular bo‘yicha pullik kompensatsiyalarni kiritishni nazarda tutadi. Avval ushbu xarajatlar Soliq kodeksining 147-moddasida nazarda tutilgan bo‘lib, foyda solig‘ini hisoblashda chegirilmas edi.

Soliq kodeksining 164, 271 va 300-moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlarga binoan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va obodonlashtirish solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarni to‘lashning yagona muddatlari belgilandi.

Mazkur Kodeksning 277 va 294-moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlarga binoan soliq davri uchun jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan er solig‘i va mol-mulk solig‘ini to‘lash muddatlari o‘zgartirildi, ya’ni hisobot yilining 15 oktyabri qilib belgilandi.

Soliq kodeksining 356-moddasida hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan baza yangi texnologik asbob-uskunalar olishga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko‘pi bilan 25 foiziga kamaytirilishi belgilangan. Soliq solinadigan bazani kamaytirish texnologik asbob-uskunalarni foydalanishga joriy etilgan soliq davridan boshlab 5 yil mobaynida amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Prezidentning 14.03.2007 yildagi «Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-3860-son Farmoni 3-bandida ham «Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi qo‘llaniladigan yuridik shaxslar uchun besh yil davomida yagona soliq to‘lovi to‘lashda soliqqa tortiladigan bazani xarid qilingan yangi texnologik jihozlar qiymatiga teng, ammo soliqqa tortish bazasining 25 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda kamaytirgan holda soliq imtiyozlari joriy etilsin» deb ta’kidlangan.

Ushbu imtiyozlar texnologik uskunalar ishga tushirilgan paytdan boshlab navbatdagi hisobot soliq davridan qo‘llaniladi.

Shuni e’tiborga olish kerakki, yangi texnologik jihoz deganda chiqarilgan sanadan boshlab uch yildan oshmagan texnologik jihozlar tushuniladi *(AV tomonidan 11.06.2007 yilda 1688-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qaror bilan tasdiqlangan Nizom).*

Quyidagi shartli misollarda sizning holatingizdan kelib chiqib, YaSTning soliq solinadigan bazasi va uni kamaytirish summasini ko‘rib chiqishimiz mumkin.

1-MISOL. *Yil davomida tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan tushgan sof tushum yuqori bo‘lganida:*

ming so‘mda

Hisobot davri	***YaST bazasi***	***Hisobot davrida soliq bazasi kamayti-rilishi mumkin bo‘lgan summa***	***Hisobot davrida kamayti-riladigan summa (soliq bazasiga nisbatan***	***Kamay-ti-rilgan YaST bazasi***	***Imtiyozga asosan coliq bazasi kamaytiri-lishi mumkin bo‘lgan qoldiq summa***	***Haqiqat-da imtiyozga asosan kamayti-rilgan summa***

		(2-ustun x 25%)	*25%)*			
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**
1-yil	500 000	125 000	125 000	**375 000**	600 000	125 000
2-yil	680 000	170 000	170 000	**510 000**	475 000	295 000
3-yil	800 000	200 000	200 000	**600 000**	305 000	495 000
4-yil	1 000 000	250 000	105 000	**895 000**	105	600 000
5-yil	1 200 000	300 000	0	**1 200 000**	0	0
Jami	***4 180 000***	***1 045 000***	***600 000***	***3 580 000***	**-**	***600 000***

Ushbu vaziyatda xarid qilingan texnologik jihozning qiymati korxona faoliyatining 4-yilida to‘liq YaST bazasidan kamaytirilganligi uchun 5-yilda YaST bazasida hech qanday kamaytirish amalga oshirilmaydi.

2-MISOL. *Yil davomida tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan tushgan sof tushum past bo‘lganida:*

Hisobot davri	***YaST bazasi***	***Hisobot davrida soliq bazasi kamayti-rilishi mumkin bo‘lgan summa (2-ustun x 25%)***	***Haqiqatda kamaytir-ladigan summa (solq bazasiga nisbatan 25%)***	***Kamayti-rilgan YaST bazasi***	***Imtiyozga asosan soliq bazasi kamaytirilishi mumkin bo‘lgan qoldiq summa***	***Haqiqatda imtiyozga asosan kamayti-rilgan summa***
1-yil	200 000	50 000	50 000	150 000	600 000	50 000
2-yil	320 000	80 000	80 000	240 000	550 000	130 000
3-yil	400 000	100 000	100 000	300 000	470 000	230 000
4-yil	540 000	135 000	135 000	405 000	370 000	365 000
5-yil	600 000	150 000	150 000	450 000	235 000	515 000
6-yil	800 000	0	0	800 000	0	0
Jami	***2 860 000***	***515 000***	***515 000***	***2 345 000***	***85 000****	***515 000***

**) Imtiyoz davri tugaganligi sababli soliq bazasi ushbu summaga kamaytirilmaydi.*

Ikkinchi misolda korxona 5 yil davomida o‘zining soliq solinadigan bazasini faqatgina 515 000 ming so‘mga kamaytirishi mumkin, qolgan 85 ming so‘m (600 000 - 515 000) imtiyozli davrdan o‘tib ketgani uchun soliq solinadigan bazadan chegirilmaydi.

Birinchi misoldan kelib chiqib, birinchi yil uchun YaST hisob-kitobi shakllarining 3-ilovasi 010-satri, 4-ilovasi 040 va 050-satrlari quyidagicha to‘ldiriladi:

3-ilova

Soliq solinadigan yalpi tushumning kamaytirilishi

Soliq solinadigan foydani kamaytiradigan daromadlar va xarajatlar ro‘yxati	***Satr kodi***	***Summa***
Soliq solinadigan yalpi tushumning kamaytirilishi - jami (020-satr + 030-satr + 040-satr + 050-satr)	010	125 000
…	…	…
Soliq solinadigan yalpi tushumning yangi texnologik asbob-uskunalar olishga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga kamayishi (YaST hisob-kitobiga 4-ilovaning 050-satri)	050	125 000

4-ilova

Yangi texnologik asbob-uskunalar olishga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasi hisob-kitobi

Ko‘rsatkich nomi	***Satr kodi***	***Hisobot davri***			
		1-chorak	***yarim yil***	***9 oy***	***yil***
Yangi texnologik asbob-uskunalar olishga ishlatilgan qoplanmagan mablag‘lar saldosi - jami	010	600 000	600 000	600 000	600 000
shu jumladan:					
2011 yil uchun	0101	600 000	600 000	600 000	600 000
Yangi texnologik asbob-uskunalar olishga mablag‘larning ishlatilishi (foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab) - jami:	020				0
shu jumladan:					
o‘zining mablag‘lari hisobidan	0201				0
Soliq solinadigan baza [YaST hisob-kitobi (040-satr - 0501-satr)] - [YaST hisob-kitobiga 3-ilovaning (020-satr + 030-satr)]	030				500 000
soliq solinadigan bazaning 25 foizi (030-satr x 25 %)	040				125 000
Soliq solinadigan bazaning kamaytirilishi [(010-satr + 020-satr), lekin 040-satrdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda]	050				125 000
Qoplanmagan mablag‘lar qoldig‘i (010-satr + 020-satr - 050-satr)	060	X	X	X	475 000

Savdo korxonalari, Soliq kodeksining *(SK)* 350, 351-moddalariga koʻra, xodimlar sonidan qat'i nazar, yagona soliq toʻlovi toʻlovchilari hisoblanadilar va soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqiga ega emaslar. Savdo faoliyati deganda qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat tushuniladi *(SKning 22-moddasi).*

Yangi tashkil etilgan savdo korxonalari YaSTni davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan sanadan e'tiboran joriy yil tugaguniga qadar, 1 oktyabrdan keyin roʻyxatdan oʻtkazilgan yuridik shaxslar esa keyingi yil tugaguniga qadar toʻlaydi *(SKning 352-moddasi).*

YaST toʻlovchilari uchun quyidagilarni toʻlash tartibi saqlanadi:

1) toʻlov manbaida ushlanadigan soliqlar (majburiy toʻlovlar):

SKning 165-moddasiga koʻra toʻlov manbaida undiriladigan foyda solig'ini;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ish beruvchi tomonidan oʻz xodimlariga toʻlanadigan daromadlardan sugʻurta badallarini;

2) SKning 207-moddasiga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasining norezidentlari bajaradigan ishlar (xizmatlar) boʻyicha QQSni;

3) Bojxona kodeksining 103-moddasida nazarda tutilgan roʻyxat boʻyicha bojxona toʻlovlarini;

4) majburiy toʻlovlar va yigʻimlar:

yagona ijtimoiy toʻlovni;

davlat bojlarini;

ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni koʻrsatish huquqi uchun yigʻimni;

avtotransport vositalarini xarid qilganlik va (yoki) vaqtincha olib kirganlik uchun Respublika yoʻl jamgʻarmasiga yigʻimni.

2. Yagona er solig‘ini hisobi va soliq hisoboti.

Qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilari tomonidan to‘lanadigan yagona er solig‘i bo‘yicha tartib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabr PF – 2086 sonli Farmoyishi va Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 dekabr 539 – sonli Qaroriga binoan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda yagona er solig‘i to‘lovchilari bo‘lgan qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining byudjet bilan hisoblashish mexanizmi keltirilgan. Hozirgi kunda yangi taxrirdagi soliq Kodeksiga asosan amalga oshirilmoqda. Bunga ko‘ra yagona er solig‘i to‘lovchilari bo‘lib quyidagilar hisoblanadilar:

qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar;

qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo‘jaliklari va ta’lim muassasalarining o‘quv-tajriba xo‘jaliklari.

Quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi:

er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va o‘zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud er uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish asosiy faoliyat turi bo‘lgan yuridik shaxslar;

qishloq xo‘jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o‘zlariga belgilangan tartibda berilgan er uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar;

qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va mazkur o‘zi etishtirgan mahsulotni qayta ishlash ulushi realizatsiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotini o‘z ichiga oluvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran yagona er solig‘i to‘lovchilar bo‘ladilar.

Quyidagilarga yagona er solig‘i to‘lovchilari sifatida qaralmaydi:

- o‘rmon va ovchilik xo‘jaliklari;
- yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo‘jaliklari.

Yagona er solig‘ini to‘lash tartibini qo‘llash uchun soliq to‘lovchi har yili joriy soliq davrining 1 fevraliga qadar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o‘tgan soliq davrida qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo‘jaligi mahsulotining o‘zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko‘rsatilgan ma’lumotnomani taqdim etadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo‘jaligi mahsulotining o‘zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushini aniqlashda Soliq Kodeksning 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlar hisobga olinmaydi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lmagan faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona er solig‘i to‘lovchi mazkur faoliyat turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Soliq Kodeksining 350-moddasining birinchi qismiga muvofiq soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolingan mikrofirmalar va kichik korxonalar faoliyatning boshqa turlari bo‘yicha korxonalarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha yagona soliq to‘lovi to‘lashi mumkin. Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirmaydigan soliq to‘lovchi umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tishi kerak.

Yagona er solig‘i bo‘yicha Qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo‘jaligini yuritish

uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan er uchastkasi soliq solish ob'ektidir, soliq solinadigan er uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir. Hozirgi kunga kelib mamlakatimizning barcha viloyatlarida erni normativ qiymati bo'yicha yagona er solig'iga tortish amalga oshirilmoqda.

Soliq kodeksiga asosan ushbu soliq turi bo'yicha ham kalendar yil soliq davri hisoblanadi. Soliq summasi soliq solinadigan bazaga qarab yagona er solig'i er uchastkalarining normativ qiymati va yagona er solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona er solig'ining hisob-kitobi er uchastkasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi. Yil davomida berilgan er uchastkalari uchun yagona er solig'i er uchastkasi berilganidan keyingi oydan e'tiboran to'lanadi. Er uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona er solig'ini to'lash er uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) oydan e'tiboran to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Er uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona er solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 dekabrigacha yagona er solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

Yagona er solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1 iyuligacha – yillik soliq summasining 20 foizi;
- hisobot yilining 1 sentyabrigacha – yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1 dekabrigacha – soliqning qolgan summasi.

Ushbu soliq hisoblanganda quyidagicha provodqa beriladi:

D-t 9810-«Foydadan hisoblangan va to'langan soliqlar» schyoti;

K-t 6410-«Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorliq» schyoti;

Bu soliq byudjetga o'tkazilganda:

D-t 6410-«Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik» schyoti;

K-t 5110-«Hisob-kitob schyoti» schyoti.

3. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq hisobi va hisoboti.

Qat'iy belgilangan soliq Soliq kodeksining 58-bobi bilan tartibga solinadi.

Soliqni to'lovchilar bo'lib quyidagilar;

- Faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Soliq solinadigan faoliyat turlarining ro'yxati, shuningdek faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar faoliyatning Soliq to'lash tatbiq etiladigan qismiga doir soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Soliq to‘lash tatbiq etiladigan faoliyat bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatning mazkur turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va umumbelgilangan soliqlarni to‘lashlari shart.

Asosiy faoliyat turi bo‘yicha Soliqni to‘lovchilar bo‘lgan yuridik shaxslar uchun Soliq kodeksining 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar, shuningdek ijaradan olingan daromadlar bundan mustasno.

Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda umumbelgilangan soliqlar yoki yagona soliq to‘lovi joriy etiladi.

Soliq kodeksi 370-moddasida ko‘rsatilgan, faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar Soliq kodeksining 372 va 373-moddalarida nazarda tutilgan tartibda soliqni to‘laydi.

1-MISOL. Korxonaning asosiy faoliyat turi avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash (TOSHKENT sh.). Asosiy faoliyat turidan tashqari, ilgari foydalanishda bo‘lgan yumshoq mebelni sotishdan (200 ming so‘m) va bo‘sh joyni ijaraga berishdan daromad olingan.

Korxona MChJning ta’sischilaridan biri ham hisoblanadi. Yil yakunlari bo‘yicha unga 7 200 ming so‘m miqdorida dividend hisoblangan.

Korxona asosiy faoliyat turi bo‘yicha **(avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash)** har oyda quyidagilarni to‘lab boradi:

- egallagan er maydonidan kelib chiqib hisoblanadigan soliq*;
- Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash bo‘yicha pulli xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im, u joylardagi davlat boshqaruvi organlari tomonidan o‘rnatiladi (O‘zR Prezidenti qarori bilan tasdiqlangan chegaralangan stavkalardan oshmagan miqdorda**).

Dividenddan soliq to‘lov manbaida ushlab qolinadi va u 720 (7 200 x 10%***) ming so‘mni tashkil qiladi. Korxona dividend shaklidagi daromadni dividend solig‘ini chegirib qolgan holda korxonaga 6 480 (7 200 - 720) ming so‘mni o‘tkazib beradi.

Mol-mulkni ijaraga berish faoliyati boshqa faoliyat turi hisoblanib, bu bo‘yicha alohida hisob yuritish va soliqlarni umumbelgilangan yoki soddalashtirilgan tartibda to‘lash kerak bo‘ladi (Soliq kodeksi, 371-modda). Agar korxona ishchilar soni bo‘yicha kichik korxona va mikrofirma hisoblansa, soliq solish tizimini tanlash huquqiga egadir. Agar yirik korxona hisoblansa, soliqlarni (foyda solig‘i, QQS va boshqalar) umumbelgilangan tartibda to‘lashi kerak.

Ilgari foydalanishda bo‘lgan yumshoq mebelni sotishdan olingan daromad (200 ming so‘m) Soliq kodeksining 132-moddasiga asosan boshqa daromad hisoblanib, unga soliq solinmaydi (Soliq kodeksi 371-moddaning 4-qismi).

Soliqni hisoblab chiqarish hamda to‘lash tartibi. Soliq belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkich soliq solinadigan ob’ekt hisoblanadi.

Soliq solinadigan baza fizik ko‘rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

2012 yil uchun soliq va majburiy to‘lovlarning stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi PQ-1675-son qarori bilan belgilangan.

Yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo‘yicha olinadigan qat’iy belgilangan soliq stavkalari

(eng kam ish haqi miqdorida) *(%da)*	
Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash (yuridik shaxslar, 1 kv.metr egallagan maydoni uchun)	0,1
Bolalar o‘yin avtomatlari (yuridik va jismoniy shaxslar, jihozlangan o‘rinlar soni uchun)	3

Soliq summasi soliq to‘lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat’i nazar, soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq davri - bir oy.

Soliq hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- yangi tashkil qilinayotgan (boshlovchi) soliq to‘lovchilar tomonidan - davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay;
- faoliyat yuritayotgan soliq to‘lovchilar tomonidan - hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

Soliq solish ob’ekti va EKIH miqdori o‘zgargan taqdirda, soliq to‘lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to‘lovni to‘lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

Soliqni to‘lash:

yuridik shaxslar tomonidan - har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - Soliq kodeksi 375-moddasining to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

***2-MISOL**. Yakka tartibdagi tadbirkorning zalida 10 ta o‘yin avtomati mavjud. 2012 yilning yanvar oyi uchun Soliq qanday hisoblanadi?*

Har bir dastgoh soliq solish ob’ekti hisoblanadi va ushbu holatda u 10 taga teng, ya’ni 10 ta o‘yin avtomati mavjud.

Soliq turi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

Qs = Fk x S

Bu erda,

***Qs** - Soliq summasi;*

***Fk** - fizik ko‘rsatkich (maydondagi uskunalar soni);*

***S** - Soliq stavkasi.*

2012 yil uchun soliq stavkasi Prezidentning 30.12.2011 yildagi PQ-1675-son qaroriga *(keyingi o‘rinlarda - PQ-1675-son Qaror)* 10-ilovada keltirilgan. Unda TOSHKENT shahri uchun oyiga har bir o‘yin avtomatiga EKIHning 3 baravari miqdorida belgilangan.

Ushbu holda soliqning yanvar oyi uchun to‘lanishi kerak bo‘lgan summasi (EKIH miqdori 62 920 so‘m) quyidagicha bo‘ladi:

62 920 x 3 x 10 = 1 887 600 so‘m

Soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi. Soliq to‘lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat’i nazar, Soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to‘lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug‘ullanuvchi soliq to‘lovchilar soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo‘yicha alohida-alohida to‘laydilar.

Soliqni hisoblab chiqarish soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

NAZORAT UChUN SAVOLLAR.

1. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi deganda nima tushuniladi ?
2. Yagona soliq to‘lovi to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi ?
3. Yagona soliq to‘lovi kimlarga tadbiq etilmaydi ?
4. Yagona soliq to‘lovining soliq solish bazasi qanday aniqlanadi ?
5. Qanday holatlarda yalpi tushumga tuzatishlar kiritiladi ?
6. Yagona soliq to‘lovining hisob kitobi qanday amalga oshiriladi ?
7. Yagona er solig‘i to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi ?
8. Yagona er solig‘i to‘lovchilari qanday holatda alohida hisob yuritishi shart bo‘ladi?
9. Yagona er solig‘i bo‘yicha hisob kitoblarni taqdim etish tartibi qanday ?
10. Kimlar qat’iy belgilangan soliq to‘lovchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni ayting?

Mavzu: Byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga majburiy to‘lovlar hisobi va hisoboti.

Reja:

1. Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga to‘lovlar hisobi hisobi va hisoboti.

2. Yagona ijtimoiy to‘lovning eng kam miqdori hisobi va hisoboti.

3. Respublika yo‘l jamg‘armasiga to‘lovlar hisobi hisobi va hisoboti.

4. Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar hisobi va hisoboti.

Tayanch so‘zlar:

Jamg‘arma, iqtisodiy jamg‘arma, ijtioiy jamg‘arma, byudjet, maqsadli jamg‘armalar, majburiy ajratma, sug‘urta, sug‘urta badali, yig‘im, soddalashtirilgan hisobot, soliq hisobi, soliq hisoboti.

1. Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga to‘lovlar hisobi.

Byudjetdan tashqari jamg‘armalari markaziy yoki mahalliy hokimiyat organlarining ixtiyorida bo‘lgan moliyviy resurslar yig‘indisi bo‘lib, ular ma’lum maqsadga yo‘naltiriladi. Byudjetdan tashqari jamg‘armalar moliyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, ularning shakllanishi va ishlatilish tartibi moliyviy qonunchilik orqali tartibga solinadi.

Davlat va mahalliy maqsadli pul jamg‘armalari moliya tizimida yaqinda paydo bo‘lgan bo‘lib, ilk ko‘rinishi davlat byudjetdan tashqari jamg‘armalari sifatida tashkil etilgan byudjetdan tashqari jamg‘armalarning yuzaga kelishi 1990 yillarga to‘g‘ri keladi. Byudjetdan tashqari jamg‘arma sifatida ilk bor pensiya jamg‘armalari tashkil etildi.

Davlat byudjetdan tashqari jamg‘armalarni tashkil etish orqali o‘zining moliyviy mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Amaliyotdan ma’lumki, faqatgina byudjet mablag‘lari yordamida u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni hayotga tatbiq etish mushkuldir.

Byudjetdan tashqari jamg‘armalar moliya tizimining‘ o‘ziga xos elementlaridan biri hisoblanadi. Davlat byudjetidan farq qilgan holda, davlat maqsadli jamg‘armalari ijro etuvchi organlar ixtiyorida yoki boshqa maxsus organlar ixtiyorida bo‘ladi. Shu sababli mablag‘larni byudjetdan tashqari jamg‘armalar o‘rtasida qayta taqsimlash yoki ulardan foydalanish operativ holda amalga oshiriladi. Bundan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalari uzoq yoki qisqa muddatli maqsadlarni amalga oshirish uchun tashkil qilinadi. Bu maqsadlarg‘a erishish bilan byudjetdan tashqari jamg‘armalar qayta tashkil qilinadi.

Maqsadli jamg‘armalarning uch turi mavjud:

1. Davlat va mahalliy byudjetdan tashqari pul mablag‘lari jamg‘armalari;
2. Maqsadli byudjet pul mablag‘lari jamg‘armasi;
3. O‘zbekistan Respublikasi Hukumatining davlat maqsadli jamg‘armalari.

Davlat va mahalliy maqsadli pul mablag‘lari jamg‘armalarining‘ o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- jamg‘armalar vakolatli organlar tomonidan aniq maqsadlar uchun tashkil etiladi;
- jamg‘armalar faqatgina maqsadga muvofiq foydalaniladi;
- maqsadli jamg‘armalarning huquqiy maqomi vakolatli organ tomonidan tasdikdanadigan nizomlar asosida belgilanadi.
- Davlat va mahalliy byudjetdan tashqari jamg‘armalar turli asoslarga ko‘ra tavsiflanadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan jamg‘armalar ikkiga bo‘linadi:
- Ijtimoiy jamg‘armalar - Pensiya jamg‘armasi, Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi, «Kamolot», «Ijod» va boshqalar;
- Iqtisodiy jamg‘armalar - Yo‘l jamg‘armasi va boshqalar.
- Byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari ikki xil yo‘l bilan shakllanadi:
- maxsus soliq va yig‘imlar;
- byudjet mablag‘lari va qarzlar.

Maxsus soliq va yig‘imlar orqali davlat maqsadli jamg‘armalarining‘ mablag‘larini shakllantirish asosiy usul hisoblanadi. Ularning miqdori davlat tomonidan o‘rnatiladi.

Byudjet mablag‘lariga beg‘araz subsidiyalar va soliq daromadlaridan aniq ajratmalar shaklida bo‘ladi. Shuningdek qarz mablag‘lari ham bo‘lishi mumkin.

Davlat maqsadli jamg‘armalari, xususan, Respublika yo‘l jamg‘armasi ajratmalar majburiy tusda undirilishini inobatga olgan holda, bu jamg‘armalarga ajratmalar hisoblash va to‘lash tartibini soliq hisobida aks ettirish lozim hisoblanadi.

Aholining nochor, moddiy yordamga muhtoj qatlamini ijtimoiy himoya qilish maqsadida yagona ijtimoiy to‘lov joriy etilgan.

Byudjetdan tashqari jamg‘armalari markaziy yoki mahalliy hokimiyat organlarining ixtiyorida bo‘lgan Moliyviy resurslar yig‘indisi bo‘lib, ular ma’lum maqsadga yo‘naltiriladi. Byudjetdan tashqari jamg‘armalar moliyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, ularning shakllanishi va ishlatilish tartibi Moliyviy qonunchilik orqali tartibga solinadi.

Davlat byudjetdan tashqari jamg‘armalarni tashkil etish orqali o‘zining moliyviy mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Amaliyotdan ma’lumki, faqatgina byudjet mablag‘lari yordamida u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni hayotga tatbiq etish mushkuldir.

Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallarini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi Soliq kodeksining *(SK)* 51-bobi bilan tartibga solinadi. Yuridik shaxslar - O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari YaIT to‘lovchilaridir. Sug‘urta badallarini hisoblab yozish va ushlash majburiyati, shuningdek ularni to‘g‘ri hisoblab yozish uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklanadi.

Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari solish ob’ekti bo‘lib SKning 172-moddasida ko‘rsatilgan quyidagi mehnat haqi tarzidagi daromadlar hisoblanadi:

mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;

- rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar *(SKning 173-moddasi);*
- kompensatsiya to‘lovlari *(SKning 174-moddasi);*
- ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash *(SKning 175-moddasi).*

YaIT va sug‘urta badallarini hisoblab yozish uchun soliq solinadigan baza SKning 308-moddasiga ko‘ra imtiyozlar chegirilgan holda mehnat haqi tarzidagi daromadlar

summasi sifatida belgilanadi. Yuridik shaxslarga jismoniy shaxs manfaatlarida tovarlar (ishlar, xizmatlar), mulkiy huquqlar haqini to‘lash, shu jumladan:

- sanatoriy-kurortlarda davolanish yo‘llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash;
- yuridik shaxsning jismoniy shaxs daromadi bo‘lgan boshqa xarajatlari;
- soliq to‘lovchining manfaatlarini ko‘zlab tekinga, shu jumladan hadya shartnomasi asosida berilgan mol-mulk, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati - soliq to‘lovchi yuridik shaxsdan olgan, YaIT va sug‘urta badallari solinadigan ob’ekt bo‘lib hisoblanmaydigan moddiy naf tarzidagi daromadlar hisoblanadi.

Yagona ijtimoiy to‘lov *(YaIT),* jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i *(JShDS),* byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga fuqarolarning sug‘urta badallari *(sug‘urta badallari)* mehnatga haq to‘lash jamg‘armasidan kelib chiqib hisoblanadi. Ko‘pincha korxonalarning rahbarlari soliq yukini kamaytirish maqsadida ta’til berish, umumdavlat bayramlari chog‘ida xodimlarni rag‘batlantiradilar, biroq buyruqda ushbu to‘lovlar «moddiy yordam» deb nomlanadi. Soliq kodeksi *(bundan keyin - SK)* 178-moddasining 16-bandiga ko‘ra jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga:

- vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan;
- mehnatda mayib bo‘lish, kasb kasalligi bilan kasallanish yoki sog‘liqqa boshqacha shikast etishi munosabati bilan xodimga beriladigan;
- favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan;
- maqsadli tusda bo‘lgan va xodimlar bilan yuz bergan, shaxsiy tusdagi voqealar, hollar va tadbirlar taqozo etmagan va bajariladigan ish natijalari bilan bog‘lanmagan to‘lov tarzidagi;
- qishloq xo‘jaligi mahsuloti yoki uni xarid qilishga mablag‘lar berish tarzidagi moddiy yordam kiradi.

Ta’til, umumdavlat bayramlariga pul mablag‘lari to‘lanishi maqsadli tusga ega emas va xodimlar bilan yuz bergan, shaxsiy tusdagi voqealar, hollar va tadbirlar taqozo etmagan hamda o‘z mohiyatiga ko‘ra rag‘batlantiruvchi to‘lovlarga kiradi. Tegishincha, ularga YaIT solinadi va ulardan Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari ushlanadi.

MISOL. *MChJ rahbariyati 2011 yil 8 martga o‘z xodimlarini taqdirlashga qaror qilib, ularga 12 000 ming so‘m moddiy yordam to‘lash to‘g‘risida buyruq chiqardi. Ushbu summadan YaIT hisoblanmadi va sug‘urta badallari ushlanmadi. Mazkur holda 25%lik stavka bo‘yicha 3 000 ming so‘m YaITni qo‘shimcha hisoblash va fuqarolardan 540 ming so‘m badal (4,5%) ushlab qolish lozim.*

Xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganida ham ta’tildan foydalanmaganlik uchun kompensatsiya to‘loviga YaIT va sug‘urta badallarini hisoblamaslik yana bir tez-tez uchraydigan xatodir.

Ba’zi korxonalar pensionerlarga qo‘shimcha haq to‘laydilar va ushbu summalardan YaIT hamda sug‘urta badallarini to‘lamaydilar. Agar pensioner mazkur korxonada endi ishlamayotgan bo‘lsa, bu to‘g‘ri *(SK 178-moddasining 18-bandi).* Biroq agar pensioner ishlasa, vaziyat boshqacha tus oladi. Pensiya va nafaqalarga qo‘shimcha haqlar, yuridik shaxs mablag‘i hisobidan to‘lanadigan stipendiyalar mehnat haqi tarzidagi daromad hisoblanadi *(SK 175-moddasining 15-bandi),* shu bois ularga YaIT va sug‘urta badallari hisoblanmaydi.

2012 yil 1 yanvardan boshlab ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan va mehnat shartnomasi bo‘yicha ish bajaradigan jismoniy shaxslarga yoki fuqarolik-

huquqiy tusdagi shartnomalar bo‘yicha jismoniy shaxslarga to‘lanadigan oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymatini qoplash kompensatsiya to‘lovlariga kiritiladi *(SKning 174-moddasi)*, ularga YaIT va sug‘urta badallari solinadi *(30.12.2011 yildagi O‘RQ-313-son Qonun to‘rtinchi moddasining 14, 15-bandlari).*

Korxonangiz xodimlari va ularning oila a’zolariga profilaktoriy, pansionat, dam olish zonasida, shuningdek xodimlarning bolalariga sog‘lomlashtirish oromgohlarida berilgan oziq-ovqat ularning qiymatiga kirsa ham, yo‘llanmalar moddiy naf tarzidagi daromadlarga kiradi hamda ularga YaIT va sug‘urta badallari solinmaydi.

Xodimlarning davolanishga va sportchilarning yig‘inlar yoki musobaqalar o‘tkazish jo-yiga borishlariga to‘lanadigan yo‘l haqi ham moddiy naf tarzidagi daromadlarga kiradi hamda ularga YaIT va sug‘urta badallari solinmaydi, chunki mazkur to‘lovlar yo‘l chiptasi ham, ularning qiymatini qoplash ham hisoblanmaydi.

Bolalarning sog‘lomlashtirish oromgohlarida ishlaydigan xodimlaringizning ovqatlanish qiymatiga haq to‘lashga, xodimlaringiz bo‘lgan sportchilarning ovqatlanish qiymatini qoplashga esa 2012 yil 1 yanvardan boshlab YaIT va sug‘urta badallari solinadi.

Bundan tashqari, Soliq kodeksining 179-moddasida xodimlarning siz sanab o‘tgan ba’zi daromadlari bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga doir imtiyozlar nazarda tutilgan.

Sug‘urtalangan xodimlar (mehnat bitimlari bo‘yicha ishlayotganlarning hammasi shunday xodimlardir), tegishli hollarda esa ularning oilalari ham DIS mablag‘lari hisobiga quyidagilar bilan ta’minlanadilar:

nogiron bolasini tarbiyalayotgan ishlovchi ota-onaning biriga (vasiyga, homiyga) bola 16 yoshga to‘lgunga qadar qo‘shimcha dam olish kuni uchun nafaqa *(1136-son Nizomning 85-bandi);*

- bola tug‘ilgandagi nafaqa;
- yoshga doir, nogironlik bo‘yicha va boquvchisini yo‘qotgan taqdirda davlat pensiyasi;
- dafn etishga nafaqa.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik hamda homiladorlik va tug‘ish nafaqalarining davlat ijtimoiy kafolatlari sifatida to‘lanishi saqlanadi. Biroq 2007 yil 1 yanvardan ular DIS mablag‘lari hisobiga emas, byudjet tashkilotlari tomonidan - mehnatga haq to‘lash jamg‘armasiga byudjet ajratmalari doirasida va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan - o‘z mablag‘lari hisobiga, ko‘rsatilgan xarajatlarni foyda solig‘ini hisoblashda soliq solinadigan bazadan chegirgan holda amalga oshiriladi *(Soliq kodeksining 141, 145-moddalari).*

Nafaqalar quyidagilarga beriladi:

- xodimlarga - ularning ish beruvchi bilan mehnat munosabatlari davrida (bunga sinov vaqti va ishdan bo‘shatish kuni ham kiradi);
- yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarga - ular sug‘urta badallari to‘laydigan davrda;
- dehqon xo‘jaliklari a’zolariga - ular sug‘urta badallari to‘laydigan davrda.

Pensiya jamg‘armasi shakllanishining boshqa elementlari ham bor:

«Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining‘ 15- moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda jarohatlanganlik yoki kasb

kasalligi oqibatida nogiron bo‘lganlarga pensiya to‘lash xarajatlarini qoplash uchun regress talablar (da’volar) bo‘yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag‘lar;

«Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 14- moddasiga muvofiq muddatidan oldin tayinlangan pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash uchun o‘tkaziladigan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari;

«Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash uchun o‘tkaziladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mablag‘lari;

Hisoblangan jarimalar summalari, qonun hujjatlariga muvofiq soliq organlarini rivojlantirish jamg‘armasiga undirilgan summalaridan tashqari, sug‘urta badallari va ajratmalarning o‘z vaqtida to‘lamaganligi uchun penyalar;

Yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari;

Pensiya jamg‘armasiga ajratmalarni hisobga olishda quyidagi schyotlardan foydalaniladi:

4520-«Davlat maqsadli jamg‘armalariga bo‘nak to‘lovlari»;

6520-«Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar».

4520-«Davlat maqsadli jamg‘armalariga bo‘nak to‘lovlari» schyotida korxona va tashkilotlar tomonidan Pensiya jamg‘armasiga hisobot davrida o‘tkazib berilgan bo‘nak to‘lovlari hisobga olinadi.

Bu muomalaga quyidagicha provodka beriladi:

D-t 4520-«Davlat maqsadli jamg‘armalariga bo‘nak to‘lovlari»

K-t 5110-«Hisob-kitob schyoti»;

6520-«Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar» schyotida korxona va tashkilotlar tomonidan Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan ajratmalar haqidagi ma’lumotlar umumlashtiriladi. Pensiya jamg‘armasiga ajratmalar hisoblanganida quyidagicha provodkalar beriladi:

Kapital qo‘yilmalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlari hisoblandi:

D-t 0810-0890;

K-t 6520-«Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar». Xarajatlarga tegishli sug‘urta to‘lovlari hisoblandi:

D-t 2010, 2310, 2510, 9420;

K-t 6520- «Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar».

Xodimning ish haqidan ushlanadigan sug‘urta to‘lovlari hisoblandi:

D-t 6710-«Xodimlar bilan mehnat haqi hisobidan hisoblashishlar»;

K-t 6520-«Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar».

Hisobot davri yakunida Pensiya jamg‘armasiga ilgari to‘langan bo‘nak to‘lovlari yakuniy hisob-kitob qilish uchun 6520-»Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar» schyotiga o‘tkaziladi:

D-t 6520-«Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar»

K-t 4520-«Davlat maqsadli jamg‘armalariga bo‘nak to‘lovlari».

Shundan so‘ng Pensiya jamg‘armasiga bo‘lgan qarz to‘lovlari o‘tkazib beriladi:

D-t 6520-«Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar»;

K-t 5110-«Hisob-kitob schyoti».

Yagona ijtimoiy to‘lovni va sug‘urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to‘lash tartibi. Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona ijtimoiy to‘lov yuridik shaxslarning mablag‘lari hisobidan to‘lanadi, sug‘urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o‘tkaziladi.

Yagona ijtimoiy to‘lovning hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik Moliyviy hisobot topshiriladigan muddatda;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan - har oyda hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik Moliyviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Bundan tashqari, **2013 yil 1 yanvardan boshlab**, soliq organlariga taqdim etiladagan soliq hisobotlari va boshqa ma’lumotlarni birlashtirildi.

Jumladan, yagona ijtimoiy to‘lov bilan fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badali, shuningdek byudjetdan tashqari Pensiya, Yo‘l hamda Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar bo‘yicha hisobot shakllari birlashtirildi.

Sug‘urta badallarining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik Moliyviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallarini to‘lash har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

2. Yagona ijtimoiy to‘lovning eng kam miqdori hisobi va hisoboti.

2011 yildan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yangi - YaITning eng kam miqdori hisob-kitobi joriy etildi. Yagona ijtimoiy to‘lovning eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga *(AV tomonidan 2010 yil 13 aprelda 2095-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)* binoan YaITning eng kam miqdorini hisob-kitob qilish uchun bir oyda barcha xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlari (bir kunda ishlagan soatlaridan qat’i nazar) soni, biroq korxonada o‘rnatilgan bir oydagi ish kunlari sonidan ortmagan holda olinadi.

Ilgari amal qilgan Yagona ijtimoiy to‘lovning bazaviy miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom (bundan keyin - 1906-son Vaqtinchalik nizom) o‘z kuchini yo‘qotdi. Uning o‘rniga Yagona ijtimoiy to‘lovning bazaviy miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizom joriy etildi.

Xodimlar tomonidan amalda ishlangan kunlar sonini aniqlash uchun birlamchi hujjat bo‘lib ish vaqtidan foydalanishni hisobga olish tabeli hisoblanadi. Agar tabelda xodimlar bir qismining ishga kun oralab chiqishi qayd etilsa (savolda aytilganidek), YaITning eng kam miqdori hisob-kitobi uchun yuqorida tilga olingan xodimlar tomonidan amalda ishlangan kunlar sonini olish kerak.

Agar mehnat shartnomalari shartlari bo‘yicha mazkur xodimlar uchun to‘liqsiz ish kuni belgilangan bo‘lsa, ayrim xodimlar ish kunining davomiyligidan qat’i nazar, korxona bo‘yicha ish kunlari hisoblangan 26 kunning hammasi amalda ishlangan kunlar deb qabul qilinadi.

Yagona ijtimoiy to‘lovning bazaviy miqdori kiritilishi munosabati bilan Yagona ijtimoiy to‘lovning eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq bir oy uchun YaITning eng kam miqdori quyidagicha belgilanadi:

EKMyait = M/n x N,

bu erda:

M - barcha xodimlar tomonidan bir oyda amalda ishlangan kunlar miqdori (bir kunda ishlangan soatlardan qat’i nazar), biroq korxonada belgilangan bir oy uchun ish kunlari miqdoridan ko‘p emas. Amalda ishlangan kunlarga yillik mehnat ta’tiliga va ish haqi saqlangan holda beriladigan ta’tilga to‘g‘ri keladigan kunlar ham kiradi;

n - korxonada belgilangan bir oy uchun ish kunlari soni. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi (MAIMQV) tomonidan belgilanadigan ish vaqti hisob-kitobiga muvofiq belgilanadi;

N - bir xodimga oy uchun belgilangan YaIT me’yori - eng kam ish haqining bir baravari.

Ko‘rinadiki, amalda ishlangan kunlar miqdori korxonada belgilangan ish kunlari miqdoridan ko‘p bo‘lishi mumkin emas, ya’ni YaIT eng kam miqdorining hisob-kitobida ma’muriy-boshqaruv xodimlari va ishlab chiqarish xodimlari tomonidan amalda ishlangan kunlarni qo‘shish va hosil bo‘lgan summani 5 kunlik ish haftasidagi ish kunlari miqdoriga bo‘lish noto‘g‘ridir. Shuningdek, olingan summani 6 kunlik ish haftasidagi ish kunlari miqdoriga bo‘lish ham noto‘g‘ri bo‘ladi.

YaITning eng kam miqdorini ushbu holda ular uchun 5 va 6 kunlik ish haftasi belgilangan xodimlar bo‘yicha alohida-alohida hisoblash lozim. Ya’ni avval ma’muriy-

boshqaruv xodimlari va ishlab chiqarish xodimlari bo‘yicha alohida-alohida belgilanadi, so‘ngra ular qo‘shiladi va hisoblangan summa umuman korxona bo‘yicha amalda hisoblab yozilgan YaIT summasi bilan taqqoslanadi.

MISOL. Korxonada ma’muriy-boshqaruv xodimlari uchun 5 kunlik va ishlab chiqarish xodimlari uchun 6 kunlik ish haftasi qabul qilingan. YaIT hisoblab yoziladigan mehnat haqi tarzidagi daromadlar summasi iyulda 3 343 000 so‘mni tashkil qildi. YaIT to‘lashdan ozod qilish yoki uning stavkasini pasaytirish tarzidagi imtiyozlar qo‘llanmaydi.

Shuningdek, iyul uchun quyidagi ma’lumotlar mavjud:

Ko‘rsatkichlar	***Ma’muriy-boshqaruv xodimlari (5 kishi)***	***Ishlab chiqarish xodimlari (15 kishi***
Amalda ishlangan kunlar miqdori	99	328
MAIMQV ish vaqtining hisob-kitobiga ko‘ra korxonada belgilangan ish kunlari miqdori	21	26
Eng kam ish haqi miqdori (so‘m)	49 735	

Keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqib, ma’muriy-boshqaruv xodimlari va ishlab chiqarish xodimlari bo‘yicha alohida-alohida YaITning eng kam miqdorini belgilaymiz.

Ma’muriy-boshqaruv xodimlari bo‘yicha YaITning eng kam miqdori - 234 465 so‘m (99 / 21 x 49 735).

Ishlab chiqarish xodimlari bo‘yicha YaITning eng kam miqdori - 627 426 so‘m (328 / 26 x 49 735).

Umuman korxona bo‘yicha iyul uchun YaIT eng kam miqdori summasi - 861 891 so‘m (234 465 + 627 426).

Iyul uchun amalda hisoblab yozilgan YaIT - 835 750 so‘m (3 343 000 x 25%).

YaITning eng kam miqdori amaldagi miqdordan oshganligi bois byudjetga 861 891 so‘m (qo‘shimcha hisoblangan summa - 26 141 so‘m) to‘lanadi.

YaITning eng kam miqdori barcha xodimlar tomonidan hisobot oyida haqiqatda ishlangan kunlardan (bir kunda ishlangan soatlardan qat’i nazar) va Yagona ijtimoiy to‘lovning eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga *(MV va DSQning AV tomonidan 2010 yil 13 aprelda 2095-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan)* ko‘ra belgilangan me’yordan (har bir xodimga oyiga eng kam ish haqi miqdorida) kelib chiqib aniqlanadi.

Agar SKga muvofiq hisoblab chiqilgan YaIT summasi YaITning eng kam miqdoridan kam bo‘lsa, u holda yagona ijtimoiy to‘lov YaIT eng kam miqdorining SKga muvofiq hisoblab chiqarilgan YaIT summasidan ortgan qismiga qo‘shimcha hisoblanadi.

Agar SKga muvofiq hisoblab chiqarilgan YaIT haqiqiy summasi YaITning eng kam miqdoridan ko‘p yoki unga teng bo‘lsa, u holda YaIT haqiqatda hisoblangan summa miqdorida to‘lanishi kerak.

MISOL. Korxonaning asosiy faoliyat turi konsalting xizmatlari ko‘rsatishdan iborat. Korxonada 5 kunlik ish haftasi o‘rnatilgan. Korxonada ishlovchilar soni 5 kishini tashkil qiladi. YaITni to‘lashdan ozod etish yoki YaIT stavkalarini pasaytirish ko‘rinishidagi imtiyozlar qo‘llanilmaydi.

2012yilning I choragi yakunlari bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar mavjud:

Hisobot choragining oyi	*YaMTning eng kam miqdorini hisoblashda hisobga olinadigan xodimlar soni*	*Haqiqatda ishlangan kunlar*	*Ish kunlari soni (MAIMQVning* ish vaqti hisob-kitobiga binoan)*	*YaIT hisoblanadigan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar summasi (har bir oy uchun) (so‘m)*
Yanvar	5	82	21	766 000
Fevral	5	74	20	742 000
Mart	5	92	21	792 000
Jami	-	-	-	2 300 000

Yagona ijtimoiy to‘lov hisob-kitobini to‘ldirish (051-satrgacha)

YaIT hisob-kitobini to‘ldirish maqsadida YaIT bo‘yicha **soliq solinadigan baza** o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi:

0301-satrda yanvar oyi uchun YaIT bo‘yicha soliq solinadigan baza, ya’ni **766 000** so‘m ko‘rsatiladi;

0302-satrda fevral oyi uchun o‘sib boruvchi yakun bilan hisoblab chiqarilgan YaIT bo‘yicha soliq solinadigan baza, - **1 508 000** so‘m (766 000 + 742 000) ko‘rsatiladi;

0303-satrda mart oyi uchun o‘sib boruvchi yakun bilan hisoblab chiqarilgan YaIT bo‘yicha soliq solinadigan baza, - **2 300 000** so‘m (1 508 000 + 792 000) ko‘rsatiladi;

030-satrda I chorak yakunlari bo‘yicha YaIT bo‘yicha soliq solinadigan bazani, ya’ni **2 300 000** so‘mni ko‘rsatish kerak.

Soliq kodeksiga muvofiq hisoblangan (25%lik stavka bo‘yicha) YaIT summalari 050, 05011, 05012 va **05013-satrlarda** ko‘rsatiladi:

050-satrda I chorak uchun hisoblangan YaIT summasi, - **575 000** so‘m (2 300 000 x 25%) ko‘rsatiladi;

05011-satrda yanvar uchun hisoblangan YaIT summasi, - **191 500** so‘m (766 000 x 25%) ko‘rsatiladi;

05012-satrda fevral uchun o‘sib boruvchi yakun bilan hisoblangan YaIT summasi, - **377 000** so‘m (1 508 000 x 25%) ko‘rsatiladi;

05013-satrda mart uchun o‘sib boruvchi yakun bilan hisoblangan YaIT summasi, - **575 000** so‘m (2 500 000 x 25%) ko‘rsatiladi.

Ushbu ma’lumotlar asosida I chorak yakunlari bo‘yicha YaIT Hisob-kitobini 051-satrgacha o‘sib boruvchi yakun bilan to‘ldiramiz:

Yagona ijtimoiy to‘lov
HISOB-KITOBI
(mikrofirma va kichik korxonalar uchun)

Ko‘rsatkichlar	*Satr kodi*	*Summa*		
1	*2*	*3*	*4*	*5*
Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar (SKning 172-moddasi)	010	**2 300 000**		
Yagona ijtimoiy to‘lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari hisoblanmaydigan to‘lov turlari (Hisob-kitobga ilovaning	020	-		

010-satri)				
Soliq solinadigan baza (010-satr-020-satr), shu jumladan:	030	**2 300 000**		
Chorakning birinchi oyi uchun	0301	766 000		
Chorakning ikkinchi oyi uchun	0302	1508 000		
Chorakning uchinchi oyi uchun	0303	2 300 000		
Yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi, %	040	25%		
Hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lov summasi (030-satr x 040-satr), shu jumladan:	050	**575 000**		
Birinchi oy uchun	05011	191 500		
Ikkinchi oy uchun	05012	377 000		
Uchinchi oy uchun	05013	575 000		
Hisobot davri uchun qo‘shimcha hisoblangan YaIT summasi	051		X	X
Hisobot davri uchun to‘lanishi kerak (050-satr + 051-satr)	052			
Avvalgi Hisob-kitob bo‘yicha hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lov summasi	060			

Izoh. *Ixtisoslashtirilgan tsexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironlar mehnatidan foydalanuvchi yuridik shaxslar tomonidan imtiyozli stavka qo‘llanilganida ustunlar quyidagi tartibda to‘ldiriladi: 3-ustun - umumbelgilangan tartibdagi stavka uchun, 4-ustun - imtiyozli stavka uchun, 5-ustun - yig‘ma ustun.*

Ma’lumotnoma - YaITning eng kam miqdori hisob-kitobini to‘ldirish tartibi. YaIT Hisob-kitobining 051, 052-satrlarini to‘ldirish uchun YaITning eng kam miqdorini hisoblab chiqarib, Ma’lumotnoma - YaITning eng kam miqdori hisob-kitobini **o‘sib bormaydigan yakun bilan** quyidagi tartibda to‘ldiradi.

Yagona ijtimoiy to‘lovning eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga (bundan keyin - 2095-son Nizom) muvofiq hisoblab chiqilgan YaITning eng kam miqdori summalari quyidagi satrlarda aks ettiriladi:

0501-satrda - yanvar oyi uchun YaITning eng kam miqdori - **194 203,33** so‘m (82 / 21 x 49 735);

0502-satrda - fevral oyi uchun YaITning eng kam miqdori (o‘sib bormaydigan yakun bilan) - **184 019,5** so‘m (74 / 20 x 49 735);

0503-satrda - mart oyi uchun YaITning eng kam miqdori (o‘sib bormaydigan yakun bilan) - **217 886,67** so‘m (92 / 21 x 49 735);

050-satr bo‘yicha - 0501, 0502, 0503-satrlarning yakuniy summasi - **596 109,5** so‘m (194 203,33 + 184 019,5 + 217 886,67).

Oylarga bo‘lingan holda I chorak uchun **hisoblab yozilgan YaIT** summalari 0601, 0602, 0603-satrlarda ko‘rsatiladi. 0601-0603-satrlarni to‘ldirishda Ma’lumotnoma-YaITning eng kam miqdori hisob-kitobida keltirilayotgan YaIT Hisob-kitobining 0501, 0502, 0503-satrlari ostida tegishli ravishda YaIT Hisob-kitobining 05011, 05012, 05013-satrlarini tushunish kerak:

0601-satrda yanvar oyi uchun hisoblangan YaIT summasi,- **191 500** so‘m ko‘rsatiladi. Mazkur ko‘rsatkich hisobot davri uchun YaIT Hisob-kitobining 0501-satri (191 500 so‘m) va avvalgi hisobot davri uchun YaIT Hisob-kitobining 050-satri orasidagi farq sifatida hisoblab chiqariladi (I chorak yakunlari bo‘yicha Ma’lumotnoma-hisob-kitobni to‘ldirishda 050-satr nolga teng deb qabul qilinadi);

0602-satrda fevral oyi uchun hisoblangan YaIT summasi ko‘rsatiladi. Satr bo‘yicha ma’lumotlar hisobot davri uchun YaIT Hisob-kitobining 0502 va 0501-satrlari orasidagi farq sifatida hisoblab chiqariladi, ya’ni: 377 000 - 191 500 = **185 500** so‘m;

0603-satrda mart oyi uchun hisoblangan YaIT summasi ko‘rsatiladi. Mazkur ko‘rsatkich hisobot davri uchun YaIT Hisob-kitobining 0503 va 0502-satrlari orasidagi farq sifatida hisoblab chiqariladi, ya’ni: 575 000 - 377 000 = **198 000** so‘m;

060-satrda 0601, 0602, 0603-satrlar summalari - **575 000** so‘m (191 500 + 185 500 + 198 000) ko‘rsatilishi kerak.

Oylarga bo‘lingan holda **I chorak uchun qo‘shimcha hisoblangan YaIT** summalari quyidagi satrlarda aks ettiriladi (o‘sib bormaydigan yakun bilan):

0701-satr bo‘yicha - yanvar oyi uchun qo‘shimcha hisoblangan YaIT summasi - **2 703,33** so‘m (194 203,33 - 191 500);

0702-satrda - fevral oyi uchun qo‘shimcha hisoblangan YaIT summasi. Mazkur satrda **«0»** qo‘yish kerak, zero fevral oyi uchun hisoblab yozilgan YaIT summasi (185 500) eng kam miqdordan ko‘p (184 019,5 so‘m);

0703-satrda - mart oyi uchun qo‘shimcha hisoblangan YaIT summasi - **19 886,67** so‘m (217 886,67 - 198 000);

070-satrda - I chorak uchun qo‘shimcha hisoblangan umumiy summa - **22 590** so‘m (2 703,33 + 0 + 19 886,67).

Avvalgi hisobot davrining oxiriga qo‘shimcha hisoblangan YaIT summasi Ma’lumotnoma-Hisob-kitobning **080-satrida** aks ettiriladi. Agar Ma’lumotnoma - YaITning eng kam miqdori hisob-kitobi I chorak yakunlari bo‘yicha taqdim etilayotgan bo‘lsa, satrda **«0»** ko‘rsatiladi.

Hisobot davrining oxiriga (I chorak) **qo‘shimcha hisoblangan YaIT** summalari quyidagi satrlarda **o‘sib boruvchi yakun bilan** aks ettiriladi:

090-satr bo‘yicha - 2011 yilning I choragi yakunlari bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan YaIT summasi (070 va 080-satrlar yig‘indisi) - **22 590** so‘m (22 590 + 0). Ma’lumotnoma-hisob-kitobning 090-satridagi ma’lumotlar Yagona ijtimoiy to‘lov hisob-kitobining 051-satriga ko‘chiriladi;

0901-satrda - yanvar oxiriga qo‘shimcha hisoblangan YaIT summasi (0701 va 080-satrlar summasi) - **2 703,33** so‘m (2 703,33 + 0);

0902-satrda - fevral oxiriga qo‘shimcha hisoblangan YaIT summasi (0702 va 0901-satrlar yig‘indisi sifatida o‘sib boruvchi yakun bilan hisoblanadi) - **2 703,33** so‘m (0 + 2 703,33);

0903-satrda - mart oxiriga qo‘shimcha hisoblangan YaIT summasi (0703 va 0902-satrlar yig‘indisi sifatida o‘sib boruvchi yakun bilan hisoblanadi) - **22 590** so‘m (19 886,67 + 2 703,33).

Ushbu ma’lumotlar asosida quyidagi Ma’lumotnoma - YaITning eng kam miqdori hisob-kitobi to‘ldiriladi:

Ma’lumotnoma - YaITning eng kam miqdori
HISOB-KITOBI
(mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun
YaIT hisob-kitobiga ilova qilinadi)

Ko‘rsatkichlar	***Satr kodi***	***Summa***
1	***2***	***3***
YaITning eng kam miqdorini hisob-kitob qilishda hisobga olinadigan xodimlar soni:	010	X
chorakning birinchi oyi uchun	0101	5
chorakning ikkinchi oyi uchun	0102	5
chorakning uchinchi oyi uchun	0103	5
Hisobot oyida barcha xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlari:	020	X
chorakning birinchi oyi uchun	0201	82
chorakning ikkinchi oyi uchun	0202	74
chorakning uchinchi oyi uchun	0203	92
Hisobot davrida ish kunlari soni:	030	X
chorakning birinchi oyi uchun	0301	21
chorakning ikkinchi oyi uchun	0302	20
chorakning uchinchi oyi uchun	0303	21
YaIT normativi:	040	X
chorakning birinchi oyi uchun	0401	49 735
chorakning ikkinchi oyi uchun	0402	49 735
chorakning uchinchi oyi uchun	0403	49 735
YaITning eng kam miqdori (0501-satr + 0502-satr + 0503-satr):	050	596 109,5
Chorakning birinchi oyi uchun (0201-satr / 0301-satr x 0401-satr)	0501	194 203,33
Chorakning ikkinchi oyi uchun (0202-satr / 0302-satr x 0402-satr)	0502	184 019,5
Chorakning uchinchi oyi uchun (0203-satr / 0303-satr x 0403-satr)	0503	217 886,67
Hisobot davrida YaITning hisoblangan summasi, shu jumladan:	060	575 000
Chorakning birinchi oyi uchun (hisobot davri uchun YaIT Hisob-kitobining 0501-satri - avvalgi hisobot davri uchun YaIT Hisob-kitobining 050-satri)	0601	191 500

chorakning ikkinchi oyi uchun (hisobot davri uchun YaIT Hisob-kitobining 0502-satri - hisobot davri uchun YaIT Hisob-kitobining 0501-satri)	0602	185 500
Chorakning uchinchi oyi uchun (hisobot davri uchun YaIT Hisob-kitobining 0503-satri - hisobot davri uchun YaIT Hisob-kitobining 0502-satri)	06031	198 000
Hisobot davrida YaITning qo‘shimcha hisoblangan summasi (0701-satr + 0702-satr + 0703-satr):	070	22 590
Chorakning birinchi oyi uchun (0501-satr - 0601-satr)	0701*	2 703,33
Chorakning ikkinchi oyi uchun (0502-satr - 0602-satr)	0702*	0
Chorakning uchinchi oyi uchun (0503-satr - 0603-satr)	0703*	19 886,67
Avvalgi hisobot davri oxirida YaITning qo‘shimcha hisoblangan summasi (avvalgi Ma’lumotnoma-hisob-kitobning 090-satri)	080	0
Hisobot davri oxirida YaITning qo‘shimcha hisoblangan summasi, shu jumladan (070-satr + 080-satr)	090	22 590
I oy oxirida (0701-satr + 080-satr)	0901	2 703,33
II oy oxirida (0702-satr + 0901-satr)	0902	2 703,33
III oy oxirida (0703-satr + 0902-satr)	0903	22 590

**) Agar 3-ustunning «0601», «0602» va «0603»-satrlari qiymati 3-ustunning tegishincha «0501», «0502» va «0503»-satrlari qiymatiga teng yoki katta bo‘lsa, 3-ustunning «0701», «0702» va «0703»-satrlarida «0» qiymati ko‘rsatiladi.*

3. Respublika yo‘l jamg‘armasiga to‘lovlar hisobi.

Yo‘l jamg‘armasi birlashgan byudjet daromadlarining tarkibini asosiy qismini tashkil qilgan holda davlatning o‘z vazifalarini amalga oshirishning Moliyviy asosi bo‘lib hisoblanadi va davlat mavjudligining ajralmas belgisidir.

Yo‘l jamg‘armasini tashkil etilishining muvofiqligini ta’minlovchi yana bir muhim faktor – bu byudjet taqchilligidir. Xarajatlarni daromaddan o‘sib ketishi kuchayishiga Moliyviy resurslarni faqat qidirib topishda emas, balki korxonalar, tashkilotlar va aholidan tushgan mablag‘larni qayta guruhlanishini ham talab etadi. Va nihoyat xo‘jalikni va xususiylashtirishni ko‘p qirrali shakllari bilan bir qatorda jamiyatda pul mablag‘larni qayta taqsimlashni yangi usullarini qo‘llash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Demak, yo‘l jamg‘armasi – bu jamiyatning ayrim mablag‘larini MOLIYAlashtirish va kompleks ravishda operativ mustaqillik asosida sarflash uchun davlat orqali jalb qilinadigan Moliyviy resurslarni qayta taqsimlash va foydalanish uslubidir. G‘arb mamlakatlarida bunday jamg‘armalarning soni 30 dan 80 gachadir.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar, uning to‘lovchilari, soliq solish ob’ekti, bazasi, soliq davri, majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish masalalari Soliq kodeksining (SK) XVI bo‘limi bilan tartibga solinadi.

Soliq to‘lovchilar

- yuridik shaxslar - O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs.

Quyidagilar Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning to‘lovchilari bo‘lmaydi:

notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

yagona soliq to‘lovi to‘lovchi yuridik shaxslar;

ixtisoslashtirilgan yo‘l xo‘jaligi boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar, Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash, ta’mirlash, rekonstruktsiya qilish va qurish bo‘yicha ishlarni bajarganlik uchun olingan daromadlar qismi bo‘yicha.

Soliq solish ob’ekti va soliq solinadigan baza. Sof tushum Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob’ekti va soliq solinadigan bazasi hisoblanadi.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob’ekti va soliq solinadigan bazasi quyidagilardir:

1) kommunal xo‘jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta’minoti korxonalari uchun - mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo‘shilgan qiymat solig‘i va tegishincha issiqlik ta’minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta’minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta’minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun - o‘z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tad-qiqot ishlarining qo‘shilgan qiymat solig‘i chegirib tashlangan holdagi qiymati. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta’minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo‘lsa, ushbu materiallarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, o‘z kuchlari bilan

bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi.

MISOL. Qurilish tashkiloti savdo majmuida qurilish ishlarini pudrat shartnomasi asosida amalga oshirmoqda. Qurilishning bir qismini bajarish uchun subpudrat tashkiloti jalb qilingan. Jami ish hajmi 21 370 ming so‘mni tashkil qilib, shundan o‘z kuchi bilan bajarilgan ishlar - 17 520 ming so‘mni (shu jumladan QQS summasi 2 920 ming so‘m) tashkil qiladi.

Ushbu holda Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratma quyidagicha hisoblanadi:

ajratma bazasi - 14 600 ming. so‘m (17 520 - 2920);

ajratma 1,4% stavka bo‘yicha hisoblanadi (Prezidentning 30.12.2011 yildagi PQ-1675-son qarori, 3-bandi)

ajratma summasi - 204,4 ming so‘m (14 600 x 1,4%);

3) vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo‘yicha, vositachilik va topshiriq shartnomasi bo‘yicha hamda vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun - ko‘rsatilgan xizmatlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi.

MISOL. Lizing kompaniyasi uskunalarni qurilish tashkilotiga lizingga bermoqda. Lizing to‘lovlari oylik to‘lab boriladi. Hisobot davrida lizing shartnomasi bo‘yicha asosiy qarz 3 000 ming so‘m, foiz to‘lovi 300 ming so‘mni tashkil qildi.

Shunday qilib, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratma summasi 4 200 so‘mni (300 000 x 1,4%) tashkil qiladi.

SKning 132-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar soliq solish ob’ekti sifatida qaralmaydi.

Soliq to‘lovchilar turli xil soliq solish ob’ektlariga ega bo‘lgan hollarda, ular soliq solish ob’ektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob’ektlardan kelib chiqqan holda Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lashi shart.

Soliq to‘lovchilar turli xil soliq solish ob’ektlariga ega bo‘lgan hollarda, ular soliq solish ob’ektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob’ektlardan kelib chiqqan holda Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lashi shart.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlarning turlari. - avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im;

- chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganligi uchun yig‘im.

Soliq to‘lovchilar. Avtotransport vositalarini oluvchi va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im to‘lovchilardir.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganligi uchun yig‘im to‘lovchilardir.

Soliq solish ob’ekti:

- avtotransport vositalarini olish va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;

- chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tish.

Soliq solinadigan baza:

- olingan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati;

- O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari.

Yig‘imlarni to‘lash tartibi. Avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im ular O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilayotganda, qayta ro‘yxatdan o‘tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav jamg‘armasiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda;

3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda, SK 324-moddasining 9-bandida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Yig‘im taraflarning yozma kelishuviga ko‘ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan taqdirda, yig‘im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so‘ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo‘lgan avtotransport vositasi qayta ro‘yxatdan o‘tkazilayotganida takroran yig‘im undirilmaydi;

4) avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig‘im to‘langanligi to‘g‘risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish yoki texnik ko‘rikdan o‘tkazish amalga oshirilmaydi.

Chet davlatlar avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganligi uchun yig‘im chet davlatning avtotransport vositasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

Avtotransport vositalari olinganligi va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganligi uchun ushbu vositalarning egalari (foydalanuvchilari) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida to‘lanadigan yig‘im foydalanish muddatiga qarab har bir ot kuchi uchun eng kam ish haqiga nisbatan foizda *(Prezidentning 30.12.2011 yildagi PQ-1675-son qarori, 23-ilovasi).*

№		Har bir ot kuchiga EKIHning foizlarida
1	foydalanish muddati 3 yilgacha	10
2	foydalanish muddati 3 yildan 7 yilgacha	7

3	foydalanish muddati 7 yildan ortiq	5

Bunda yig‘im miqdori:

- o‘rindiqlar soni 40 tagacha bo‘lgan avtobuslar va yuk ortish hajmi 20 tonnagacha bo‘lgan yuk avtotransport vositalari bo‘yicha - xarid qiymatining 20 foizidan;

- qolgan avtotransport vositalari bo‘yicha - xarid qiymatining 6 foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

Yo‘l jamg‘armasiga to‘lovlarga oid hisob-kitoblar 6530-«Byudjetdan tashqari jamg‘armalar» schyotining 6532 «Yo‘l jamg‘armasiga to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar» subschyotida olib boriladi.

Yo‘l jamg‘armasiga to‘lovlar bo‘yicha sodir bo‘ladigan quyidagi muomalalarni to‘g‘ri olib borilayotganligini tekshirishi lozim:

1) Yo‘l jamg‘armasiga tegishli bo‘lgan va mahsulot tannarxiga kiritiladigan summalarni, shu jumladan soliqlarni, to‘lovlarni va hokazolarni aks ettirish:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish», 9410 «Sotish xarajatlari» schyotlari,Kredit 6532 «Yo‘l jamg‘armasiga to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar» schyoti.

2) Tijorat xarajatlariga, hamda muomala chiqimlari (savdoda) hisobiga kiradigan, pensiya jamg‘armasiga hisoblangan badallar summasini aks ettirish:

Debet 9410 «Sotish xarajatlari» schyoti, Kredit 6532 «Yo‘l jamg‘armasiga to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar» schyoti.

3) Yo‘l jamg‘armasiga to‘lanadigan mahsulot, xizmat ko‘rsatuvchi bo‘linmalar va xo‘jaliklarning bajargan ishlari va ko‘rsatgan xizmatlari xarajatlariga qo‘shiladigan, hamda kelgusi davr xarajatlarining tarkibida hisobga olinadigan summalarning aks ettirilishi:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish», 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish», 3190 «Boshqa oldindan to‘lanadigan xarajatlar» schyotlari, Kredit 6532 «Yo‘l jamg‘armasiga to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar» schyoti.

4) Oldindan hisoblangan ajratmalarning summalarini Yo‘l jamg‘armasiga o‘tkazish:

Debet 6532 «Yo‘l jamg‘armasiga to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar» schyoti, Kredit 5110 «Hisob -kitob» schyoti.

Yo‘l jamg‘armasiga to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblarni to‘ldirishda: hisob-kitob qaydnomalari, to‘lov qaydnomalari, kassa chiqim orderlari, bank ko‘chirmalari, joriy oy uchun ichki balans hisoblashishlarni hisobga olish qaydnomasi, to‘lov topshiriqnomalari, 10-sonli jurnal order, Bosh daftar xujjatlaridan foydalaniladi.

1-chizma

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar hisob-kitobi

T/r	**To‘lovchilar va soliq solish ob’ekti**	**Soliq solinadigan baza**	**Stavka, %**	Korxona ma’lu-motlari bo‘yicha

1	Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari - QQS va aktsiz solig‘i chegirilgan holda, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilingan hajmi	865235. 5	1.4	12113.3
2	Respublika yo‘l jamg‘armasiga jami hisoblangan majburiy ajratmalar	865235. 5	X	12113.3

4. Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni hisobi.

Mustaqillik yillarida Yurtboshimiz rahnomoligida Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tadbiq etilishi, mazkur dasturning mantiqiy davomi bo‘lgan «Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» doirasida amalga oshirilayotgan ishlarimiz zamirida farzandlarimizni komil insonlar qilib tarbiyalash orqali Yurtimiz taraqqiyotining mustahkam poydevorini qo‘yish, uning buyuk kelajagini bunyod etishdek ezgu maqsad yotadi.

Prezidentimizning 2004 yil 21 maydagi «2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida»gi 3431-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 9 iyuldagi «2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish to‘g‘risida»gi 321-sonli qarori qabul qilindi. Dasturda umumta’lim maktablari binolarini va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini tubdan yangilash va kapital rekonstruktsiya qilishga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonunining, Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 7 iyundagi 263-sonli «Byudjetdan tashqari maktab ta’limi jamg‘armasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2004 yil 28 dekabrdagi 610-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2005 yilgi Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi qarorlariga asosan 2005 yildan maktab ta’limini rivojlantirishga majburiy to‘lov joriy etildi. 2010 yilan boshlab Ta’lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasi tashkil etildi.

Mazkur qarorga asosan 2004-2009 yillarda 3 mln. 012 ming o‘rinli 8500 ta maktablarda qurilish-tiklash ishlari amalga oshirildi. Shu jumladan 116640 o‘quvchi o‘rinli 351 ta yangi maktab binolari qurildi, 850951 o‘quvchi o‘rinli 2470 ta maktab binolari va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi mukammal rekonstruktsiya qilindi, 2044582 o‘quvchi o‘rinli 3607 ta maktablarning bino va inshootlari mukammal va 2072 ta maktablar joriy ta’mirlashdan chiqarildi.

Buning natijasida qishloq va shaharlarda hamda borilishi qiyin bo‘lgan xududlarda zamonaviy loyiha asosida qurilgan maktablar soni kengayib o‘zgacha tus oldi.

Dastur doirasida 2004-2009 yillarda 325 ta buzib o‘rniga yangi maktab binolari qurilishi rejalashtirilgan bo‘lsa, amalda ularning 351 tasi (108%) to‘liq bitkazildi.

Dastur bo‘yicha kapital rekonstruktsiya qilinadigan 2313 ta maktabdan, 2470 tasi (107%)da kapital rekonstruktsiya ishlari to‘liq bajarildi.

Kapital ta’mirlanadigan 3769 ta maktabdan 3607 ta (96%) sining bino va inshootlari to‘liq ta’mirlashdan chiqarildi.

2004-2009 yillar dasturi doirasida qayta tiklash ishlari amalga oshirilgan respublika bo‘yicha jami 8500 ta maktablarning 1326 tasi (16%) shaharlarda, 6887 tasi (81%) qishloq xududlarida, 287 tasi esa (3%) borilishi qiyin bo‘lgan xududlarda joylashgandir.

Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi tom ma’noda umumxalq harakatiga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buning sababi, 2004-2009 yillar mobaynida mahalliy hokimliklar, homiy tashkilotlar, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturiga qo‘shimcha ravishda respublika bo‘yicha jami 220573 o‘quvchiga mo‘ljallangan 402 ta, shu jumladan, 14997 o‘quvchi o‘rniga mo‘ljallangan 47 ta yangi maktab binolari qurildi, 14424 o‘quvchi o‘rniga mo‘ljallangan 30 ta maktab binolari kapital rekonstruktsiya qilindi, 58532 o‘quvchiga mo‘ljallangan 95 ta mavjud maktab bino va inshootlari kapital va 132620 o‘quvchiga mo‘ljallangan 230 ta maktablar joriy ta’mirlandi. Ushbu ishlarga jami 37,9 mlrd.so‘m miqdorida homiylar mablag‘lari yo‘naltirildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasurining amalga oshirilishi natijasida 1 ming 536 ta akademik litsey va kasb-xunar kolleji, umumta’lim maktablarining qariyb 9 mingtasi, ya’ni, deyarli hammasi, 1 ming 800 dan ortiq sport zali namunaviy loyihalar asosida barpo etildi yoki kapital rekonsruktsiya qilindi. Ushbu o‘quv muassasalarining moddiy-texnik bazasini muntazam yangilab borish, tizimli asosda zamonaviy kompyuter texnikasi, o‘quv-laboratoriya uskunalari, mebel va o‘quv anjomlari bilan qayta jihozlash, ularni talab darajasida saqlash hamda yaratilgan bu ulkan salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida mutlaqo yangi bir tuzilma – MOLIYA vazirligi huzurida maxsus jamg‘arma tashkil etildi. Bu jamg‘armaning hisob raqamiga 2010 yili 315 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, 2011 yilda 370 milliard so‘m ajratish ko‘zda tutilmoqda.

2-chizma

Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar hisob-kitobi

T/r	To‘lovchilar va soliq solish ob’ekti	Soliq solinadigan baza	Stavka, %	Korxona ma’lu-motlari bo‘yicha
1	Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari - QQS va aktsiz solig‘i chegirilgan holda, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish hajmi	86628. 5	0.5	4331.4
2	Maktab ta’limini rivojlantirishga jami hisoblangan majburiy ajratmalar		X	4331.4

Yuridik shaxslar Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadi.

Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar hisobga olishda quyidagi schyotlardan foydalaniladi:

4520-«Davlat maqsadli jamg‘armalariga bo‘nak to‘lovlari»;

6520-«Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar».

Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga ajratmalar hisoblanganida quyidagicha provodkalar beriladi:

D-t 9430 – «Boshqa operatsion xarajatlar»

K-t 6520-«Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar».

Shundan so‘ng Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar bo‘lgan qarz to‘lovlari o‘tkazib beriladi:

D-t 6520- «Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar»;

K-t 5110-«Hisob-kitob schyoti».

NAZORAT UChUN SAVOLLAR.

1. Yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi ?
2. Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari solish ob’ekti qanday aniqlanadi?
3. Yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lovining soliq solish bazasi qanday aniqlanadi?
4. Respublika yo‘l jamg‘armasiga hisob kitobi qanday amalga oshiriladi ?
5. Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar hisob kitobi qanday amalga oshiriladi ?